

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2023 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2023 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR	
Shuhrat Sirojiddinov	
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI	
Karomat Mullaxo'jayeva	
MAS'UL KOTIB	
Ozoda Tojiboyeva	
TAHRIR HAY'ATI	
Karl Rayxl (Germaniya)	
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)	
Seyhan Tanju (Turkiya)	
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)	
Benedek Peri (Vengriya)	
Vahit Turk (Turkiya)	
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)	
Eunkyung Oh (Koreya)	
Nazef Shahrani (AQSh)	
Boqijon To'xliyev	
Muhammadjon Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkiya)	
Qosimjon Sodiqov	
Zulxumor Xolmanova	
Mustafa O'ner (Turkiya)	
Nurboy Jabborov	
G'aybulla Boboyorov	
Kimura Satoru (Yaponiya)	
Imran Ay (Turkiya)	
Aftondil Erkinov	
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)	
Rashid Zohidov	
Otabek Jo'raboyev	
Bulent Bayram (Turkiya)	
Qo'ldosh Pardayev	
Nodirbek Jo'raqo'ziyev	
Oysara Madaliyeva	
Hilola Nazirova	

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Rashid Zohidov	
“Unvonul bayon”da “javomi’ul kalim” uslubi	4
Aynur Saydova	
“Kodeks Kumanikus”da Folklor Nümunələri	19
Shuhrat Hayitov	
“Boburnoma”ning qo'lyozma va tarjimalari xususida	31
Ozoda Tojiboyeva	
Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devoni manbalari, matniy tadqiq tarixi	46

ADABIYOTSHUNOSLIK	
Usmon Qobilov	
Tavhid, nubuvvat va badiiy tavsif masalasi tadqiqiga doir	61
Ahadjon Muhammadiyev	
Muqimiy va Muhyi “Sayohatnoma”larida an’ana va o'ziga xoslik	82
Gulzoda Soatova	
Oltay hayoti va ijodi haqida ba’zi mulohazalar	97

LINGVISTIKA	
Feada Samadbek	
Afg'oniston o'zbek tili fonetikasida assimilyatsiya hodisasi	109
Ehsanullah Quvonch	
Temuriylar davridan XX asr boshlarigacha Afg'oniston hududida o'zbek adabiy tili rivoji	120

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOTOLOGY	
Rashid Zohidov	
Javami'ul Kalim" style in "Unvonul-Bayan	4
Aynur Saydova	
Examples of Folklore in <i>Codex Cumanicus</i>	19
Shuhrat Hayitov	
Regarding the manuscripts and translations of "Boburnoma"	31
Ozoda Tojiboeva	
Sources of Alisher Navoi's divan "Favoid ul-kibar", history of textual research	46

LITERATURE	
Usmon Kobilov	
On the Study of the Problem of Tawhid, Prophecy and Artistic Description	61
Ahadjon Muhammadiyev	
Tradition and originality in Mugimiy and Muhyi "Sayohatnoma"	82
Gulzoda Soatova	
Some remarks about the life and work of Altay	97

LINGUISTICS	
Feada Samadbek	
The phenomenon of assimilation in the phonetics of the Uzbek language of Afghanistan	109
Ehsanullah Quvonch	
The development of the Uzbek literary language in Afghanistan from the Timurid period to the early 20 th century	120

MATNSHUNOSLIK

TEXTOTOLOGY

**“Unvonul bayon” da “javomi’ul kalim”
uslubu**Rashid Zohidov¹**Abstrakt**

Ushbu maqolada yuz yillardan beri ilm toliblari suyib o‘qib kelayotgan “Unvonul bayon” kitobining ilk marta arab tilidan ona tilimizga tarjimasi va sharhi haqida, jarayonda kechgan ilmiy-ijodiy izlanishlar, yondashuvlar xususida yangi, muhim ma’lumotlar berilgan. Kitob muallifi misrlik adib Abdulloh Shibraviy XVII-XVIII asrlarda kalom, hadis, fiqh, usuli fiqh ilmlarida yetuk olim bo‘lishi bilan birga, o‘z zamonasining nazmiy devon tartib bergan mumtoz shoirlaridan, adab ilmi bo‘yicha risolalar bitgan. U o‘z davrining bayonda mazmun va shakl uyg‘unligini his qilish malakasiga ega insonlaridan bo‘lib, bu imtiyoz adibga “javome’ul kalim” uslubini o‘zlashtirishga imkon bergan.

Kalit so‘zlar: *kalom, hadis, fiqh, usuli fiqh, bayon ilmi, adab ilmi.*

Kirish

Shayx Abdulloh Shibraviyning “Bayon manzili va zehnlar bo‘stoni, hikmatlar haqida nasihatlar to‘plami” (عنوان البيان و بستان) kitobida insoniy madaniyat va islomiy odob-axloq qoidalari aniq va yorqin bir ko‘rinishda taqdim etilgan. Bu aniqlik va yorqinlik nasihat va hikmatlar to‘plami bo‘lgan mazkur kitobning muvaffaqiyatini ta’minlagan xususiyatlardan biridir. Zamonlar sinovidan o‘tgan ibratli tajribalar, hikmatlarga yo‘g‘rilgan tarix bag‘ridagi bu manzillarni tanib, sahifadan sahifaga ichkariroq kirayotgan inson qachonlardir yo‘qotgan narsasini topganday quvonchga to‘ladi... oysiz, yulduzsiz zimiston tun bag‘rida adashib charchagan yo‘lchiga uzoqdan “yilt” etib bir nur ko‘rinsa, bu nur uni umid chirog‘i bo‘lib o‘ziga chorlamaydimi, bu umid unga tetiklik, kuch-quvvat bag‘ishlamaydimi, bu ishonch, bu quvvat uni najotga

¹ *Rashidov Zohid Fozilovich* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: rzohid1@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6521-5219

Iqtibos uchun: Rashidov, Z. F. 2023. “Unvonul bayon” da “javomi’ul kalim” uslubu”. *Oltin bitiglar* 4: 4 – 18.

eltmaydimi?!

“Unvonul bayon” kitobi bilan yaqindan tanishish asnosida ko’ngilda shunday taassurotlar kechdi (Kitob tolibi ilmlar orasida muxtasar holda “Unvonul bayon” nomi bilan mashhur bo’lgan). Bu bejiz emas. Kalomdagi i’joz¹ maqomi Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalom so’zlariga ham ko’chganiga hadisi shariflar guvoh. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hadislari Qur’oni karimda *hikmat* deya zikr etilgan. Hikmat “*javome’ul kalim*” (qisqa lafzda ko’p ma’nolarni jamlash) uslubi orqali namoyon bo’lgan. Bu ne’mat Oллоhning mahbub Payg’ambari Muhammad alayhissalomga berilgan edi. Ushbu kitobda ham ayni uslubga muhabbat seziladi. Ayni muhabbat ta’sirlanish samarasini ta’minlaganiga ham shubha yo’q.

Kitob muallifi Abu Muhammad Jamoliddin Abdulloh ibn Muhammad ibn Omir ibn Sharafiddin Shibraviy (vafoti – hijriy 1171 sana, milodiy 1757-yil) kalom, hadis, fiqh, usuli fiqh ilmlarida yetuk olim bo’lishi bilan birga, o’z zamonasining nazmiy devon tartib bergan mumtoz shoirlaridan, adab ilmi bo’yicha risolalar bitgan, bayonda mazmun va shakl uyg’unligini his qilish malakasiga ega insonlardan edi. Tabiiyki, bu imtiyoz adibga “*javome’ul kalim*” uslubini o’zlashtirishga imkon bergan. Muallif mo’jaz jumlada insonning o’zi bilan o’zi va atrofdagilar bilan munosabatidagi nozik nuqtalarni bo’rttirib, zarrabin ostida ko’rsatar ekan, bu sirli joziba o’quvchini o’ziga tortadi, qo’yib yubormaydi, mutolaa-dan uzilolmaysiz...

Albatta, bu tavsiflar — arabcha matnni o’qish davomida olingan taassurotlar. Agar asliyatdagi mazmun, ruh, kayfiyat tarjima matnida ham uyg’un namoyon bo’lsa, bu tarjimonning yutug’i. Shu o’rinda tarjima jarayoni bilan bog’liq, xususan, mumtoz arab tilidagi matnlar tarjimasida malaka malakasiga taalluqli ayrim fikrlarni aytishga ehtiyoj sezilyapti.

Ma’lumki, Islomning bosh manbayi muqaddas Qur’oni karim arab tilida nozil bo’lgan. Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalom ham arab tilida gapirganlar. Arab tili mukammallikda tengsiz ekani-ga shubha yo’q. Bu til asrlar davomida shu darajada takomillashgan asosga ega bo’ldiki, ilohiy hikmat natijasi o’laroq, lisoniy tizimdagi eng kichik o’zgarishgacha har bir holat uchun muayyan qonuniyat, aniq qoida ishlab chiqildi. Arab tilida qoidaga bo’yinsunmaydigan

¹ I’joz – ojjiz qoldirish. Aliy ibn Muhammad al-Jurjoniy Hanafiyning “Kitobut ta’rifot” kitobida ta’rif berilishicha, gapdagi i’joz ma’noni eng balig’ (yetuk) yo’l bilan ifodalash [88].

holat yo'q. Har bir o'zgarishning asosi, tegishli izohi bor. Aslida, arab tilini o'rganishning qiyinligi, balki osonligi ham shunda.

Arabiy matnni o'zga tilga o'girayotgan tarjimon, avvalo o'sha qonuniyatlardan xabardor bo'lishi talab etiladi. Jumladagi har bir so'zning lug'aviy ma'nosini bilish matn mazmuni hali to'la anglandi, degani emas. Asar va uning muallifi haqida butun tasavvur hosil bo'lmaguncha tarjimaning to'g'riligi ishtibohli bo'ladi. Shuning uchun ham bir satr, jumla, xatboshini o'qib chiqish bilan kifoyalanmasdan, balki butun boshli bo'limni o'qib, tushungandan so'nggina tarjimaga urinish ishonchliroq yo'ldir. Chunki matn ruhi qismda emas, butunda aks etadi. Matn ruhi anglansa, so'zlarni o'rni-o'rniga qo'yish osonlashadi. Aks holda, mazmun talab qilgan so'zning boshqa muqobili tanlanib, ma'no xiralashadi.

Bu vaziyatda boshqa og'riqli nuqta ham bor. Tarjimon arabiy matnni butun nozikliklari bilan tushunib, his qilib, mazmunni ona tilida u darajada bera olmasa-chi?! Bunday holatda, o'z tilining tarixidan bexabarlik, ona tilining tabiatini his qilmaslik hech kimga uni kamsitish huquqini bermaydi. Chunki ona tili har bir millatga Yaratuvchi tomonidan ato etilgan. Olloh taolo "Hujurot" surasining 13-oyatida aytadi: ***"Ey insonlar, darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishuvinglar (do'st-birodar bo'lishinglar) uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila-elatlar qilib qo'ydik"*** [Qur'oni Azim muxtasar tafsiri, 2019, 766].

Demak, har bir xalq, qabila, elat o'zining tarixi, urf-odatlarini, tili, boringki, o'zligini belgilaydigan xos xususiyatlari bilan yaratilgan. Yaratilish jihatidan biror tilning boshqa tildan ustunligi yo'q. Shu o'rinda rahmatlik ustozimiz Shayx Alouddin Mansur hazratlarining shaxsan o'zlaridan eshitganimiz bir ajib holat xotirga keldi. Ko'p jildlik Qur'oni Azim tafsiri bilan mashg'ul kunlarning birida ustozimiz qaysidir oyat izohida arabchadagi bir so'zning o'zbekcha muqobilini rosa izlagan ekanlar. "Holbuki, – deydi ustoz, – o'sha arabcha so'zning to'rt-beshta o'zbekchadagi ma'nodoshini topdim, lekin hech ko'ngilga o'tirmayapti. Ancha izlandim, vaqt allamahol bo'lib ketdi, lekin men izlagan so'z hech topilmayapti, namozlarimda ham so'radim. Kun-u tun xayolimdan ketmagan noma'lum so'z o'yida boshimni yostiqa qo'ydim. Ertalab bomdodga uyg'onganimga tilimda bir so'z aylanardi. Avvaliga anglolmadim, balki e'tibor ham bermadim. Namozni o'qib bo'lganimdan so'ng xonamga kirdim, haligi so'z hamon tilimda aylanardi. Tafsirni to'xtagan joyidan davom qildirish maqsadida sahifaga ko'zim tushishi

bilan nimadir “yarq” etib ochilganday bo’ldi. Subhanolloh, kecha izlay-izlay topolmaganim – ertalabdan beri tilimda aylanayotgan mana shu so’z ekan! Bir so’zning boshqa tildagi so’zga ma’noda bu darajada muvofiq kelishidan o’shanda qattiq hayratlanganman...” Keyin ustozning shunday degani hech esimdan chiqmaydi: “O’zbek tili qashshoq emas, biz qashshoqmiz. Tilimizda hamma holat uchun so’z bor, faqat uni izlab topish kerak, topolmasangiz, tilda ayb yo’q, ayb o’zingizda. Olloh – odil Zot. Ollohning adli dunyodagi barcha tillar uchun barobardir...” Rahmatlik ustozimizda til bilan bog’liq bunday nozik va ibratli kuzatishlar ko’p edi. Qolaversa, o’zbek tilining naqadar boyligini “Qur’oni Azim tafsiri” misolida amalda ko’rsatib ham qo’yдилar.

Demak, tarjimon ona tilini tarjima qilayotgan ajnabiy tildan kam bilmasligi, balki ko’proq bilishi kerak. Shundagina, avvalo, o’zi tarjima qilayotgan matn muallifining haqqini, qolaversa, tarjimaga muhtoj o’quvchilarning haqqini ado qilgan bo’ladi. Misol uchun, arab tilida fasohat va balog’at bilan, “javomi’ul kalim” uslubida, yuksak maqomda izhor qilinayotgan fikr nega o’zbek tilida no’noq ifodalanishi kerak?! To’g’ri, asliyatdagi shakl va mazmun uyg’unligidan tomgan shirani tarjima qilinayotgan tilda aynan berish mushkil, aksar imkonsiz ish. Ayniqsa, nazmiy matnni, saj’li nasrni o’g’irishda mushkillik chandon ortadi. Lekin nima bo’lgandayam, bu tarjimaning asliyatdan uzoqlashishiga, tarjimonning erinchoq va no’noqligiga uzr bo’lolmaydi. Matoning asl qiymatli tomonini teskari o’girib, astdan libos tikiladimi? Agar shunday qilinsa, bu umumiy qoidaga xilof ish bo’ladi va urf buziladi.

“Unvonul bayon” kitobi tuzilishi, nusxalari

Endi “Unvonul bayon” kitobining umumiy xarakteri va tuzilishi, kitobning ushbu tarjimaga asos bo’lgan nusxalari va ularning tahqiqi, shuningdek, matnni sharhlash jarayoni bilan bog’liq ayrim jihatlar haqida to’xtalsak. Yuqorida asar muallifi Abdulloh Shibraviyning Islom olamida tanilgan olim va adib ekani, mazkur kitobining mavzu doirasi haqida bir qadar ma’lumotlar berildi. Qo’shimcha qiladigan bo’lsak, “Unvonul bayon...” kitobi tarkibiy tuzilishi va mavzu doirasiga ko’ra, adabiy-ma’rifiy asardir. Shuning uchun bu manba “makorimul axloq” sifatlarini paydo qilishga muhabbat, nafsni poklashga himmat, adabiy zavqni oshirishga rag’bat uyg’otadigan qo’shimcha adabiyot sifatida qadimdan madrasa va undan keyingi ta’lim bosqichlarida o’qitilgan va hanuz o’qitib kelinmoqda. Shuning uchun bu kitobning nusxalari

sal kam ikki yuz yildan beri qayta-qayta nashr qilinib, dunyoning aksar islomiy ilm dargohlarida ixtiyoriy adabiy manba sifatida ta'lim jarayoniga joriy etilgan. Hijriy 1275 (milodiy 1858) yilga oid qadimiy nusxa Misrda tab' qilingan. Shuningdek, 1282/1865 yil; 1287/1870-yil; 1291/1874-yil; 1300/1882-yil; 1305/1887-yil; 1317/1899-yilga oid nusxalar ham Misrda nashr etilgan.

Biz iste'foda etgan matn hijriy 1430, milodiy 2010-yilda Bayrutda chop qilingan, Muhammad Xayr Ramazon Yusuf tomonidan tahqiq etilgan nusxa bo'lib, muhaqqiq bu nashrga ikkita qadimiy nusxani asos qilib olgan. Birinchisi, tab' qilingan yili noma'lum bo'lgan 160 sahifadan iborat qadimiy nusxa. Bu nusxani muhaqqiq shartli ravishda (ق) harfi bilan belgilagan. Ikkinchisi, hijriy 1282, milodiy 1865-yilda Qohirada chop qilingan 102 sahifadan iborat nusxa bo'lib, muhaqqiqning bildirishicha, bu nusxa oldingisiga nisbatan hajman to'liq va nashr sifati yaxshiroq. "Garchi bu nusxa ham biroz xatolardan xoli bo'lmasa ham, – deydi Muhammad Xayr Ramazon Yusuf, – matn tahqiqida ko'proq shu nusxaga suyandim va uni shartli ravishda (ج) harfi bilan belgiladim".

Muhaqqiq mazkur ikki nusxa o'rtasidagi farqlarni, ayrim tushunilishi qiyin lafzlarni, bayt muallifi va baytlarga tegishli manbalarni havolada ko'rsatib borgan va zarur o'rinlarda qisqacha izohlagan. Kitob oxirida الفهارس العامة – "Umumiy mundarija" sarlavhasi ostida sakkiz qismdan iborat tahqiq natijalari ilmiy ko'rsatkichlar sifatida ilova qilingan. Albatta, matnni anglash, uni tarjima qilish asnosida ilmiy ko'rsatkichlardagi ma'lumotlarning foydasi katta bo'ldi, lekin ayrim o'rinlarda Muhammad Xayr Ramazon Yusuf tahqiqi bilan chegaralanmasdan, hijriy 1313, milodiy 1894-yilda Misrda tab' etilgan nusxaga ham murojaat qildik, tafovutli o'rinlarni havolada izohladik.

"Unvonul bayon" kitobining tuzilishi an'anaviy hamd, na't, muqaddima, mavzuga ko'ra ajratilgan yetti bo'lim va xotimadan tarkib topgan. Tarjimada arabiy matn shartli bo'laklarga taqsimlanib, har bo'lakdan so'ng matn tarjimasi berildi, tarjimadagi ayrim so'z va jumlar qavs ichida izohlandi. Matn mazmuni va ruhini o'zbek tilida imkon qadar saqlashga harakat qilindi. Lekin bu jihat arabcha matnni nahv qoidalariga muvofiq so'zma-so'z tarkib qilishda xalal berishi mumkin. Negaki, so'zma-so'z tarkib og'zaki tahsilga asoslangan. Shuningdek, bu o'rinda og'zaki nutq bilan yozma nutq orasidagi keskin tafovutni ham hisobga olish zarur. Og'zaki nutqda ustoz shogird bilan bevosita aloqada bo'ladi, yozma nutqda esa buning iloji yo'q. Shuning uchun ushbu tarjimada ko'proq e'tibor

mazmunni yetkazishga qaratildi, shaklni tanlashda esa izohga hojat sezmaydigan holat ixtiyor qilindi. “Unvonul bayon” adabiy-ma’rifiy manba o’laroq, unda juda ko’plab baytlar keltirilgan. Asliyatga yaqinlik ruhini saqlab qolish maqsadida baytlar nazmiy shaklda tarjima qilindi. Tarjimada mazmunga ko’proq e’tibor qaratilib, qofiya, vazn, turoq, misralar soni kabi unsurlarni belgilashda ayni e’tiborga ko’ra mustaqil yo’l tutildi. Arab tilidan xabardor ilm toliblarining ehtiyojini hisobga olgan holda kitobning ilova qismida baytlarning tahqiqi bilan birga ularning nasriy bayoni ham taqdim etildi.

Tarjima matnidan keyin hikmatlar sharhlandi. Alohida xatboshidan qiyalama (qalin kursiv) harflari bilan boshlangan sharh **izoh** so’zi bilan matn tarjimasidan ajratildi. Sharhlarning tuzilishi va tarkibi qat’iy, barqaror tartibga bo’ysundirilmagan bo’lsa-da, mazmunni ifodalashda nisbatan umumiy qoida joriy qilindi. Ya’ni, hikmatlar izohlanar ekan, avvalo, ularga Qur’oni karimdan, keyin hadisi sharifdan, so’ngra sahobalar va ulardan keyingi ulug’larning so’zlaridan dalillar keltirildi. To’g’ri, bu qonuniyat sharhning boshidan oxirigacha bir tekis joriy bo’ldi, deyolmaymiz. Sababi, Abdulloh Shibraviy hikmat sifatida taqdim etgan matn ichida ko’rinishdan oddiy, izohga hojat yo’qdek tuyuladigan jumlar ham uchraydiki, ba’zan ko’rinishidan kelib chiqib ularni soddaroq izohlagan bo’lsak, ayrim o’rinlarda xuddi shunday sodda ko’ringan jumlar biz uchun kengroq izohga muhtojdek tuyuldi. Sharhlarning hajmidagi farqlari ham shu sabab bilan bog’liq. Shuning uchun qisqaroq sharhlarda umumiy qoidadan zohiran chekinish hollari kuzatilishi mumkin. Chunki qisqa sharhlarda ham muayyan dalillar keltirilmagan bo’lsa-da, izohlar zamiridagi mazmun oyat, hadislar muqtazosidan tashqarida emas. Balki, shuning uchun bo’lsa kerak, turli makon, zamonlarda yashagan mutafakkir adiblarning qarashlarida bir-biriga juda o’xshash, bir-birini to’ldiradigan muvofiqliklar kuzatiladi. XVII-XVIII asrlarda yashagan Abdulloh Shibraviy to’plagan hikmatlar mazmunining Alisher Navoiy, So’fi Olloyor kabi mumtoz adabiyotimiz vakillarining tafakkur tarziga yaqinligini ayni jihat bilan izohlash mumkin. Demak, haq so’z makon, zamon tanlamas ekan. U qachon va qayerda aytilishidan qat’i nazar, bir xil jaranglab, bir xil ta’sir kuchiga ega bo’laveradi. Sharhda bu hodisaga mumtoz adabiyotimiz, hatto zamonaviy adabiyotimizdan ko’plab misollar keltirildi. Umuman, butun insoniy tafakkurda kechadigan bu ma’rifiy hodisani adabiy an’ana sifatida o’rganish o’ta dolzarb va alohida tadqiqot mavzusidir.

Shu o'rinda sharhdagi matnga yondashuv masalasiga ham bir oydinlik kiritib o'tish zarur. Negaki, bu jihatni ochiqlash, bir tomondan, sharhning xos xususiyatini (individualligini) ko'rsatsa, boshqa tomondan, qaysidir ma'noda shorihning faoliyatini oqlashga hujjat bo'ladi. Matnga yondashuvda qism orqali butunga borish yo'li tanlandi. Ya'ni, sharh umumiy ma'noni kengroq izohlashdan emas, balki jumladagi bitta so'z yoki tushuncha haqida fikr yuritish orqali umumiy ma'no tomon harakatlanishdan boshlandi.

Agar sharh uchun ma'lum so'z yoki tushunchani tanlashdagi belgilovchi omil nimadan iborat, deb so'ralsa, hech bir mubolag'asiz, xolisanlillah aytishimiz mumkinki, bu o'sha paytdagi kayfiyat va holat taqozosidir. Muayyan kayfiyat, holat ta'sirida hikmatga yaqinroq borilgani sayin tafakkurga keng maydon ochilib, yo'l ravonlashdi. Yo'l ravonlashar ekan, tarjima matnidagi qaysidir so'z yoki tushuncha yorqinroq ko'rinib, go'yo matndan ajralib chiqdi. So'ng favqulodda paydo bo'lgan fikr-xulosalar o'sha ajralgan qism atrofida avval kichik, so'ngra kattaroq, keyin yanada kengroq doiralar yasab, tafakkur jarayoni to butun jumlani qamrab olguncha davom etdi. Mana shu holatda, turli kayfiyatlar og'ushida "Unvonul bayon" kitobi birinchi uslubining tarjimasi va sharhi nihoyasiga yetdi.

Quyida yetti bo'limdan iborat "Unvonul bayon" kitobining "Muruvvat egalarini kamolga yetkazuvchi komilliklar haqida" deb nomlangan birinchi bo'limidan ayrim namunalar keltiramiz:

مَنْ قَلَّ عَقْلُهُ كَثُرَ هَزْلُهُ.

Aqli oz kishining hazili ko'p.

Izoh. Aql insonga bosiqlik, vazminlik bag'ishlaydigan ne'matdir. Hazil-huzulga berilgan kishida vazminlik o'rnini yengillik egallaydi. Agar hazilkashlik tabiatga aylansa, bunday kimsaning aqli bosiqlikni ko'tara olmaydigan bo'lib qoladi. Umar roziyallohu buning xavfli oqibatidan ogoh etib aytgan edi: "Ko'p kuladigan kishining haybati kamayadi. Hazillashaveradigan kishi hazilni yengil sanaydigan bo'ladi. Kim nimani ko'p qilsa, shu bilan taniladi. Kim ko'p gapirsa, nuqsoni ko'payadi. Nuqsoni ko'paygan kishining hayosi ketadi. Hayo ketsa, taqvo kamayadi. Taqvo kamaysa, qalb o'ladi".

Muhammad ibn Munkadir aytadi: "Onam menga nasihat qilardi: "Bolam, yosh bolalar bilan ko'p hazillashma, qadring ketadi".

Said ibn Os o'g'liga derdi: "Ey o'g'lim! Hurmatli kishilar bilan hazillashma, nafratiga yo'liqasan. Pastkashlar bilan ham hazillashma, senga qarshi jur'atli bo'lib qolishadi".

Kamgaplik – malomatdan eng uzoqlashtiruvchi sifat.

Izoh. Kam gapirgan kishi malomatdan uzoq bo’ladi. Chunki uning sukuti ko’p. Sukut uchun javob berish esa gap uchun javob berishdan osonroq. Kamgaplikning ziddi so’zamollikdir. So’zamollikda xatar bor, jim yurishda salomatlik. Shuning uchun jim yurishning fazilati ulkan. Albatta, jim yurish quruq sukutdan iborat fe’l emas. Unda oxirat g’ami, davomli vazminlik, tafakkur uchun imkon, zikr, ibodat jamlangan. Jim yurgan inson bu dunyoda so’zlar charchog’idan, Oxiratta u so’zlar uchun hisob berishdan xalos bo’ladi. Olloh taolo deydi: **“U (inson) biron so’zni talaffuz qilmas, magar (talaffuz qilsa), uning oldida hoziru nozir bo’lgan bir kuzatguvchi (farishta u so’zni yozib olur)”** (Qof, 18-oyat).

Gap to’rt xil bo’ladi: faqat zarardan iborat yoki faqat foydadan iborat yo zarar va foydadan iborat yoxud zarari ham, foydasi ham yo’q gap. Faqat zarardan iborat gapdan sukut qilish lozim. Zarari va foydasi bor gapdan ham tiyilgan ma’qul, zararidan saqlanish uchun. Na foyda, na zarari bor gap kerakmas, ortiqcha yumushdir. Unga mashg’ul bo’lish vaqtni isrof qilishdan, ayni ziyondan boshqa narsa emas. Demak, to’rtning uchi soqit bo’ldi, biri qoldi. Aslida hamma xatar mana shu birda. Olloh asrasin, o’sha to’rtning biri, ya’ni faqat foydadan iborat gapga riyo, soxtalik, g’iybat va hokazo til ofatlari aralashsa, nima bo’ladi? Foyda bilan zararning chegarasi maxfiylashib, inson xatarlar ichra qolmaydimi?!

Abdulloh ibn Sufyon otasining shunday deganini rivoyat qiladi: “Ey Ollohning rasuli! Menga Islomdagi shunday bir ish haqida xabar beringki, bu haqda Sizdan boshqasidan so’ramayin.

– Ollohga iymon keltirdim, degin. So’ng to’g’ri bo’l, – dedilar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam.

– Nimadan saqlanay, ey Rasululloh? – dedim.

Shunda Rasululloh qo’li bilan tillariga ishora qildilar” (Termiziy rivoyati).

Safvon ibn Salimdan rivoyat qilinadi: “Payg’ambar alayhissalom shunday dedilar: “Ibodating eng oson va badan uchun eng yengilini aytaymi? Bu – jim yurish va go’zal xulq!”¹

Payg’ambar alayhissalom aytdilar: “Mo’minning tili qalbida. Agar biror narsani gapirishni xohlasa, qalbi bilan o’ylaydi, so’ng tiliga chiqaradi. Munofiqning tili qalbidan tashqarida, xayoliga kelgan narsani tiliga chiqaradi, qalbi bilan o’ylamaydi” [Xaroitiy rivoyati].

¹ Muttafaqun alayh.

جَمَالُ الْإِنْسَانِ كَمَالُ اللِّسَانِ.

Insonning chiroyi tilning kamolidir.

Izoh. Til – Ollohning ulug‘ ne‘mati, ajib-u latif san’atidir. Garchi u jisman kichik bo’lsa ham, itoati tufayli topadigan savobi yoxud itoatsizligi tufayli sodir etadigan gunohi juda katta. Chunki kufr ham, iymon ham faqat til guvohligida ayon bo’ladi. Kufr va iymon esa toat va isyonning boshlanish hududlaridir. Shu bilan birga, har qanday borlik yoki yo’qlik, ma’lum yoki noma’lum narsaning barchasi til vositasida izohlanadi va har qanday holatda o’sha narsaga til o’zining isboti yoki inkori bilan ro’baro’ keladi. Insonni go’zal qiluvchi farosat sifati ham aksar holda til orqali namoyon bo’ladi. Ko’rinishda go’zal tuyulgan kishi befarosatlarcha aytgan bitta so’zi bilan xunuklashadi. Demak, insonning mukammalligi tashqi chiroy bilan emas, tilining kamolga yetgani bilan belgilanadi. Hatto, ajdodlarimiz tilga e’tiborsizlik e’tiqodga salbiy ta’sir etishini ta’kidlaganlar. Hasan Basriy deydi: “Tilini tiymagan kishining dini mustahkam emas”. Avzo’iy aytadi: “Olloh rahmatiga olsin, Umar ibn Abdulaziz bizga maktub jo’natdi. Unda shunday yozuvlar bor edi: “Kimki o’limni ko’p eslasa, dunyoning oziga rozi bo’ladi. So’zi bilan amali muvofiq kishi oz gapiradi...” Yana shunday deyiladi: “Jim yurgan kishi o’zida ikkita fazilatni jamlaydi: dinda salomatlik va do’stni tushunish”. Muhammad ibn Vosi’ Molik ibn Dinorga dedi: “Ey Abu Yahyo! Inson zotiga tilini saqlash (ya’ni, tilni tiyish) dinor-u dirhamlarni saqlashdan mushkulroqdir”. Yunus ibn Ubayd deydi: “Tilini o’ylab ishlatadigan (ya’ni avval chuqur o’ylab, keyin, zarurat tug’ilsa, so’ylaydigan) birorta odamni ko’rmadim. Holbuki, boshqa amalda bu muvofiqlikni ko’p kuzatdim”.

مِنْ الضَّالِّ طَلَبُ الْمُحَالِ.

Mumkin bo’lmagan ishga tirishish adashishdir.

Izoh. Agar inson adashishini oldindan bilsa, hech qachon adashmas edi. Xom sut emgan banda “natija chiqib qolar” degan o’y bilan ishga kirishadi, ancha harakatlardan keyin boshlagan ishining imkonsiz ekaniga amin bo’ladi. Bu ko’rko’ronalikning ildizi islomiy tamyiz yo’qligiga borib taqaladi. Islomiy tamyiz – mumkin bo’lgan ish bilan imkonsiz ish o’rtasini ajratib ko’rsatuvchi nur bo’lib, bu nurning manbayi Qur’on va hadisdir. Qalbi bu manbalardan oziqlanib, tabiati hidoyat bilan nurlangan insonlarning fahmi favqulodda o’tkirlashadi. Bunday o’tkir fahm oldida mumkin bilan nomumkin ish xuddi kaftda turganday namoyon bo’ladi. Chunki u Olloh va Rasulining ko’rsatmasini biladi, ishlarini shunga muvofiq

amalga oshiradi. Ish xoh kutilgan, xoh kutilmagan holda xotimalansa ham, u taqdirning nasibasidan minnatdor, mana shuning o’zi ulkan natija ekanini butun vujudi bilan his qiladi. Shuning uchun bu fahm egasining mudom har bir ishda muvaffaqiyatga erishayotganini ko’rasiz.

Aksi bo’lsa, insonning butun hayoti adashishdan iborat bo’ladi. Chunki unda tamyiz yo’q, nuqul mumkin ishlar qolib, iloji yo’q ishlarga bosh uradi, oqibatda, muvaffaqiyatsizliklar ichra adashib, boshi berk ko’chaga kirib qoladi.

مَبْدَأُ رَأْيِ الْعَاقِلِ غَايَةُ رَأْيِ الْجَاهِلِ.

Oqil kishi fikrining boshlanish joyi johil kishi fikrining cho’qqisidir.

Izoh. Go’zal va nihoyatda aniq qiyos! Oqillik bilan nodonlikning farqi shu darajada. Nodon qanchalik fikrlamasin, uning yetib borgan eng so’nggi nuqtasi ham nodonlikdan iborat bo’ladi. Oqillik esa ayni nuqtadan keyin, ya’ni johillik tugaganidan so’ng boshlanadi. Alisher Navoiy aytganidek: “Saodatmand agar olim bo’lsa, nodonlar so’zi anga mujibi ibrat va e’tibor. Besaodat johil bo’lsa, olim so’zidin anga or va filhaqiqat, johilliqdin besaodatliqroq ne nima bor?!”

لَيْسَ لِلنَّفْسِ عَوْضٌ وَلَا لِلْإِيَامِ بَدَلٌ.

Nafasning evazi yo’q, kunlar o’rnini bosadigan narsa yo’q.

Izoh. Nafas – oddiy insoniy o’lchovda, vaqtning kichik bir bo’lagi, kun ham vaqtning kattaroq bir bo’lagi. Olingan nafasni qayta olishning, chiqarilgan nafasni ortga qaytarishning imkoni yo’q. Hayotimizdan o’tkazayotgan har soniyamiz shu darajada bebadal, bebaho ne’mat. Vaqtni zoye’ qilish o’limdan shiddatliroqdir. Chunki har olgan nafasda Ollohni zikr etish, Oxiratni yodga olish imkoni yashirin. Vaqtni zoye’ qilgan kishi shu imkondan – Ollohnin zikridan, Oxiratning yodidan mahrum bo’ladi. O’lim esa kishini boryo’g’i dunyo va dunyo ahlidan uzadi. Shuning uchun ham vaqt biz eng muhtoj bo’ladigan narsadir. Afsuski, eng e’tiborsiz foydalanadigan narsamiz ham vaqtdir.

ظَفَرَتْ بِهَا مَا لَمْ تَعْفِكَ الْعَوَانِقُ

وَلَا يَوْمُكَ الْآتَى بِهَ أَنْتَ وَآتَى

She’r:

Foydalan zarfarchan onlaringdan

Modomiki, to’siqlar to’smas ekan.

Modomiki, kunlar qaytuvchi emas,

شعر: تَمَتَّعَ مِنَ الدُّنْيَا بِسَاعَتِكَ الَّتِي

فَمَا يَوْمُكَ الْمَاضِي عَلَيْكَ بِعَانِدٍ

Bas, kunga ham ishonch yo'q kelayotgan.

She'r muallifi Hasan ibn Shovir ibn Tarxon ibn Hasan ibn Naqib Kinoniy. Kunyasi – Ibni Naqib. Misrning fazilatli shoirlaridan. Ikki jilddan iborat “Devonul maqoti” nomli devon muallifi. Vafoti 687/ 1288-yil. She'rning nasriy bayoni: “Modomiki, to'siqlar yo'q ekan, dunyoning qo'lga kirgan soatlaridan foydalan. O'tgan kuning qaytuvchi emas, kelayotgan kunga esa senda ishonch yo'q”.

Izoh. She'rda aytilayotgan “zafar quchilgan onlar” – dunyoning qo'lga kirgan soatlari, hozir kechirayotgan oning, bugungi kuning. Yashayotgan oning ayni payt qo'lingda. Kecha o'tdi va qo'ldan ketdi. Erta esa hali kelgani yo'q, demak u ham qo'lingda emas. Yagona boyliging – bugun, undan foydalanib qol. Modomiki, to'rt muchang sog' ekan, o'lmagan ekansan, vaqtning qadriga yet. Vaqt aslida hayotdir. Hayotni bekorga sovurma, vaqtni boshqara olsang, hayotingni qo'lga olgan bo'lasan. Agar vaqtningni chiroyli tarzda ishlatishni xohlasang, eng muhim narsaga e'tiboringni qarat va unga boringni sarfla. Sening band bo'lganing emas, nima bilan band bo'lganing muhim. Kutayotganlar uchun bir soat juda sekin, qo'rqayotganlar uchun juda tez o'tadi. G'am chekayotganlar uchun bir soat nihoyatda uzun, shod-xurram bo'layotganlar uchun juda qisqadir.

بِالْحِلْمِ يَسُودُ الْإِنْسَانُ وَبِالْإِجَارِ يَكْمُلُ الْبَيَانُ.

Inson halimlik bilan boshqaruvni qo'lga oladi, bayon qisqalik bilan mukammal bo'ladi.

Izoh. “*Rahmonning (suyukli) bandalari yerda tavozu' bilan yuradigan, johil kimsalar ularga (bema'ni) xitoblar qilgan vaqtida ham “Omon bo'linglar” deb javob qiladigan kishilardir*” [Furqon, 63-oyat] oyatidagi “yerda tavozu' bilan yuradigan kishilar”dan murod halim zotlardir, deydi Ato ibn Raboh oyat tafsirida. Payg'ambar alayhissalom aytdi: “Ilm va ilm bilan birga sakinatni, halimlikni izlanglar. Sizdan ilm olayotganlarga va sizga ilm berayotganlarga muloyim bo'linglar. Olimlarning qo'poli bo'lmanglar. Aks holda, jahlingiz hilmingizdan o'zib ketadi” [Abu Hurayra rivoyati]. Hasan Basriy deydi: “Ilm talab qilinglar va uni viqor, hilm bilan ziynatlanglar”.

Halimlikning ziddi bo'lgan darg'azablik, jahldorlikda so'zlar haddan oshadi, qirg'oqlarni o'pirib toshadi. Hilm esa imkon qadar qisqa so'zlar bilan hosil bo'ladi. Bamisoli, o'zanida sokin oqayotgan daryodek. Shuning uchun bayon qancha qisqa bo'lsa, shuncha hilmga yaqin, qancha hilmga yaqin bo'lsa, shuncha mukammal

bo’ladi. Mukammallik esa bayondan ko’zlangan maqsad – ma’no ravshanligini ta’minlaydi.

لُكِّلَ مَقَالٌ جَوَابٌ وَ لُكِّلَ أَجَلٌ كِتَابٌ.

Har bir aytilgan so’zning javobi, har muddatning hisob-kitobi bor.

Izoh. Og’izdan chiqqan har bir so’zga javob berish qiyin. Ayniqsa, so’z amaldan ilgarilab ketgan, axloqiy me’yorlar o’zgargan bugungi kunda. Agar shartli ravishda, so’zni ahd deb anglasak, ahdning ustidan chiqolmasdan mulzam turish xorlikdir. Ko’pgaplik shu xorlikni bo’yinga olish bo’ladi. Bunga rozi bo’lib yashash esa xorlikdan ham tubanroqdir. So’zga javob berish bu dunyoda shunchalik og’ir. Har bir muddat, har bir nafas yozib boriladigan va hisobga tortiladigan Oxiratdagi holatni tasvirlashga esa so’z ojiz! Shunday ekan, bunday xorlikdan qutulishning bir chorasi bor: gapirmang, agar buning iloji bo’lmasa, faqat javob bera oladigan gapingizni ayting, xuddi ulug’ imomimiz No’mon ibn Sobit – Abu Hanifa rahimahullohning muhrida yozilganidek: “Aytadigan gapingda xayr bo’lsa gapir, yo’qsa jim bo’l”.

Chu No’mon muhrida bul erdi maktub:

“Qulil xoyra va illo faskut”, ey xo’b.

مَنْ رَجَعَ فِي هَيْبَتِهِ فَقَدْ بَالَعَ فِي حُسْنَتِهِ.

Kim bergan hadyasini qaytarib olsa, o’ta past ketgan bo’ladi.

Izoh. Biz “hadya” deb tarjima qilgan so’z matnda “hiba” deb kelgan. Fiqh kitoblarida hiba muomalasiga maxsus bob ajratilgan bo’lib, uning hukm va shartlari batafsil bayon qilingan. Hiba – birovga evaz talab qilmasdan beg’araz berilgan narsa. Hiba “hadya”, “sadaqa”, “atiyya” ma’nolarini ham o’z ichiga oladi. Agar bir narsani muhtoj kishiga evazsiz mulk qilib berishdan Olloh taologa yaqinlik ko’zlansa – sadaqa, kimnidir ulug’lab, mehrini qozonish uchun berilsa – hadya, o’limi oldidan mol ulashish uchun berilsa – atiyya bo’ladi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “O’zaro hadya ulashinglar, o’rtalaringizda muhabbat paydo bo’ladi”,– deganlar [Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyati]. Yana bir hadisda aytilgan: “Hadyani qaytarib oluvchi qusgan qusig’ini qayta og’ziga oluvchi itga o’xshaydi” [Ibn Abbos roziyallohu anhu rivoyati]. Garchi arzimas bo’lsa-da, hadyani qaytarish durust emas. Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Payg’ambar alayhissalom hadya olardilar va hadya berardilar”.

مَنْ سَاءَ خُلُقُهُ ضَاقَ رِزْقُهُ.

Kimning xulqi yomon bo'lsa, rizqi tor bo'ladi.

Izoh. Oллоh taolo dedi: *“Darhaqiqat, uni (ya’ni o’z nafsini-jonini iymon va taqvo bilan) poklagan kishi najot topdi. Va u (jonini fisq-u fujur bilan) ko’mib xorlagan kimsa nomurod bo’ldi”* [Vash-shams, 9-10-oyatlar]. Fisq-u fujur – yomon xulq belgisi. Bunday xulq egasi murodiga yetolmaydi. Har qanday oqil inson dunyoda ham, Oxiratda ham aziz bo’lishni xohlaydi. Rizqning tangligi azizlik emas. Qashshoqlikning kufrga yaqinligi hikmatlarda bayon qilingan. Bunday tang ahvolda kishi ochko’zlik, tama’, hasad, alamzadalik kabi kufrga yetaklovchi illatlarga yaqinlashadi. Demak, moddiy va albatta ma’naviy qashshoqligimizning sababi, ko’pincha e’tiborimizdan chetda qoladigan, yomon xulqqa borib taqalar ekan. Shuning uchun ham Yahyo ibn Muoz aytgan: “Axloqning kengligi rizqlar xazinasidir”.

الْحَزْمُ فِي الْأُمُورِ أَوَّلَى مِنَ الْغُرُورِ.

Ishlarda hushyorlik g’ururlanishdan yaxshiroqdir.

Izoh. Bahouddin Naqshbandning to’rtta mashhur shiorlaridan bittasi – “hush dar dam”, ya’ni har nafasni aql-u hush bilan olish. Agar inson shu hikmatga amal qilib yashasa, hayotida biror ishni tadbirsiz qilmaydi. Avvali va oxirini o’ylab, jarayondagi kutilmagan vaziyatlarga tayyorgarlik bilan boshlangan ish aksar holda kutilgan natija berishi tajribalarda sinalgan. Ammo, ishni qilib bo’lganidan keyin o’ylaydigan kishilarni ko’pincha muvaffaqiyatsizliklarga ro’baro’ turganini ko’rasiz. Nima uchun? Sababi, o’ziga ortiqcha baho berdi, g’ururga berildi, yo’q narsalarga suyanib, aldandi. Zero, mag’rurlik aldanishdir.

إِذَا كَثُرَتِ الْأَرْأَاءُ خَفِيَ الصَّوَابُ.

Fikr-u qarashlar ko’paysa, to’g’rilik yo’qoladi.

Izoh. Aslida, to’g’ri fikr bitta bo’ladi. Qolgan fikrlar to’g’rilikda undan pastroq pog’onada yoki umuman noto’g’ri bo’ladi. To’g’ri fikr atrofida shunday fikrlar ko’payib ketsa, eng to’g’risini to’g’riroqlaridan yoki noto’g’risidan ajratish qiyinlashadi. Hatto bunday vaziyatda ahamiyatli ish bilan ahamiyatsiz ishning o’rni almashib qolish xavfi ko’proq. To’g’rilikning yo’qolgani mana shudir.

Xulosa

Adab ilmida mumtoz matnlarga nisbatan “Al-mujazul mo’jiz” (الموجز المعجز) degan ibora ishlatiladi. “O’zi qisqa va ixcham, lekin mo’jizakor” degan ma’noni ifodalovchi bu iboraning birinchi bo’lagi –

“mujaz” shaklga, ikkinchi bo’lagi – “mo’jiz” mazmunga aloqador. Har biri nechta gaplarga mazmun bag’ishlaydigan ko’p ma’nolarni bitta jumlagi go’zal tarzda joylash *javomi’ul kalim* deyiladi. Qur’on va hadis boshidan oxirigacha shu uslubda bayon qilingan, shu uslubda qalblarni hayratga solgan, shu uslubda aqlarni lol qoldirgan. Shu uslub, shu san’at jozibasi olim-u ulamoni, adib-u udaboni tinimsiz o’ziga chorlagan, tafakkur qilishga undagan. Abdulloh Shibraviy-ning “Unvonul bayon” to’plamidagi hikmatlar ham ayni uslub namunasi. O’tgan asrning ikkinchi yarmida ustozimiz Alibeg Rustamiy Navoiy asarlari, xususan, muayyan baytlar, “Xamsa” dostoni sarlavhalari misolida bu uslub tadqiqini zamonaviy shaklda boshlab bergan. Mumtoz adabiyotimiz matnlarini sog’lom asosda tushunishga undaydigan bu an’anani davom ettirish jahon tamaddunida madaniyatlar bemisl tarzda globallashayotgan bugungi davrda yanada dolzarbdir.

Adabiyotlar

Қуръони Азим мухтасар тафсири. 2019. Муфассир Шайх Алоуддин Мансур. Тошкент: Sharq.

Абу Ҳомид Ғаззолий. 2020. *Ихйоу улумид дин*. Тошкент.

Алишер Навоий. 1987–2003. *Мукамал асарлар тўплами*. 1-20-жилдлар. Тошкент: Фан.

Ал-Қомус. 2017. *Арабча-ўзбекча қомусий луғат*. Тошкент.

الجرجاني الحسینی الحنفی. کتاب التعريفات. دار النفائس، بیروت، ۸۱۰۲/۹۳۴۱م

الزمخشري. أساس البلاغة. دار الفكر، بیروت، ۴۰۰۲/۴۲۴۱م

السيوطی. کتاب فی صفة صاحب الذوق السليم... دار ابن حزم،

بیروت، ۴۹۹۱/۵۱۴۱م

القزوينی. الايضاح فی علوم البلاغة. مكتبة المعارف، الرياض، ۶۰۰۲/۶۲۴۱م

عبد الشبروی. عنوان البيان و بستان الأذهان و مجموع نصائح فی الحكم. دار ابن

حزم، بیروت، ۱۰۲/۰۲۴۱م

محمد علی التهانوی الحنفی. كشف اصطلاحات الفنون. دار الكتب العلمية،

بیروت، ۳۱۰۲/۴۳۴۱م

“Javami’ul Kalim” style in “Unvonul-Bayan”

Rashid Zohidov¹

Abstract

This article provides new, important information about the first translation and review of the book “Unvonul Bayan”, which has been read by scholars for hundreds of years, from Arabic to our native language, as well as about the scientific and creative researches and approaches that took place in the process. The author of the book, the Egyptian writer Abdullah Shibravi, was a mature scholar in the sciences of kalam, hadith, jurisprudence, and method of jurisprudence in the 17th-18th centuries. He was one of the people of his time who had the ability to feel the harmony of content and form in the narrative, and this privilege allowed the writer to master the style of “javome’ul kalim”.

Key words: *speech, hadith, jurisprudence, method of jurisprudence, science of narration, science of manners.*

References

- Qur’oni Azim muxtasar tafsiri.* 2019. Mufasssir Shayx Alouddin Mansur. Toshkent: Sharq.
- Abu Homid G’azzoliy. 2020. *Ihyou ulumid din.* Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1987-2003. *Mukammal asarlar to’plami.* 1-20-jildlar. Toshkent: Fan.
- Al-Qomus. 2017. *Arabcha-o’zbekcha qomusiy lug’at.* Toshkent.
- Al-Jurjani Al-Husseini Al-Hanafi. 1439/2018. Definitions book. Dar Al-Nafais, Beirut.
- Al-Zamakhshari. 1424/2004. *The basis of rhetoric.* Dar Al-Fikr, Beirut.
- Al-Suyuti. 1415/1994. *A book about the characteristic of a person with good taste...* Dar Ibn Hazm, Beirut.
- Al-Qazwini. 1426/2006. *Clarification in the sciences of rhetoric.* Knowledge Library, Riyadh.
- Abdel Shabrawy. 1420/2010. *The title of the statement, the garden of minds, and a collection of advice in governance.* Dar Ibn Hazm, Beirut.
- Muhammad Ali Al-Tahnawi Al-Hanafi. 1434/2013. Arts terminology explorer. Dar Al-Kutub Al-Ilmiyyah, Beirut.

¹Rashid F. Zohidov – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo’i.

E-mail: rzohid1@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6521-5219

For citation: Zohidov R. F. 2023. “Javami’ul Kalim” style in “Unvonul-Bayan”. *Golden scripts* 4: 4 – 18.

Examples of Folklore in *Codex Cumanicus*

Aynur Saydova¹

Abstract

Folklore examples are an important part of oral language. There, information can be found about the unique qualities of each people, including their ethnography, literature, religious beliefs, etc. The study of riddles, prayers, and proverbs in *Codex Cumanicus* has a great role in research on the history of Turkic folklore. These can be considered as early written examples of oral folk literature.

Examples of folklore in *Codex Cumanicus*, especially riddles, were involved in extensive research in different periods by researchers like V. Bang, A. Tietze, D. Nemet, A. Garkavets, M. Argunshah, G. Gunar, K. Samadova, I. Guliyev, etc. from different countries. These studies focused more on transcription, transliteration and translation issues. In this article, the linguistic and stylistic features of the folklore examples in the work are brought to the fore. Descriptive, comparative and statistical methods were used in the research.

Key words: *Codex Cumanicus*, folklore, riddles, prayer, proverbs, kuman.

Introduction

Folklore examples are an important part of oral language. There, information can be found about the unique qualities of each people, including their ethnography, literature, religious beliefs, etc. One of the actual problems of Turkology in modern times is to involve the language of monuments and manuscripts in the study of specific sections. With this, it will be possible to trace the development of Turkic languages from the original Turkic to the modern era. *Codex Cumanicus* is one of the valuable works for Turkic languages written in the Middle Ages. The study of riddles, prayers, and proverbs in *Codex Cumanicus* has a great role in research on the

¹Aynur Saydova – Azerbaijan National Academy of Sciences Institute of Linguistics named after Nasimi, science researcher, PhD student, Azerbaijan, Baku.

E-pochta: aynur.saydova@dilchilik.science.az

ORCID ID: 0000-0003-4118-0290

For citation: Saydova, A. 2023. "Examples of Folklore in *Codex Cumanicus*". *Golden scripts* 4: 19 – 30.

history of Turkic folklore. These can be considered as early written examples of oral folk literature. Thus, *Codex Cumanicus* was written by Italians and Germans in the 13th-14th centuries with the Gothic letters of the Latin alphabet. The work, which is considered a Kipchak monument, is currently preserved in the San Marco Venice National Library. The work is considered anonymous because it was written by several authors.

The notebook-shaped monument is covered with cardboard which is covered with brown leather. According to some researchers, the work was created as a result of combining 3 notebooks, according to some researchers, it is a combination of 2 notebooks and consists of 82 sheets in total. Depending on the identity of the writers, it is conventionally divided into 2 parts: the first is Italian and the second is German. Sheets 1-55 are the Italian section, sheets 56-82 are the German section. The Italian section consists of an Italian - Persian - Kipchak dictionary, and the German part consists mainly of translations from the *Bible*, songs with Christian religious content translated into the Kipchak language, a religious song with notation in the Kipchak language, riddles and proverbs related to the Kipchak folklore, it also consists of Latin - Kipchak and Kypchak - German dictionaries. B. Chobanzade evaluates this work as follows: "The work was written in the middle of the year 1303, thus it occupies the seventh position among the great relics of the Turkic language" [Chobanzade 2007, 76].

The work was reported for the first time by M. J. Klaprot in 1828, and it was fully published for the first time in 1880 by G. Kuun. Examples of folklore in *Codex Cumanicus*, especially riddles, were involved in extensive research in different periods by researchers like V. Bang, A. Tietze, D. Nemet, A. Garkavets, M. Argunshah, G. Gunar, etc. from different countries. In Azerbaijan, A. Oguz, K. Samadova, I. Guliyev conducted research on the riddles in the work. These studies focused more on transcription, transliteration and translation issues. In this article, the examples of folklore in the work are philologically involved in research. The pictures given in the article are taken from the original photofacsimile of the work, and in the selection of examples, along with the original text, the book *Codex Cumanicus* by M. Argunshah and G. Guner and the articles written about it were used. In the examples of the article, the first the original forms from *Codex Cumanicus*, the second the translations of examples into Azerbaijani, and the third the translations of examples into English are given.

Texts are also given in the German section of the Kuman-Kipchak monument *Codex Cumanicus*, which begins with a dictionary and ends with a dictionary. Most of the texts written in Kuman are religious texts, and some are riddles and proverbs. Among the examples of folklore, riddle have been studied more. I. Guliyev considers the examples of Kipchak folklore to be the most original part of the *Codex Cumanicus* in terms of the fact that they contain the language, culture, and outlook of the Kipchaks. On the other hand, the author emphasizes that the material for oral literature is riddles and proverbs [Guliyev 2022, 152]. N. Erturk, who investigated the elements of folk literature in *Divani Luğat it Turk* and *Codex Cumanicus*, in addition to riddles and proverbs, also researched examples of religious folklore under the name of hymns [Ozturk 2016, 80-134]. In general, when speaking of examples of folklore in *Codex Cumanicus*, sometimes only proverbs and riddles are meant, and the examples of religious folklore in the work are left out. On the one hand, this is related to the evaluation of proverbs and riddles as a part related to Kumans, and on the other hand, it is related to the fact that examples of religious folklore in general are sometimes not considered folklore. This issue is one of the controversial issues in folklore studies. About this, G. Sayilov notes: "Religion is closely related to folklore as an ideology of creation, a worldview and a system of socio-cultural behavior. Revelation religions are theo-canonical phenomenon. Propagation of the revelation texts by oral exhortation is the level at which it becomes folklore [Sayilov 2018, 433]. In our opinion, the examples of religious folklore in the work can be listed as examples of folklore, as they are expressed in the Kipchak language in the style of the Kipchak people. Thus, we can divide the examples of folklore in the work, the main part of which is a dictionary, into 3 groups:

We can divide the examples of folklore in the work which is based on a dictionary into 3 groups.


1. Proverbs.
2. Riddles.
3. Examples of religious folklore.

Proverbs

"Proverbs is a universally accepted and approved result of the lesson that the people gave to history, and history to the people, and there is no doubt about its correctness and accuracy. The paremic unit, first of all, dominates the consciousness with its righteous spirit. Its axiomatic character is related to the great generalizing power of the

logical idea expressed at the judgment level. This “generalization” is a crystallized generalization that has been carried out by different generations and has reached its ultimate level due to the level of clear and precise expression of the content” [Atalar sozu 2004, 9].

Proverbs are listed on page 66b of the work. In these examples, people are given advice on what kind of a person they should not be. The proverbs in the work are: kvezlu bolmagıl (don’t be proud), künüçi bolmagıl (don’t be jealous), opkelmekçi bolmagıl (don’t be angry), eninçeç bolmagıl (don’t be lazy), kızgançı bolmagıl (don’t be greedy), boguzgur bolmagıl (don’t be a glutton), hersegçi bolmagıl (don’t be lewd), çakuçi bolmagıl (don’t be a mediator), uşakçı (don’t be a gossip), erseklik (unchastity). As it seems, the ancestral words given are simple command sentences arranged with the -gil (-qıl/-gil) form.



Picture 1.

As can be seen from the fragment of the manuscript, graphic form was used to avoid repetition of the same word.

Riddles

“Riddles are created about any object, event or concept, mainly consisting of thought-provoking questions built in the form of metaphors. In riddles, a certain sign and quality of a concept, object and event are indirectly told, while other aspects are kept secret [Azerbaijcan edebiyatı tarixi 2018, 486].

G. Guner, a prominent researcher of Kuman riddles, evaluates

the riddles given in the work as the first collected written Turkic riddles: *“The first compilation-based Turkic riddles estimating have been written from the end of the 13th century and the beginning of the 14th century recorded on pages 60a-60b of Codex Cumanicus. It consists of 47 riddle texts, four of which are unanswered. These riddles are included in the second volume that we call German notebook and compiled them directly by Cumans are extremely important. More clearly, considering that the products were not written down much in the past, because they are anonymous, these riddles are very valuable because there are no earlier Turkic riddle texts within the Turkic riddle tradition”* [Guner 2020, 17].

In total, 47 riddles are given on pages 60a-60b of the work. It is about the various notions including henna, butterfly, egg, bird's milk, crane, spirit, stirrup, reed, hedgehog, knife, snake, mind, fire, door, nut, etc.

The work contains riddles expressed both in prose and poetry

Bu bardı izi yoh (Ol kemedir) – bu getdi izi yox. O, gəmidir. It's gone without a trace. It is a ship.

Uzun ağaç başında

Uzun ağaç başında

Ulu bitiv bitidim

Uzun məktub bitirdim

Kemsen ovlu kelgey dep

Bədbəxt oğlu gələcək deyib

Kemsen turup sahladım

Bədbəxt durub (olub) saxladım.

(Ol karmak bile balık).

(O, qırmaq ilə balıqdır)

I finished a long letter at the top of a long tree. I thought that the son of unhappy would come, that's why I became unhappy and kept it. (Its hook and fish)

As can be seen from the examples, the answers at the end of the riddles are expressed with nominal sentences or with noun phrases.

In the riddles in the work, we can see that poeticism is created mostly through alliteration. For example, “tap, tap, tamyzik..” or “biti, biti, bitidim...” and so. The form of the riddles that begins with “tap tap tamyzik...” in *Codex Cumanicus* is in the form of “tap tapmaca...” or “tap tapi” in Azerbaijan. In each variant, the word “tap” means to find. On the other hand, as in Azerbaijani riddles, in most of the riddles in this work, hints are given in the last verse. The first verse was an introduction to create poetic characteristics. In *Codex Cumanicus*:

Tap, tap, tamızık

Tap tap damlacıq

Tap tap droplet

Tama durgan tamızık

Damlayan damlacıq.

Dripping droplet.

Kölgəsi bar

Kölgəsi var

It has a shadow

Köye durgan tamızık (Ol köbelek)	Yanan damlacıq. (O, kəpənəkdir)	Burning droplet. (That is a butterfly)
-------------------------------------	------------------------------------	---

In Azerbaijani:

Tap tapmaca,	Find the puzzle,
Qulaqları yappaca,	He will close his ears,
Yatanları oyadır,	Wakes the sleepers
Süleyman papaqlıca. (Xoruz)	With a hat like Suleiman (Cock)

It should be noted that, along with the “butterfly” answer to the riddle given above, there is also the idea that it is a “mirror”. D.Kulieva conducted extensive research on this and came to the following conclusion: “In conclusion, it is clear the translations of the riddle made by turkic linguists are suitable, but the answer is not accepted by all of the translators. Tietse offered a new solution as MIRROR, so following him some research has been done. The result is that His solution must be accepted, as some other versions of this riddle type have been found in modern Turkic riddles. The comane riddle has the words e.g. tamiziq – drip, tamaduryan – dripping, kolenke – shadow, kulup – laughing, kuyadiringan – burning. Many Turkic riddles have these words too. The answer Mirror must be chosen as a solution to this riddle type” [Kulieva 2023, 87].

The riddles in the work are mainly expressed in the form of affirmative sentence, and sometimes in the form of interrogative sentence.

Axça kayda kışlamış?	Ağca harda qışlamış?	Where did Agca spend the winter?
Kanlı yerdə kışlamış.	Qanlı yerdə qışlamış	It wintered in the bloody place
Kanı neçik yuxmamış?	Qanı niyə yaxılmamış?	Why was not its blood smeared?
Xap ortada kışlamış.	Həmişə ortada qışlamış.	It always wintered in the middle.
(Ol, karın yav(ı)dır.)	(O, qarın yağıdır.)	(It's belly fat.)

I. Guliyev gives the explanation of this puzzle as follows: “*Akhcha (Aghca) – similar to white. Abdominal fat always remains in the red blood, but never mixes with the blood. The word wintering here also indicates that the Kipchaks are not nomadic, but engaged in stable animal husbandry, like going to the steppe in the summer and wintering in the winter. Also, the word “staying in a warm place” for wintering here is associated with the warmth of the inside of the snow*” [Guliyev 2022, 156].

The riddles in the work are formed about the things people

use in their daily life, the events they encounter, animals, etc. Therefore, the puzzles there can be divided according to the topic:

1. About people.
2. About animals.
3. About things.
4. About plants.
5. About celestial bodies and time.

As in Azerbaijani riddles, most of the riddles in *Codex Cumanicus* are about animals such as hedgehog, snake, butterfly, dog, horse, camel, crane, etc.

It is observed that the classification of riddles is given by researchers in different forms. This is how Kazakh researchers give the classification of riddles: *“As the result of scientific research, the classification of Kipchak riddles of the Codex Cumanicus monument was created. The following groups are selected: 1. Riddles about the person (about the appearance of the person, parts of his body, about family relations, family, about clothes and jewelry, about food and drink, about means of movement), 2. Riddles about human labor activity (about planting and processing of bread, arable land, mowing, about occupations and crafts), 3. Riddles about the dwelling (about the village, the yard, domestic economy, about heating and lighting, about furniture of the house, about ware and utensils), 4. Riddles about phenomena of nature, heaven, earth, water, stars and others, 5. Riddles about the plant world (wild and home crops), 6. Riddles about the animal world (insects, reptiles, mammals, etc.)”* [Dikhanbayeva, Shaimerdinova 2022, 159].

In these riddles, people's thought, life experience, and conclusions are expressed figuratively rather than dryly. Puzzles, which are the product of artistic thinking, contain comparisons, metaphors, similes, and other artistic means of description were used here. For instance, in the examples above, an egg is compared to a tent, and a butterfly is compared to a drop.

Hymns and prayers

Along with proverbs and riddles, there are more hymns (songs) and prayers in the work written for the purpose of spreading the Christian religion. Events are told in these hymns. Hymns often begin with the word “Ave” (Hello) and an address. For example:

Ave Maria anamız,

Salam Məryəm anamız

Hail Mary our
mother

Seni övüp çın hanımız Səni sevib gerçək (əsl) xanımız Loving you,
our real king
Barçadan üstün kötürdi Hamıdan üstün tutdu Chose you above
all others
Hanlık daçını keydirdi. Xanlıq tacını geydirdi. He wore you the
royal crown.

After the events are recited, there are prayers in hymns. It ends with the word "Amen". It is easy to separate the prayers with this word

Arıhların küsençi Müqəddəslərin ümidi The hope of the saints
Barçaga medet bolgul Hamıya kömək ol Be a help to all
Tuşman yekni sen sürgül Düşmən şeytanı sən sür You drive out
devil, the enemy

Sen bizni yarlıgağıl Sən bizi bağışla. You forgive us.
Amen. Amin. Amen

"Prayer of repentance from sins", "Lord's prayer: Our Father in Heaven", etc. are among the prayers given in this work.

Codex Cumanicus is also a valuable heritage for art history. So, on pages 75a/75b of the work, one hymn is given with notes.



Picture 2.

The examples of folklore given in *Codex Cumanicus* have survived to this day in the literature of the Turkic peoples. The first comparative study of these examples, especially the variants of riddles in the folklore of the Turkic peoples, belongs to A. Inan. In 1966, Titse

and then Kurishchanov conducted research. In the 70s, H. Makhmutov investigated the parallels of the riddles in the work in Turkish languages. In this regard, H. Makhmutov notes that *Codex Cumanicus* is rightfully considered the common property of Turkic-speaking peoples, and the folklore material of the codex is directly related to the oral poetic creativity of Kazakhs, Bashkirs, Azerbaijanis, Tatars, Turkmens and many other Turkic-speaking peoples [Makhmutov 1971, 87-96]. It was Jurayeva who compared the puzzles in this work with the puzzles in the Uzbek language. In her work in *Codex Cumanicus* Yazda yavlı hayış yetir (ol ılandır) – Çöldə yağlı qayış yatar (O, ılandır) - A fat belt lies outside (It is a snake) in the Uzbek language of the riddle “*yer altında yağlı kəmə, yer altında sarı kəmə, yer altında yağlı qamçı*” “fat belt under the ground, yellow belt under the ground, fat whip under the ground” [Jurayeva 2011, 25-28] etc. notes that there are examples. Parallels of these riddles can be observed in the Azerbaijani language. For example, we come across the form of this puzzle “*Yer altında yağlı qamçı, Suyu içər damcı-damcı.*” “A fat whip under the ground, Drinks water drop by drop” [Tapmacalar 2004, 74], or *Ak küyməniñ avzu yox. Ol, yumurtka. (Ağ çadırın ağzı yox. O, yumurtadır.)* A white tent has no mouth. It's an egg. The riddle “*Ağ günbəz, qapısı yox*” (White dome without a door) or “*Ağca motal, ağzı yox*” (White motal, without a mouth) [Tapmacalar 2004, 93, 94] has survived until today. As can be seen from the examples, poetic structure in Kuman puzzles which begins with the phrases “Tap tapı”, “Tap tapmaca”, “Yol üstündə”, “Yer altında”, etc. is currently preserved in Azerbaijani riddles. This fact helps to study the historical development of Azerbaijani folklore samples. At the same time, the poetic structure, artistic description and means of expression in Kuman riddles have been preserved in the ancient Turkish language.

It should be noted that the Azerbaijani language, which belongs to the Oghuz group of the Turkic language family, has an ancient history and has gone through a long development path. Although the historical traces from the deep layers of our language sometimes do not manifest themselves in the literary language, they are observed in our dialects. We can see these traces better when we find words that are not in our literary language in other Turkic languages or in our dialects while analyzing historical works. According to researchers, the Azerbaijani language was created and developed on the basis of the Oghuz and Kipchak languages. Therefore, our dialects are sometimes divided into two parts in the

form of Kipchak and Oghuz elements. Even M. Shiraliyev noted the distribution of Oghuz or Kipchak elements in Azerbaijan on a map [Shiraliyev 1983, 193].

Conclusion

In general, every nation keeps its history, culture, and traditions alive in the works they write. The lifestyle, language, ethnography, and cultural life of the Kipchaks living in the Golden Horde state were reflected in *Codex Cumanicus*, one of the many dictionaries written in the Middle Ages about the Turkish language. Folklore examples of Turks with ancient history are also preserved in this work. *Codex Cumanicus* from the 13th-14th centuries is a valuable source for studying folklore examples, which are an important part of oral language.

References

- Argunshah M., Guner G. 2015. *Codex Cumanicus*. Istanbul: Kesit yayınları.
- Atalar sozu. 2004. Baki: Onder neshriyyati.
- Azerbaijan edebiyati tarixi. 2018. On cildde, I cild. Shifahi xalq edebiyati. Baki: Elm.
- Biblioteca Nazionale di S. Marco. 1597. Biblioteca ad templum Divi Marci Venetiarum, Venezia, Mss. latini, Fondo antico, Collocazione, Codex DXLIX / No 549.
- Chobanzade B. 2007. *Sechilmish eserleri*, I cild, Baki: Sherq-Qerb.
- Dikhanbayeva A.Ye., Shaimerdinova N.G. 2022. "Kipchak Riddles Of The Codex Comanicus Monument As The Common Heritage Of All Turkic-Speaking Peoples". *Journal of Positive School Psychology* 6 (10): 150-161.
- Erturk, N. 2016. *Divanu lugati't-turk ve Codex Cumanicus'taki halk edebiyati unsurlari*. Yuksek lisans tezi. Ordu.
- Guliyev, I. 2022. "Codex Cumanicus"da bezi kuman tapmacalari". *Filologiya meseleleri* 12: 152-164. Baki.
- Guner, G. 2020. "Kuman bilmecelerinin soz varligi ve dil hususiyetleri uzerine bir inceleme". *Uluslararası türk lehçe arashdirmalari dergisi* (Turklad) 4 cild. 1. cild. Turkiye.
- Jurayeva, M. 2011. "Kodeks Kumanikus'ta Bilmeceler ve Ozbek folklorundeki shekilleri". *Türk Dunyasi Incelemeleri Dergisi* 1: 25-32. Izmir.
- Kulieva, D. 2023. "Typology of the riddle about the butterfly in "Codex Cumanicus". *British View multidisciplinary journal* 8 (3): 80-87.
- Makhmutov, H. 1971. "Tatarskiye paralleli kumanskikh zagadok", *Sovetskaya Tyurkologiya* 3: 87-96. Baki.
- Sayilov, G. 2018. "Folklor" konseptine "Din-folklor" munasibetleri kontekstinde bakhish". *BDU Ilahiyat fakultesinin elmi mecmuesi* 29, 427-434. Baki.

Shiraliyev, M.Sh. 1983. *Dialecti i govori Azerbajanskogo yazika*. Baku: Elm.
Tapmacalar. 2004. Baki: "Sherq-Gerb".

“Kodeks Kumanikus”da Folklor Nümunələri

Aynur Saydova¹

Özet

Folklor nümunələri şifahi dilin önəmli hissəsini təşkil edir. Orada hər bir xalqın özünəməxsus keyfiyyətləri – etnoqrafiyası, ədəbiyyatı, dini inancları və s. haqqında məlumat tapmaq olar. Türkdilli xalqların folklor tarixinin araşdırılmasında “Kodeks Kumanikus”da olan tapmacaların, duaların, atalar sözlərinin öyrənilməsinin çox böyük rolu vardır. Bunlar yazıya alınmış ilkin şifahi xalq ədəbiyyatı nümunələrindən sayıla bilər.

“Kodeks Kumanikus”da olan folklor nümunələri, xüsusilə tapmacalar fərqli dövrlərdən olan tədqiqatçılar – V. Banq, A. Tietze, D. Nemet, A. Qarkavets, M. Arqunşah, Q. Günər, K. Səmədova, İ. Quliyev və s. tərəfindən müxtəlif dövrlərdə geniş araşdırmalara cəlb olunmuşdur. Bu araşdırmalarda daha çox transkripsiya, transliterasiya və tərcümə məsələlərinə diqqət yetirilmişdir. Bu məqalədə əsərdəki folklor nümunələrinin dil və üslub xüsusiyyətləri ön plana çəkilir. Tədqiqatda təsviri, müqayisəli və statistik metodlardan istifadə olunmuşdur.

Açar sözlər: *Kodeks Kumanikus, folklor, tapmacalar, dua, atalar sözləri, kuman.*

Kaynakça

- Argunshah M., Guner G. 2015. *Codex Cumanicus*. Istanbul: Kesit yayinlari.
Atalar sozu. 2004. Baki: Onder neshriyyati.
Azerbaijan edebiyati tarixi. 2018. On cildde, I cild. Shifahi xalq edebiyati.
Baki: Elm.
Biblioteca Nazionale di S. Marco. 1597. Biblioteca ad templum Divi Marci Venetiarum, Venezia, Mss. latini, Fondo antico, Collocazione, Codex DXLIX / No 549.
Chobanzade B. 2007. *Sechilmish eserleri*, I cild, Baki: Sherq-Qerb.
Dikhanbayeva A.Ye., Shaimerdinova N.G. 2022. “Kipchak Riddles Of The Codex Comanicus Monument As The Common Heritage Of All Turkic-Speaking Peoples”. *Journal of Positive School Psychology*

¹Aynur Saydova – Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu, fəlsəfə doktoru, Azərbaycan, Bakı.

E-posta: aynur.saydova@dilchilik.science.az

ORCID ID: 0000-0003-4118-0290

Alıntı için: Saydova, A. 2023. “Kodeks Kumanikus”da Folklor Nümunələri”. *Oltin bitiglar* 4: 19 – 30.

6 (10): 150-161.

- Erturk, N. 2016. *Divanu lugati't-turk ve Codex Cumanicus'taki halk edebiyati unsurlari*. Yuksek lisans tezi. Ordu.
- Guliyev, I. 2022. "Codex Cumanicus"da bezi kuman tapmacalari". *Filologiya meseleleri* 12: 152-164. Baki.
- Guner, G. 2020. "Kuman bilmecelerinin soz varligi ve dil hususiyetleri uzerine bir inceleme". *Uluslararası türk lehçe arashdirmalari dergisi* (Turklad) 4 cild. 1. cild. Turkiye.
- Jurayeva, M. 2011. "Kodeks Kumanikus'ta Bilmeceler ve Ozbek folklorundeki shekilleri". *Turk Dunyasi Incelemeleri Dergisi* 1: 25-32. Izmir.
- Kulieva, D. 2023. "Typology of the riddle about the butterfly in "Codex Cumanicus". *British View multidisciplinary journal* 8 (3): 80-87.
- Makhmutov, H. 1971. "Tatarskiye paralleli kumanskikh zagadok", *Sovetskaya Tyurkologiya* 3: 87-96. Baki.
- Sayilov, G. 2018. "Folklor" konseptine "Din-folklor" munasibetleri kontekstinde bakhish". *BDU Ilahiyat fakultesinin elmi mecmuesi* 29, 427-434. Baki.
- Shiraliyev, M.Sh. 1983. *Dialecti i govori Azerbaijanskogo yazika*. Baku: Elm.
- Tapmacalar. 2004. Baki: Sherq-Gerb.

“Boburnoma”ning qo‘lyozma va tarjimalari xususida

Shuhrat Hayitov¹

Abstrakt

Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy mazmundagi “Boburnoma” asari va uning qo‘lyozmalari haqida bugunga qadar bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Asar qo‘lyozma nusxalari soni, ular qayerlarda saqlanishi va kimlar tomonidan topilib, o‘rganilgani, shuningdek, tarjimalari va ularning o‘ziga xos jihatlari olimlarni doimiy qiziqtirib kelgan. Ularni bir tadqiqot doirasida o‘rganish va tahlil qilish muhim masalalardan hisoblanadi.

Mazkur maqolada “Boburnoma” asarining xorijda o‘rganilishi, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotida boburshunoslikka oid ilmiy ishlarining tahlili, tadqiqotlarning tadrijiy takomili, shuningdek, asarning dunyo fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari va ularning tavsifi, ilmiy tadqiqi hamda tarjima nashrlari xususida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *boburshunoslik, “Boburnoma”, qo‘lyozma, tarjima, tarjimashunoslik, matn, matnshunoslik.*

Kirish

Buyuk mutafakkir, davlat arbobi, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur yaratgan adabiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan “Boburnoma” asaridir. Jahon adabiyotining bu noyob durdonasi bo‘lgan asarni olimlar katta qiziqish bilan o‘rganib kelayotgani bejiz emas.

“Boburnoma” bebaho tarixiy asardir. Unda O‘rta Osiyo, Xuroson va Hindiston tarixi, geografiyasi, hayvonot hamda nabotot olami kabi yo‘nalishlarda ko‘plab qimmatli ma‘lumotlar bayon qilinadi. Masalan, asarda hindlarning etnografiyasi, ilm-fani, san‘at va madaniyati haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi. Asar

¹ Hayitov Shuhrat Moyliyevich – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston Milliy universiteti.

E-pochta: shuhrathayitov84@mail.ru

ORCID ID: 0009-0001-8655-2935

Iqtibos uchun: Hayitov, Sh. M. 2023. “Boburnoma”ning qo‘lyozma va tarjimalari xususida”. *Oltin bitiglar* 4: 31–45.

turli fanlarni o'rganish obyekti, tarixiy-ashyoviy dalil sifatida o'ziga xos tazkira hamdir. Unda yuzlab tarixiy shaxslar, jumladan, o'ttizdan ortiq ijodkorlar haqida ma'lumot berilib, ayrimlarining ijodidan namunalar ham keltirilgan. Asar qo'lyozmasi haqida tadqiqot olib borgan shotlandiyalik davlat arbobi va tarixchi Maunstyuart Elfinston (1779–1859) “Boburnoma” va uning muallifi haqida to'xtalib, “Uning shaxsiy his-tuyg'ulari har qanday mubolag'adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy va mardona, shu bilan birga, jonli va ifodali. O'z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko'zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan “Boburnoma” Osiyoda yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir”, deb yozadi [Otajonov 1996, 69].

Bu qomusiy asar o'z davridan boshlab hozirgacha dunyo-ning ko'p tillari – ingliz, golland, fransuz, arab, fors, nemis, yapon, italyan, rus, hind, ozarbayjon, turk, qozoq, xitoy, urdu va boshqa tillarga tarjima qilinib, sharh va izohlar bilan qayta-qayta nashr etib kelinayotganining asosiy sabablaridan biri ham, avvalo, uning tarixiy manba ekanligidandir. Xususan, bugungi kunda Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o'nlab mamlakat olimlarining qator tadqiqotlarida bu shoh asar insoniyat tomonidan yaratilgan kitoblar qatorida o'ziga xos qimmatga egaligi alohida qayd etiladi. Bu haqida o'tgan asrning elliginchi yillarida taniqli hind shoiri Mulk Roj Anand Osiyo va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasida (1958-yil) so'zlagan nutqida: “Bu kitob siz bilan bizning merosimizdir. O'zbekistondagi singari bizda ham “Boburnoma” g'oyat qadrlanadi”, deya alohida aytib o'tadi. Boburning davlat arbobi sifatida yana bir jihati shundaki, u Hindistondagi barcha mayda hokim-rojalarni yagona davlatga birlashtirdi. Javoharla'l Neru “Jahon tarixiga nazar” (“Взгляд на всемирную историю”) nomli mashhur asarida Hindiston tarixining XVI asrda kechgan voqealarini sarhisob qilar ekan, Bobur va boburiylarga alohida baho beradi. Neruning yozishicha, “bu davr buyuk boburiyilar imperiyasining dovrug'i butun Ovrupoga tarqalgan qudrat va shon-shuhrat davri edi. Bobur o'zigacha o'tgan hokimlarning eng ma'rifatparvari va eng dilbaridir”. Bundan tashqari, ko'pgina boburshunoslarning haqli e'tiroficha, bu shoh asar davrning juda ko'p xususiyatlarini qamrab olishi, qomusiy xarakteri va o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlarini namoyish etishiga ko'ra, hazrat Alisher Navoiyning bebaho “Xamsa”si bilan tenglasha oladigan madaniy obida hisoblanadi. Binobarin,

asarning tez orada shuhrat qozonib, XVI asrning o'zidayoq bir necha marta fors tiliga tarjima etilishi ham shundan dalolat beradi. O'zbek tarjimashunosligi maktabi asoschilaridan biri G.Salomov "...dunyoda hech bir fotih-u jahongir tillarda bunchalik doston bo'lgan emas", degan fikrlarni aytadi [Salomov 1996, 17].

Ta'kidlaganimizdek, Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonning XV-XVI asr boshlaridagi tarixi va xalqlari hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi ushbu asar haqida dunyo olimlari minglab tadqiqotlar amalga oshirishgan. Shu paytga qadar boburshunoslik sohasida olib borilgan bunday tadqiqotlar orasida turkiy xalqlar olimlari tomonidan yaratilgan asarlarning ham ahamiyati kattadir. Ayniqsa, o'zbek, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, qozoq, turkman, qirg'iz millati vakillari tomonidan shoir asarlari, jumladan, uning "Boburnoma"ning qo'lyozma, toshbosma va tarjimalari yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarning ko'lami kengdir.

Turkiy xalqlar adabiyotida Bobur ijodiga munosabat dastavval Abay, Mustafo Cho'qay, Cho'lpon, Qodiriy, Fitrat asarlarida ko'zga tashlanadi. Turkiyada dastlab, F. Ko'prulu, R. Nur, R. Arat, H. Boyir "Boburnoma" va uning muallifiga xos joziba siri haqida ilk ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan bo'lsa, o'tgan asrning oxiriga kelib ularning keyingi izdoshlari Y. Bilol, T. Seyhan va A. Bilkantar tomonidan bu o'lkada boburshunoslik ilmi yanada rivojlantirildi. Natijada, "Bobur devoni", "Mubayyin", "Risolayi volidiya" asarlarining turkcha nashrlari yuzaga keldi.

"Boburnoma" asari asosida bir qancha ilmiy-tarixiy va badiiy asarlar ham yaratilgan. Tarixchi va manbashunos H. Boyir "Boburnoma"ga tayangan holda mashhur "Hindiston tarixi" nomli asarni yozgan. R. Aratning 1920-yillardagi Bobur va uning asarlari yuzasidan yozgan ayrim ilmiy maqolalari, shuningdek, uning 1943-46-yillarda "Boburnoma"ning turkchadagi tarjimasi keyingi ko'plab tadqiqotlarga manba bo'lib xizmat qildi. R.R. Arat Bobur shaxsidagi e'tiborga molik sifatlar haqida mushohada yuritarkan, jumladan, shunday yozadi: "...o'z qiyofasini chizishdagi samimiylik, o'z fazilat va kamchiliklarini haqqoniy tasvirlash, ochiqko'ngillilik va rostgo'ylik Bobur shaxsiga xos xususiyatdir" [Vekaye 1987, 15]. "Boburnoma"ning turkcha nashrida qo'llanilgan barcha tajribalar, xususan, so'zlar lug'atini tuzish, izoh va ko'rsatkichlar yaratish, shuningdek, so'zboshidagi keltirilgan ko'plab ilmiy ma'lumotlar keyinchalik boshqa yurt olimlari tadqiqotlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, asarning o'zbek, ozarbayjon va qozoq tilidagi nashrlarining tayyorlanishida amaliy qo'llanma vazifasini o'tadi.

H. Boyir “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi soʻz boshisida, asar, dastavval, Movarounnahr, Afgʻoniston va Hindiston tarixini oʻrganishda muhim manba ekanligini alohida taʼkidlaydi va bu asar boshqa tarixiy asarlardan janr xususiyatiga koʻra ham butunlay farq qilishini qayd etadi [Vekaye 1987, 17]. Eʼtibor qilsak, bunday qarash turk, ozarbayjon, qozoq, turkman va qirgʻiz xalqlarining boshqa boburshunos olimlar qarashlariga ham mos keladi. Y. Bilol, M. Tekjan, F. Boyot, R. Askar, A. Binnatova, T. Seyhan, I. Jemeniy, A. Bilkan, N. Jeylan, M. Acha, M. Gumush, S. Deniz, E. Ibrohim, A. Akalin, G. Abdurahman, B. Mambetov, R. Kurienov, X. Bekmirzayeva, B. Boltabekov, B. Abitov kabi tarixchi va manbashunoslar tadqiqotlarida ham shunday qarash ustuvor hisoblanadi.

Turkiy xalqlarda “Boburnoma” asarini turli fanlar kesimida oʻrganish masalasiga ham alohida eʼtibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, Sabahat Denizning “Buyuk turk xoni Bobur va avlodining turk adabiyotidagi oʻrni”, Emek Ushenmezning “Turklarning islom dinini qabul qilishi va Qurʻonning turk tilidagi ilk tarjimalari”, Muharrem Guneshning “Turkiyada “Boburnoma” borasidagi ishlarga qisqacha izoh”, Ahmed Akalinning “Turkiyadagi doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari boʻyicha tavsifiy tadqiqot”i, M. Sayginning “Alisher Navoiyning ijtimoiy muhit va shaxsiyati Zahiriddin Muhammad Bobur xotirotlarida” nomli tadqiqotlarini keyingi yillarda Turkiyada boburshunoslik sohasida olib borilayotgan yangi ilmiy tadqiqotlar sifatida baholash mumkin. Turkiyada bulardan tashqari, Mehmet Acha, Abdurahman Goʻzal, Ali Fuad Bilkan, Mehmet Turgut va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ham Bobur hayoti va ijodi, ayniqsa, asarlarining oʻziga xususiyatlari haqida qimmatli maʼlumotlar berib oʻtilgan.

“Boburnoma” qoʻlyozmalari

“Boburnoma”ning qoʻlyozmalari va ularning tadqiqi borasida toʻxtaladigan boʻlsak, boburshunoslik tarixidan maʼlumki, bugunga qadar asar qoʻlyozmalari hamda uning ilmiy nashrlarini tayyorlash borasida Sharq va Gʻarb olimlari qator tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Bu borada oʻzbekistonlik olimlar A. Fitrat, S. Mirzayev, P. Shamsiyev, H. Sulaymonov, S. Azimjonova, M. Shayxzoda, A. Qayumov, S. Hasanov, V. Rahmonov, A. Ibrohimov, H. Qudratullayev, M. Kenjabek, O. Joʻraboyev kabi olimlar maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Asar qoʻlyozmalari tadqiqi borasida xorijlik olimlardan V. Eskin, N. Ilminskiy, A. Bevirij, M. Salʼye, R. Arat, F. Koʻprulu, H. Boyir, E. Mano, Sh. Yorqin, Yu. Bilol, T. Seyhan, R. Askar, A. Bilkan, R. Kurenov

kabilarning maxsus izlanishlari, ayniqsa, diqqatga molikdir.

Sharq-u g‘arbning sharqshunos, tarixchi, tarjimon olimlari tomonidan olib borilgan bu kabi ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida “Boburnoma” qo‘lyozmalari borasida so‘z boradi. Ularni o‘rganish orqali asarning mukammal ilmiy nashrini yaratishga bo‘lgan qiziqish yotadi. Xullas, bugungi kunda ushbu asar qo‘lyozmalari haqida ko‘plab manbalar orqali ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. Shular orasida o‘zbekistonlik olimlarning Rossiya Fanlar akademiyasi Tillar instituti bilan hamkorlikda tayyorlagan “Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриди. Библиография” kitobida (2016), shuningdek, Andijondagi “Bobur va jahon madaniyati” muzeyidagi adabiyotlar ro‘yxati to‘plamida (2020), undan tashqari, “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”da (2017) hamda asarning turk, o‘zbek, ozarbayjon, qozoq va boshqa tillardagi nashrlariga yozilgan so‘zboshilar va yuzlab ilmiy maqolalar orqali ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. Ammo shuni ham aytish kerakki, yuqoridagi tadqiqotlarning hech birida Bobur asarlari, jumladan, “Boburnoma” asari qo‘lyozmalari haqida to‘liq ma‘lumotlar keltirilmagan. Asar qo‘lyozmalari nechta, ular qayerda saqlanmoqda, kimlar tomonidan topib o‘rganilgan, degan savollarga bitta tadqiqot doirasida javob topish qiyindir.

“Boburnoma” asari qo‘lyozmalari borasida yurtimiz va dunyo olimlari tadqiqotlari tahlilidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, shu kunga qadar “Boburnoma”ning XVI–XX asrlarda ko‘chirilgan quyidagi 17 ta qo‘lyozmasi mavjudligi aniq bo‘ladi:

1. Elfinston nusxasi – Shotlandiya Milliy kutubxonasida (National Library of Scotland, Edinburgh) MS.Adv.18.3.18 raqam bilan saqlanayotgan qo‘lyozma, 286 varaq. 1810-yilda Peshovar shahrida ingliz tarixchisi M.Elfinston tomonidan topilgan. Fanda Elfinston qo‘lyozmasi nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu qo‘lyozma Humoyun davrida ko‘chirilgan va ayrim sahifalarida uning dastxati bilan yozilgan izohlar mavjud. Ushbu qo‘lyozmadan asarning ingliz tilidagi ayrim nashrlarida foydalanilgan (Ushbu qo‘lyozma asosida Elfinston “Boburnoma” asariga shunday munosabat bildiradi: “Bu memuarlarda buyuk turk podshosining hayoti batafsil tasvirlangan, unung shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘adan, pardadan xoli, uning uslubi oddiy va mardona, shuningdek, jonli va obrazli, o‘z zamondoshlarining qiyofalarini, intilishlarini, xarakterlarini ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan u, Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir. Bobur har bir odamning tashqi ko‘rinishini, kiyimini, ta‘bini va odatini ifoda qiladi

va mamlakatlarni, ularning iqlimini, tabiatini, xo'jaligini, san'at va hunarmandchilik asrlarini tasvirlab beradi. Lekin asarga muallifning xarakteri eng ko'p joziba bag'ishlaydi. Asarni o'qiy turib, biz ularning orasida yashagandek bo'lamiz").

2. Manchester nusxasi – Manchester shahridagi Linde ziana kutubxonasida (Angliya) saqlanayotgan qo'lyozma (raqamsiz), 71 varaqdan iboratdir. Ushbu qo'lyozma nusxa 1625-yilda Nur Muhammad tomonidan ko'chirilganligi aytiladi. Ammo qo'lyozma to'liq emas. Ayrim varaqlari yo'qolgan. Voqeliklarda ham uzilishlar mavjud.

3. London nusxasi – Britaniya muzeyining kutubxonasida (The British Museum Library) MS.Add.26324 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma, 97 varaq. Qo'lyozma 1629-yilda ko'chirilgan bo'lib, ushbu nusxa ham nuqsonli, to'liq emasdir.

4. Haydarobod nusxasi – Hindistonning Haydarobod shahridagi Salarjang muzeyida (Haydarabad, Salar Jang Museum) saqlanayotgan qo'lyozma (raqamsiz). 382 varaqdan iborat bo'lib, ravon nasta'liq xatida 1700-yilda ko'chirilgan. Nusxa to'liq. Bu nusxa faksimilesi 1905-yilda A.S.Beverij tomonidan nashr qilingan va sshngra shu nusxa asosida 1921-yilda ingliz tilidagi tarjima nashri chop etilgan.

5. Tehron nusxasi – Tehron Milliy kutubxonasida 2249-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma bo'lib, ushbu nusxa "Kulliyoti Bobur" tarkibida 457-1010-sahifalardan joy olgan. Matn chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan, oralari va hoshiyalarida so'z-iboralarning forscha izohi berilgan. Nusxa to'liq emas, nuqsonli. Bu haqda S. Hasanov, Y. Bilol tadqiqotlarida so'z boradi.

(2021-yili O'zbekistonning Tehrondagi elchixonasida Eron Fors tili va adabiyoti akademiyasi raisining o'rinbosari Muhammad Nassiri, Tehron shahridagi "Guliston saroyi" muzeyida saqlanayotgan "Boburnoma"ning ushbu qo'lyozmasining ko'chirma nusxasini O'zbekistonning Erondagi diplomatik vakolatxonasi rahbari Bahodir Abdullayevga topshirgan. Shunda Muhammad Nassiri ushbu qo'lyozmani noyob va dunyoda o'xshashi yo'q deya ta'kidlagan. U nasta'liq uslubida yozilgan va ko'plab taniqli boburshunoslar uning o'ziga xosligi va ahamiyatini tasdiqlaydi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, qo'lyozma Bobur tirikligi davrida ko'chirilgan bo'lishi mumkin. Kitob qo'ldan qo'lga o'tib, Eronga kojarlar sulolasi vakillaridan Nasriddin Shoh Kajar (1848-1896) davrida kelib qolgan. Asar so'nggi 150 yil davomida "Guliston saroyi" muzeyida saqlanib kelinmoqda).

6. Leydeniana nusxasi – Buyuk Britaniyaning Hindiston

ishlari bo'yicha mahkamasining Leyde niana kutubxonasida (Indian Office, Bib. Leydeniana) saqlanayotgan qo'lyozma (raqamsiz). U 1810-yilda ko'chirilgan, ammo nusxa nuqsonli hisoblanadi.

7. Bengal nusxasi – Bengal Osiyo jamiyati kutubxonasida (Asiatic society of Bengal) saqlanayotgan qo'lyozma (raqamsiz). Ko'chirilgan yili noma'lum (nusxa notugal).

8. Kerr nusxasi – Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limida 685-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma. Temur Po'lat ismli shaxs 1714-yilda Buxorodan topgan va 1725-yilda Sank-Peteburgga olib kelgan, undan G.Y.Kerr 1737-yilda nusxa ko'chirgan. Nusxa to'liq bo'lib, u N.Ilminskiy tomonidan tayyorlangan 1857-yildagi nashriga asos bo'lgan. Ushbu nashr o'zbek, qozoq, ozarbayjon va turkcha nashrlarga ham asos vazifasini o'tagandir.

9. Senkovskiy nusxasi – Rossiya FA Sankt-Peterburg Osiyo muzeyida 590 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma. Nazarboy Turkistoniy qo'lyozmasidan 1824-yilda G. Senkovskiy ko'chirib olgan.

10. Fayzixonov nusxasi – Rossiya, Sankt-Peterburg davlat universiteti kutubxonasida 0.683 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma. Qo'lyozma 1839-yilda Mulla Fayzixonov tarafidan ko'chirilgan (nusxa notugal).

11. Sankt-Peterburg nusxasi – Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limida 117 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma (nusxa nuqsonli).

12. Xiva nusxasi – Rossiya, Sankt Peterburg Rossiya milliy kutubxonasida (Natsionalnaya Biblioteka Rossii) Tur. NS.104 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 574 varaq. 1861 yilda Xivada Said Muhammad Bahodirxonning buyrug'i bilan ko'chirilgan.

13. Toshkent nusxasi, I – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining H.Sulaymon fondida 2588 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 1880-yilda N.Ilminskiy bosmasi asosida ko'chirilgan (nuqsonli nusxa).

14. Toshkent nusxasi, II – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 13 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 565 varaq. 1908-yilda ko'chirilgan (nuqsonli nusxa).

15. Dushanbe nusxasi – Tojikiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 2016 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 126 varaq. XX asr boshlarida ko'chirilgan (nuqsonli nusxa). Unda faqat "Boburnoma"ning Farg'ona qismi o'rin olgan.

16. Toshkent nusxasi, III – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 9377 raqami bilan saqlanayotgan

qo'lyozma. 1936-yilda ko'chirilgan (to'liq nusxa).

17. Boku nusxasi – Ozarbayjon FA Qo'lyozmalar instituti fondida S-391/13609 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 425 varaq (nusxa notugal). Ushbu nusxa haqida R. Askar tadqiqotlarida ma'lumot beriladi [Bobur ensiklopediyasi 2016, 136].

“Boburnoma”ning bulardan tashqari bezakli qo'lyozmalari ham mavjud bo'lib ular quyidagilar iboratdir:

I. Britaniya muzeyida saqlanayotgan OR.3714 raqamli qo'lyozma (528 varaq, o'lchami 21x32,5 sm, yirik nasta'liq bilan xattot Husayn Kashmiriy ko'chirgan, matn har sahifada 12 satr; qog'ozni novvot rang). Qo'lyozma zarvaraq bilan boshlanadi, yana 116 sahifada rasmlar chizilgan. Rasmlar mualliflari hoshiyada qirmizi siyohda bitilgan. Matn ichidagi she'riy lavhalar ham naqshlar bilan bezatilgan.

II. Britaniya muzeyida saqlanayotgan Add. 26.200 raqamli qo'lyozma (U.Erskin nusxasi). Varaqlar soni 380. O'lchami 12,5x21,5 sm, matn har bir sahifada 16 qator, zarhal sepilgan ipak qog'ozga qora siyohda nasta'liq xatida bitilgan. Qo'lyozma unvon va to'rtta hind miniatyuralari bilan bezatilgan.

III. Yangi Dehli milliy muzeyida N.M. 50.326 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma. Varaqlar soni 378. O'lchami 21,5x26 sm. O'rtacha kattalikdagi nasta'liq xatida bitilgan, matn: har sahifada 14–15 satr. Qo'lyozmaga 183 ta rasm chizilgan.

Asar qo'lyozmalarini o'rganish va uning jahonga mashhur bo'lishida, eng avvalo, ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo'lgan. Bu asarning Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to'liq nashrini dastavval ingliz tiliga 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshishgan. F. Talbot esa mazkur nashr asosida ikki marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirgan. Ingliz tarixchisi A. Beverij avvaliga 1905-yilda asarning Haydarobod nusxasini, so'ng 1921-yilda ushbu nusxa asosida uning ilmiy tarjima nashrini e'lon qilgan. Shu tariqa, birgina Angliyaning o'zida “Boburnoma” tarjimalarining o'ndan ortiq nashrlari yuzaga kelgan. Undan tashqari, “Boburnoma”ning professor V. Tekston tomonidan AQShda (1996), E. Mano tomonidan Yaponiyada mukammal so'zlik, ko'rsatkich, sharh-izohlar bilan jami besh jildidan iborat holida yapon tilida (1995), shuningdek, arab, xitoy, afg'on va boshqa ko'plab tillarda ilmiy-tanqidiy tarjima matnlari tayyorlanib e'lon qilingan. Keyingi yillarda asarning qozoqcha (2022) va italyancha (2023) tarjimalari dunyo yuzini ko'rdi.

Biz “Boburnoma” qo'lyozmalarining o'rganilishida ingliz

olimlarining o‘rni alohida ekanligini bejiz ta’kidlamadik. Ma’lumki, “Boburnoma” qo‘lyozmalari matnida ba’zi yillar (1504–05, 1509–18, 1520–24) tafsiloti uchramaydi, shuningdek, 1508 va 1520-yillar voqealari bayoni ham tugal emas. Mana shu uzilish bo‘lgan o‘rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ilk bor ma’lum darajada tiklashga harakat qilishgan. 1930–40-yilarga kelib “Boburnoma” asarini mukammal nashrini yaratish, ayniqsa, qo‘lyozmalarini o‘rganish orqali uning uzilib qolgan voqeliklarini to‘ldirish borasida turk olimlari tomonidan ham e’tiborli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, asarning turkcha nashrida (1943) o‘zilgan tarixiy voqeliklar “Humoyunnoma”, “Tarixi Rashidiy” va “Akbarнома” asarlari asosida tiklangan. Bu ish keyinchalik asarning o‘zbekcha va boshqa ilmiy nashrlariga asos bo‘lgan.

Asar qo‘lyozmalari borasida shu kunga qadar dunyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, “Boburnoma”ning ilm ahliga ma’lum bo‘lgan nisbatan to‘liq shaklda faqatgina ikki qo‘lyozmasi saqlanib qolgan xolos. 1) Londondagi Britaniya muzeyida; 2) Nyu-Dehli-dagi Milliy muzeyda. Asar tarkibida mavjud bo‘lgan 69 ta alohida miniatyuralar esa Moskvadagi Sharq madaniyati muzeyida saqlanmoqda. Bu nusxalarning barchasi yurtimizga turli yillarda olib keltirilgan. Ayniqsa, Bobur xalqaro jamoati fondi tashabbusi va fondning xorijiy davlatlarga uyushtirgan ilmiy ekspeditsiya safarlari natijasida qo‘lyozmalar mamlakatimizga olib kelingandir.

“Boburnoma”ning o‘rganilishi

Asarining o‘rganilish tarixiga nazar tashlasak, ushbu qo‘musiy asarni ilk bor forschaga Ibn Bayramxon (1586), asarning ayrim bo‘limlari Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to‘la holda fransuz tiliga (1871) o‘girilganini ko‘ramiz. Asarni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek, afg‘onistonlik olim Abdulhay Habibiy, pokistontonlik Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyyot, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy, turkiyalalik R. R. Arat, ozarbayjonlik olimlar R. Askar va F. Bayot, qozog‘istonlik B. Kojabek va I. Jemeney, italiyalik olimlar F. Pastoriya, F. Kordini, arabistonlik M. Maxlufning xizmati kattadir. Ushbu olimlar tomonidan tayyorlangan “Boburnoma” asari tarjimalarining deyarli barchasida qo‘lyozmalari haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Asar bugunga qadar yigirmadan ortiq tillarga tarjima qilingan bo‘lib, birgina forsha tarjimalarining

soni yigirmadan ortiqdir. Jumladan, uning eng qadimiy qo'lyozmalaridan Abdurahimxon tomonidan fors tiliga qilingan tarjimai bizgacha yetib kelgan.

Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishda rus olimi N.I. Ilminskiyning alohida o'rni borligini ham qayd etish kerak. Rus olimi "Boburnoma"ning mavjud to'liq matnini 1857-yilda Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr xususiyatlarini ko'rsatgan ruscha so'zboshisi bilan e'lon qilgan. Ushbu nashrdan keyin 1905-yilda ingliz sharqshunos olimi A. Beverij "Boburnoma"-ning Haydarobodda topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesini nashr qilishga erishgan. Ammo asarning bu nusxasi qachon va kim tomonidan ko'chirilgani ma'lum emas. Bu ham nisbatan to'liq matn bo'lsa-da, qozon bosmasiga solishtirilganida ba'zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari ko'rinadi. Asarning boshqa tillarga qilingan deyarli ko'pgina nashrlari, jumladan, turkcha, o'zbekcha, ozarbayjoncha tarjimalari ayni shu ikki qo'lyozmaga asoslanadi.

Ingliz olimi A.S.Beverij asarning arab alifbosidagi qo'lyozma nusxasini 1905-yili nashr ettirganidan so'ng, ushbu nusxa asosida 1921-yili inglizcha ilmiy nashrini tayyorlashga erishadi. Ammo shu narsani alohida qayd etish lozimki, shu kunga qadar topilgan va N. Ilminskiy va A. Beverij tomonidan nashr etilgan har ikkala nasxa ham ma'lum bir nuqsonlardan xoli emas. Ikkala matnda ham ko'plab uzilishlar bor. Buning sabablari haqida ham ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularda asardagi 36 yillik voqealar nega to'liq emasligining sabablari haqida so'z borgan. Olimlar London nusxasining afzalligi unda A. Beverij tomonidan qo'lyozma nusxa-ning ayni o'zini berilganligi juda yaxshi ish bo'lgan, ammo shu bilan birga, asar oxirida mukammal kishi ismlari, geografiya va qabila, urug' nomlari ko'rsatkichi berilgan va ingliz tilida o'n betlik so'zboshi yozilgan. Lekin ko'rsatkichlarni transliteratsiyasiz arab yozuvi bilan berilishi nomlarni to'g'ri o'qish masalasini qiyinlashtirgan.

Xullas, N.I.Ilminskiy va A.S. Beverij nashrlari "Boburnoma"-ning tadqiq va targ'ib etilishida muhim rol o'ynashi bilan bir qatorda asarning keyingi nashrlari uchun asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan, yuqorida aytib o'tilgan nashrlar asosida 1943-46-yillarda asarning ikki jild holida turkcha nashri, 1948-49-yillarda o'zbekcha nashri yuzaga keladi. Ushbu turkcha va o'zbekcha nashriga kishi ismlari, geografik joy nomlari, urug'-qabila nomlari ko'rsatkichlari, lug'at, izoh va forscha jumlar tarjimalari ilova qilinadi.

"Boburnoma"ning undan so'ng 1960-yilda O'zbekistonda navbatdagi nashri amalga oshiriladi. Nashrni tayyorlagan olim P.Shamsiyev Qozon va London bosmalariga asoslanib, ularning birini ikkinchisi yordamida to'ldirishga intilgan va shu yo'l bilan matndagi bir qator kamchiliklarga barham berishga muvaffaq bo'lgan. Har ikki nusxa o'rtasidagi farqlar sahifa ostida ko'rsatib borilgan. Bu nashr bir oz qisqartirishlar bilan keyinchalik 1965 va 1989-yillarda takroran nashr etilgan. Shu bois keyingi nashrlarning matni 1960-yildagi nashrga solishtirilganida ko'pgina nuqsonlar borligi ko'rinadi. 1960-yildagi nashrni tayyorlash mobaynida ayrim so'z va terminlar transkripsiyasini aniqlash masalasida "Boburnoma"ning professor R.R. Arat tomonidan 1943-1946-yillarda ikki jild holida Anqara (Turkiya)da turkchaga qilgan tarjimasi va sharqshunos M.Salyening ruscha tarjimasi ham ko'zdan kechira borilgan va shular bilan moslashtirishga urinilgan. Kitob oxiriga ilova qilingan ko'rsatkichlar qayta tuzilgan va tarjimalar ham yangidan qarab chiqilgan. Asarning ilgarigi bosmasida ba'zi bir tushirib qoldirilgan joylari bu bosmada kiritilib, matni mukammallashtirilgan. Bu bilan turkcha nashrdagi lug'at va izoh ko'rsatkichlarni tuzish amaliyoti o'zbekcha nashrlar uchun asos bo'lganligini ko'rish mumkindir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar "Boburnoma" asari qo'lyozmalari soni qancha, qayerda saqlanadi, kim tomonidan topilgan degan savollar ko'plab tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Bu haqda ham turli qarashlar, bir-birini inkor etuvchi ma'lumotlar mavjuddir. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, "Boburnoma" qo'lyozmalari haqida dunyo olimlari tomonidan to bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlar shundan dalolat beradiki, hozirda "Boburnoma"ning dunyo fondlarida yigirmaga yaqin arab yozuvidagi qo'lyozma nusxalari mavjuddir. Bobur 1528-yilda ana shunday qo'lyozmalardan birini Xoja Kalonga yuborganini "Boburnoma"da qayd etib o'tadi (363a). Ammo hozirgacha Boburning dastxati bilan yozilgan nusxa topilmagan. A.S.Beverij ham "Boburnoma"ning muallif qo'lyozmasi va undan ko'chirilgan oltita nusxa mavjud bo'lgani, ammo topilmaganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, A. S. Beverij "Boburnoma"ning dastxat nusxalaridan biri Buxoroda bo'lishi mumkinligi to'g'risida fikr bildirgan. Bunda olima "Voqeanomayi podshohi oliy "Boburnoma" nomli qo'lyozmadagi (1121h – 1709-y., xattoti – Abdulvahhob) uning Bobur o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan ko'chirilgani haqidagi ma'lumotga asoslanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz va dunyo olimlari

tomonidan bu buyuk siymo asarlariga bo'lgan qiziqish tufayli uning yangi qo'lyozmalari topildi. Ular Bobur xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan yurtimizga keltirildi. Yurtimiz va jahonda Bobur asarlari, xususan, "Boburnoma" qo'lyozmalarini topish va tadqiq etishga bo'lgan ishtiyoq yanada ko'chaydi. Keyingi paytlarda Bobur va boburiylar merosiga doir o'tkazilayotgan turli xalqaro konferensiyalarda bu yanada bo'y ko'rsatmoqdir. Eng muhimi, topilgan yangi qo'lyozmalar asosida shoir asarlarining ilmiy nashrlari yuzaga keldi. Turkiy boburshunoslikda A.Fitrat, A.Arat, F.Ko'prulu, H.Boyir, F.Akun, H.Sulaymonov, S.Azimjonova, A.Abdug'afurov, A.Qayumov, V.Rahmonov, S.Hasanov kabi olimlar tomonidan Bobur asarlari qo'lyozmalari borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar bugungi kunda Y.Bilol, Sh.Yorqin, T.Seyhan, M.Tekjan, A.F.Bilkan, R.Askar, I.Jemeney, M.Kenjabek, O.Jo'raboyev, R.Kurenov kabi boburshunos olimlar tomonidan munosib davom ettirilmoqda. Ular tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tufayli qator yangi nashrlar chop etildi. Ularda Bobur asarlari qo'lyozmalari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

"Boburnoma" Zahiriddin Muhammad Boburning shubhasiz, olamga mashhur memuar asaridir. Uning qo'lyozmalari o'z davridayoq jahonga yoyilib ketgan. Demak, ularni izlab topish bugungi kunda boburshunoslik sohasi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Shuningdek, ushbu asar nafaqat mazmun-mohiyati, balki noyob rasmlari bilan ham juda qimmatlidir. Britaniya muzeyidagi "Boburnoma" qo'lyozmasida 94 miniatyura va kitobning boshlanishida 2 sahifali zarvaraq bor. Rasmlarga qo'yilgan imzolardan shu narsa aniqki, ularni ishlashda Akbar saroyidagi 41 nafar yirik san'atkor qatnashgan.

"Boburnoma"ning italyancha tarjimasida tarjimon boburiylar davriga oid 96 ta badiiy miniatyuradan foydalangan. Keltirilgan suratlar o'sha zamon uchun tarixiy, geografik, etimologik omillarni to'liq hisobga olgan holda kitob qahramonlarining xarakterlari va ichki dunyosini haqiqiy, realistik tarzda ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, ularda Hindistonning hayvonot va o'simliklar dunyosi, ziyofat, ov, turmush manzaralari, tarixiy voqealar yorqin va ishonarli tasvirlangan miniatyuralar aks etadi hamda ular tarjimaning turli sahifalariga joylashtirilgani bilan ahamiyatli. Bir so'z bilan aytganda, mashhur mo'jaz rasmlar ranglar palitrasi, nafis bezaklari va teran ma'nosi bilan ajralib turadi.

Akbar saroyidagi musavvirlar orasida Kesu Kujaroti, Ras, Dahniroj, Sangar Kujaroti, Sarun, Taryo, Bahvoniy, shuningdek,

Markaziy Osiyo va eronlik Ustod Mansur, Ibrohim Naqqosh, Abdulloh, Farruxbek, Jamshid, Ibrohim Qahhorlarning ishlari, ayniqsa, yuqori bahoga loyiq.

Miniatyuralardan faqat 21 tasi harbiy yurish va jang lavhalarini ifodalaydi, 73 tasida Hindistonning hayvonot va o‘simliklar dunyosi, ziyofat, ov, turmush manzaralari, tarixiy voqealar yorqin va ishonarli tasvirlangan. Sharq miniatyuralarining shartliligidan, ya’ni kichik bir sathda (kitob varag‘i yuzasida) butun bir voqea yoki epizodlar turkumini gavdalantirish zaruriyatidan “Boburnoma” rassomlari mohirona foydalanishgan.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytganda, shu kunga qadar “Boburnoma” asarining qancha qo‘lyozmasi topilgan bo‘lmasin, afsuski, ularning hech birida 36 yillik voqeliklar qamrab olinmagan. Ammo shular orasida faqat ikki nusxagina shartli ravishda boshqa nusxalarga qaraganda, to‘liq deb qaraladi. Ular N. Ilminskiy va A. Beverij tomonidan tadqiq etilgan Kirr va Haydarobod nusxalaridir. Demak, “Boburnoma”ning yanada mukammal nusxalarini topishga umid bor. Buning uchun dunyo olimlari doimiy izlanishdalar. Asarning yangi qo‘lyozmalari topilishi unda bayon etilgan tarixiy voqealardan to‘liq bahramand bo‘lish imkonini beribgina qolmay, ko‘plab millatlar milliy madaniyati uchun qimmatli bo‘lgan yangi ma’lumotlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Shu kunlar kelishiga ishonamiz.

Adabiyotlar

- Babürname (Babür’ün Hatıratı)*. 1985. Nashrga tayyorlovchi R.R. Arat. Anqara.
- Babürname (Babür’ün Hatıratı)*. 1989. Nashrga tayyorlovchi R.R. Arat. Anqara.
- Yücel, Bilâl. 1995. *“Babür Dîvânı”, Atatürk Kültür Merkezi Yay.* Ankara.
- G‘aybulla as-Salom, N.Otajonov. 1996. *Jahongashta “Boburnoma”*. Toshkent.
- Бабу́р, Захириддин Мухаммад. 2016. Бабуриды. Библиография. Москва.
- Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi*. Ikkinchi nashr. 2016. Toshkent.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 2008. *Boburnoma*. Nashrga tayyorlovchi V.Rahmonov. Toshkent: O‘qituvchi, NMIU.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 2002. *Boburnoma*. Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. Toshkent: Sharq NMAK.
- Seyhan, Tanju. 2004. *Mubeyyin der fikh*. İstanbul.
- Hasanov, S. 2008. “Bobur asarlarining qo‘lyozmalarining o‘rganilishi va

- “Kulliyoti Bobur” haqida”. *Adabiyot ko‘zgusi* 10. Toshkent.
- Hasanov, S. 2005. “Bobur kulliyotining Tehron nusxasi”. *O‘zAS*. Toshkent, 1-yanvar.
- Mano, Eji. 2008. “Bobur asarlari to‘plamining Tehron nusxasi”. *Bobur va boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni*: xalqaro ilmiy anjuman materiallari). Toshkent.

Regarding the manuscripts and translations of “Boburnoma”.

Shuhrat Hayitov¹

Abstract

Until now, several scientific studies have been conducted on Zahiriddin Muhammad Babur’s encyclopedic work “Baburnoma” and its manuscripts. The number of manuscript copies of the work, where they are kept and by whom they were found and studied, as well as their translations and their specific aspects, have been of constant interest to scientists. Studying and analyzing them within the framework of one research center is one of the important issues.

This article discusses the study of “Boburnoma” work abroad, including the analysis of scientific works related to Boburnoma in the literature of Turkic peoples, the gradual improvement of research, as well as the manuscript copies of the encyclopedic work stored in the world funds and their description, scientific research, and translation publications.

Key words: *Babur studies, “Baburnoma”, manuscript, translation, translation studies, text, textual studies.*

References

- Babürname (Babür’ün Hatıratı)*. 1985. Nashrga tayyorlovchi R.R. Arat. Anqara.
- Babürname (Babür’ün Hatıratı)*. 1989. Nashrga tayyorlovchi R.R. Arat. Anqara.
- Yücel, Bilâl. 1995. “*Babür Dîvânı*”, *Atatürk Kültür Merkezi Yay*. Ankara.
- G‘aybullas-Salom, N.Otajonov. 1996. *Jahongashta “Boburnoma”*. Toshkent.
- Babur, Zahiriddin Muhammad. 2016. *Baburidi. Bibliografiya*. Moskva.

¹ *Shuhrat M. Hayitov* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor, National University of Uzbekistan.

E-mail: shuhrathayitov84@mail.ru

ORCID ID: 0009-0001-8655-2935

For citation: Hayitov, Sh. 2023. “Regarding the manuscripts and translations of “Boburnoma””. *Golden scripts* 4: 31 – 45.

- Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. Ikkinchi nashr. 2016. Toshkent.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 2008. *Boburnoma*. Nashrga tayyorlovchi V. Rahmonov. Toshkent: O'qituvchi, NMIU.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 2002. *Boburnoma*. Nashrga tayyorlovchi S. Hasanov. Toshkent: Sharq NMAK.
- Seyhan, Tanju. 2004. *Mubeyyin der fikh*. İstanbul.
- Hasanov, S. 2008. "Bobur asarlarining qo'lyozmalarining o'rganilishi va "Kulliyoti Bobur" haqida". *Adabiyot ko'zgusi* 10. Toshkent.
- Hasanov, S. 2005. "Bobur kulliyotining Tehron nusxasi". *O'zAS*. Toshkent, 1-yanvar.
- Mano, Eji. 2008. "Bobur asarlari to'plamining Tehron nusxasi". *Bobur va boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni: xalqaro ilmiy anjuman materiallari*. Toshkent.

Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devoni manbalari, matniy tadqiq tarixi

Ozoda Tojiboyeva¹

Abstrakt

Mumtoz adabiyotning lirik janrlarida sermahsul ijod qilgan Alisher Navoiy turkiy adabiyotda eng ko'p devon tuzgan shoiridir. Alisher Navoiyning she'riy asarlari o'z davridan boshlab zamondoshlari tomonidan yuqori baholangan. O'z zamonasidagi qardosh millatlar va keyingi davr shoirlari ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. XX asr navoiyshunosligida shoir lirik merosini o'rganish alohida o'rin tutadi. Shoir lirik merosini o'rganish manbashunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan keng miqyosda o'rganildi, yangi natijalarga erishildi. Keyingi yillardagi yangiliklar ham lirik merosi manbalariga to'g'ri keladi.

Mazkur maqolada, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi “Favoyid ul-kibar”ning o'rganilish tarixi yoritildi.

Kalit so'zlar: *lirika, devon, qo'lyozma manba, janr, davr, matnshunoslik, adabiyotshunoslik.*

Kirish

Lirika badiiy adabiyotning adabiy-estetik ahamiyatini ochib beruvchi, ijodkor shaxsining so'zga ko'chirilgan ichki olam manzaralaridir. Sharq adabiyotida badiiy ijoddagi iste'dod shoirning nazmdagi mahorati bilan o'lchangani yaxshi ma'lum. Lirik turning barcha janrlarini turkiy tilda yangilagan, o'zgacha mazmun va shakllar bilan boyitgan Alisher Navoiy ijodida katta hajmdagi she'riy merosi alohida o'rin tutadi. Shoirning muxlislari tomonidan tuzilgan “Ilk devon”, “Oqquyunli muxlislar devoni”, “Badoye' ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”, “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi “G'aroyib us-sig'ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye' ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar” va forsiy tildagi “Devoni Foni” nomli jami to'qqizta devoni misli ko'rilmagan sermahsul ijod namunalari hisoblanadi. Ularga

¹ Tojiboyeva Ozoda Tohirovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ozoda@navoiy-uni.uz

ORCID-ID: 0000-0003-4742-8357

Iqtibos uchun: Tojiboyeva, O. T. 2023. “Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devoni manbalari, matniy tadqiq tarixi”. *Oltin bitiglar* 4: 46 – 60.

kiritilgan she'riy janrlar tarkibi Sharq adabiyotining devonchilik tartibini takomilga yetkazgan Alisher Navoiyning badiiy mahorat qirralarini, yuksak salohiyatini o'zida namoyon etadi. Shuning barobarida mazkur devonlar shoirning ijodiy o'sish bosqichlari, dunyoqarashi, o'y-kechinmalari, poetik tafakkur olamini ifoda etishi bilan muhim qimmatga ega.

O'z davri va o'zidan keyingi davr adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan Alisher Navoiy ijodiy merosi zamonasidan e'tiboran tadqiq etilib kelinadi. Qolaversa, o'rta asrlar kitobchilik san'atining nodir namunasi sifatida ko'chirilgan shoir ijodi manbalarining dunyo bo'ylab tarqalib ketishi ham Navoiy ijodining xalqaro miqyosda o'rganilishiga asos bo'lgan deyish mumkin. Shoirning lirik merosi zamonaviy davr adabiyotshunosligida Maqsud Shayxzoda, Hamid Sulaymonov, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, Y.Is'hoqov, N. Komilov, M. Imomnazarov, Dilorom Salohiy va boshqa ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularda ko'tarilgan masalalar, tahlillar shoir ijodining tub mohiyatini zamon kitobxoniga yetkazishda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Devonning matnshunoslik tadqiqi

Alisher Navoiy lirik merosining o'rganilish tarixida matnshunoslik va adabiyotshunoslik aspektida bajarilgan tadqiqotlarning alohida o'rni bor. Fanda ma'lum, yaxshi adabiy tahlil, kuzatuv to'g'ri, xatosiz matndan boshlanadi. Asl matn tiklanmas ekan, tahlillar ishonchli, mukammal chiqmaydi. Shoirning epik va nasriy asarlari salmog'iga ko'ra yetakchilik qiladigan lirik asarlari manbashunosligi ham alohida bir yo'nalishni tashkil etadi. Keyingi davrlarda topilayotgan yangi qo'lyozmalar ham aynan Navoiy lirikasiga tegishli bo'lib, ular yangilik sifatida bu faoliyatning xalqaro miqyosda yoyilishiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Xususan, keyingi yillarda A.Erkinov tomonidan topilgan devonlarning yangi nusxalari bo'yicha e'lon qilingan ishlar, M. Imomnazarov, O. Madaliyeva tomonidan Navoiy lirikasi manbalari, tarixiga doir tadqiqotlar matnshunoslik, manbashunoslik ilmi rivojiga sezilarli hissa bo'lib qo'shilmoqda.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibiga kiruvchi "Favoyid ul-kibar" shoir umrining oxiri, ijodiy kamolotga yetgan bosqichini namoyon etuvchi devon hisoblanadi. Devonda to'qqiz janrdagi 793 ta she'r bo'lib, ular 650 g'azal, 1 mustazod, 2 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 tarji'band, 1 soqiynoma, 50 qit'a, 86 fardni tashkil etadi. "Xazoyin ul-maoniy"ga kiruvchi boshqa

devonlardan farqi – bu devonga barcha turkiy tildagi fardlari va yagona soqiynomasi kiritilgan.

“Favoyid ul-kibar” devoni shoirning ijodiy rejasiga ko’ra yoshlik, yigitlik, o’rta yosh, keksalik davrlariga ko’ra taqsimlangan. Rejaga ko’ra devonlar sirasida mazkur devon ulug’ yosh, ya’ni keksalik lirikasini tashkil etuvchi 45–60 yoshlar orasidagi umrga mo’ljallab ajratilgan bo’lishi lozim. Albatta, “Favoyid ul-kibar”ga kiruvchi g’azallar faqat keksalik davri lirikasini tashkil etmasligi, bu tushuncha nisbiy olinganini Navoiy lirikasi matnini tadrijiy o’rgangan olim Hamid Sulaymon aytib o’tgan [Сулаймон 1959, 1961]. Kiritilgan she’rlar mazmuni nomlanishiga ko’ra nisbiy bo’lsa-da, fanda “Favoyid ul-kibar” devoni shoirning umumiy ma’noda keksalik davri ruhiyatini beruvchi turkiy tildagi oxirgi devon sifatida qadrlanadi.

“Favoyid ul-kibar” devonining o’rganilish tarixini manboshunoslik, matnshunoslik va adabiyotshunoslik kesimida alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

Alisher Navoiy lirikasining matniy tadqiqi, joriy alifboga ko’chirilishi matnshunos olim Hamid Sulaymon nomi bilan bog’liq. Dastlabki paytlarda shoir devonlari to’liq nashrga tayyorlanmagani, deyarli barchasi turli fondlarda, ayrimlari noma’lum holatda bo’lgani sabab ularni to’plash, matnni tiklash jarayonida qiyosiy tekshirish va devon matnlarini tiklash ishlari ulkan mehnat edi. Dastlabki devonlardan “Xazoyin ul-maoniy”ga kirgan g’azallar qiyosi, kulliyotdagi to’rt devonning nomlanishiga ko’ra nisbiyligi yuzasidan chiqarilgan xulosalar devon matnlari ustida olib borilgan katta ilmiy tadqiqotdir.

“Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi to’rtinchi devon “Favoyid ul-kibar” “Badoye’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” singari alohida kulliyotdan tashqaridagi devon bo’lmagani sabab uning matniy tadqiqi “Xazoyin ul-maoniy” tarkibida yaxlit o’rganiladi. Ya’ni, “Xazoyin ul-maoniy”ning barcha nusxalari “Favoyid ul-kibar”ni ham qamrab oladi. Biroq Alisher Navoiyning o’nlab asarlarini qamrab olgan kulliyotlar tarkibida har doim ham devonlar tartibiga rioya qilingan emas. Dunyo fondlaridagi Navoiy asarlari manbalariga e’tibor berilsa, ba’zida devonlar alohida ham ko’chirilgani ko’zga tashlanadi. Aksariyat, “Badoye’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”, “G’aroyib us-sig’ar” devonlari ko’proq, “Favoyid ul-kibar” devoni ham ayrim-ayrim ko’chirilgani kuzatiladi. Xususan, “Favoyid ul-kibar”ning Istanbul kutubxonasidagi 1565, 2747-raqamli nusxalari fikrimiz isbotidir.

Ma'lumki, qo'lyozmalarining eng noyob nusxalari Alisher Navoiy davriga yaqin bo'lganlari hisoblanadi. Shu o'rinda H.Sulaymonov uchun devonlar matnini tiklashda asos bo'lgan qo'lyozmalarni ko'rib o'tsak. Olimning faoliyati Navoiy lirikasini to'liq qamrab olgani, dastlabki devonlarni ham nashrga tayyorlagani uchun ularni chetlab, asosan, "Xazoyin ul-maoniy" manbalarini qayd etamiz. Xususan, ushbu to'rt devon matnini tiklash uchun 27 ta qo'lyozma asosida ishlaganini qayd etadi. Ularning eng asosiylari quyidagilar:

1. Sankt-Peterburg shahri Rossiy Milliy kutubxonasidagi Xanikov fondida saqlanuvchi 55-raqamli kulliyot. Kitob 1499-yil 10-iyulda Hirotda ko'chirilgan. Kulliyotga Alisher Navoiyning 12 ta asari va devonga yozilgan debochasi, jami 13 ta asari kiritilgan. "Favoyid ul-kibar" kulliyot tarkibida 449-510-betni tashkil etadi [Volin 1955, 39; Мадалиева 2021, 138].

2. Dushanbe shahrida Tojikiston FA Sharqshunoslik bo'limidagi 1990-raqamli qo'lyozma. 1499-1500-yillarda ko'chirilgan. 254 varaq.

3. O'zR FA ShI 677-raqamli "Xazoyin ul-maoniy" qo'lyozmasi. XV asr oxiri, XVI asr boshlarida ko'chirilgan. 243 varaqdan iborat. "Favoyid ul-kibar" devoni matnda 182b-243b sahifalarni tashkil etadi. Atoqli navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov o'zining "Navoiy lirikasi" nomli monografiyasida she'r matnlarini tahlil qilish uchun mazkur qo'lyozmaga tayangan. Olim buning sababini quyidagicha tushuntirib o'tadi: "Navoiy lirikasini o'rganishga kirishganimizda, H.Sulaymonning ishi hali tugallanmagani va nashr etilmagani sababli, biz "Xazoyin ul-maoniy"ning O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan va shu institut katalogida XVI asrga tegishli deb topilgan 677-inventardagi qo'lyozma nusxasi asosida ish olib bordik" [Хайитметов 2015, 41]. Mazkur qo'lyozmaning tarkibiy xususiyatlari O. Madaliyeva tomonidan alohida yoritilgan [Мадалиева 2017, 60-65].

4. Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasi, hozirda Rossiya Milliy kutubxonasidagi Dorn 558-raqamli kulliyot qo'lyozmasi. Kitob 1592-1596-yillarda Ozarbayjonning Qizilog'och shahrida kotib Nazar Ali Fayziy tomonidan ko'chirilgan. 722 varaq. Ahamiyatlisi, "Xazoyin ul-maoniy" alohida devonlar tartibida emas, umumiy alifbo tartibida ko'chirilgan bo'lib, 330b-586a sahifalarda joylashgan [Мадалиева 2021, 143]. Kulliyotda "Xazoyin ul-maoniy" umumiy alifbo tartibida

ko'chirilgan bo'lsa ham, har birini alohida hisoblaganda jami 20 ta asar o'rin olgan.

5. Ozarbayjon FA qo'lyozmalar fondidagi 2377-raqamli qo'lyozma. 1642-43-yillarda ko'chirib tugatilgan. 229 varaq.

6. O'zbFA ShI 1486-raqamli qo'lyozma. XVII asrda Buxoroda ko'chirilgan. 259 varaq. "Favoyid ul-kibar" 159b-295b sahifalarni tashkil etadi [Мадалиева 2017, 60-65].

7. O'zbFA ShI 1315-raqamli qo'lyozma. 634 varaq. XVII asrda ko'chirilgan. Devonlar alohida emas, umumiy alifbo tartibida ko'chirilgan.

8. Hindistondagi Burxonpur nusxasi. 1708/09-yili ko'chirilgan. 760 varaq.

9. O'zbFA Til va adabiyot institutidagi 752-raqamli qo'lyozma. 1835/36-yillarda ko'chirilgan. 493 varaq.

10. O'zbFA ShI 1709-raqamli qo'lyozma. 1838/39-yillarda ko'chirilgan. 477 bet. "Favoyid ul-kibar" 355b-477b sahifalarda joylashgan [Мадалиева 2017, 62-63].

11. Xivadagi shaxsiy kutubxonadagi qo'lyozma. 1856/57-yillarda ko'chirilgan. 299 varaq.

Alisher Navoiyning 1987-2003-yillar davomida 20 jildidan iborat Mukammal asarlar to'plami nashr etildi. Xususan, 3-jilddagi "G'aroyib us-sig'ar" devoniga tahrir hay'ati tomonidan yozilgan so'zboshida bir qancha ma'lumotlar qayd etilgan. Jumladan, 1959-1960-yillardagi nashrda Hamid Sulaymon asosan sobiq ittifoqdagi qo'lyozmalardan foydalangani, biroq keyingi yillarda yana ikki kulliyotning fotonusxasi qo'lga kiritilgani aytiladi. "Bular Alisher Navoiy kulliyotining Istanbulda, To'pqopi saroyi fondida (inv. № 808) saqlanayotgan nusxasi, 901-902-1495-1497-yillari xattot Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan hamda Parij Milliy kutubxonasida (inv. № 316-317) saqlanayotgan, 930-933/1525-1527-yillarda kotib Ali Hijroniy tomonidan Hirotda ko'chirilgan ikki jildlik kulliyot fotonusxalaridir. Har ikkala kulliyot kompozitsiya va mundarija jihatidan bir-biriga yaqin" [Навоий 1988, 2]. Olim mazkur ikki kulliyot asosida devon matnlari ustida qayta ishlab, kamchiliklarni bartaraf etgani qayd etiladi.

Mazkur kulliyotlar tarkibi haqida tadqiqotlarda batafsil ma'lumot berilgan [Levend 1958, Мадалиева 2021, 128-155]. 808-raqamli To'pqopi kulliyotida "Favoyid ul-kibar" 597b-658b sahifalarni tashkil etadi. Istanbul Sulaymoniya kutubxonasidagi 4056-raqamli kulliyot ham mo'tabar nusxa sanaladi. Hamid Sulaymon har uch "qo'lyozmalarning mukammalligini va ular

dastlabki muallif tahririga yaqin ekanligini, shoir asarlarining mavzusi, janr xususiyatlariga ko'ra muntazam joylashganligini" qayd etadi [Сулаймон 1981, 193]. Sulaymoniya kulliyotining ko'chirilgan yili noma'lum. "Favoyid ul-kibar" kulliyotda 584b-646a sahifalardan o'rin olgan. Mazkur manbalar, qo'shimcha terma devonlar "Xazoyin ul-maoniy"dagi har to'rt devon matnini tiklashda asos vazifasini o'tagan.

Hamid Sulaymon Alisher Navoiyning o'zi tasnif qilganidek davrlarga bo'lishda shoirning keksalik davri lirikasini 1486-1499-yillar – 45-60 yoshlar oralig'ida irod qilingan she'rlarga ajratadi, o'sha davrda yozilgan she'rlarni aniqlash uchun "Xazoyin ul-maoniy"ning ikki nodir nusxasiga tayanganini aytadi. Bular Sankt-Peterburgdagi 55-raqamli (1499-1500), Dushanbedagi 1990-raqamli (1499-1500) nusxalardir [Сулаймонов 1959, 23-24].

Hamid Sulaymonning imkoniyatlari ma'lum ma'noda keng va tor edi deyish mumkin. Kengligi shundaki, Alisher Navoiy devonlari to'liq nashr etilmagani sabab faoliyatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangani va boshqa ko'plab sabablarni ko'rsatish mumkin.

"Favoyid ul-kibar" devoni ham umumiy devonga xos prinsiplar asosida nashrga tayyorlandi. Devon 20 tomlikda 6-jildni tashkil etadi. Keyinchalik 10 tomlik "To'la asarlar to'plami"da ham o'tgan nashrlardagi matniy nuqsonlar tuzatilib borildi. 2011-yilda O. Davlatov "Xazoyin ul-maoniy"ni qayta tuzatishlar bilan alohida nashr etdi [Давлатов 2011].

"Favoyid ul-kibar"ning Turkiyada tadqiq etilishi

Devonlarning nashrga tayyorlanishi Turkiyada ham alohida katta bir bosqichni tashkil etadi. Ilk devonlan tortib barcha devonlar turk olimlari tomonidan Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalari asosida o'rganilgan. Xususan, fan olamida Alisher Navoiy asarlarining Turkiyadagi manbalari borasida Ogoh Sirri Levendning "Istanbul kutubxonalaridagi Navoiy qo'lyozmalari" haqidagi bibliografik tavsifi qimmatli tadqiqot hisoblanadi [Levend 1958]. Xususan, olima Gunay Kut Istanbul To'pqopi kutubxonasidagi 808-raqamli kulliyotning faksimel nashrini tayyorlagan [Kut 2020]. Mazkur ishning afzalligi shundaki, birinchidan, ilmdagi ochiqlik, devonlar bo'yicha ilmiy izlanish olib boruvchi keyingi tadqiqotchilarga qulaylik yaratishi bo'lsa, ikkinchidan, nodir nusxaning ko'p nusxa holatida saqlanib qolishiga ham yordam berishi bilan belgilanadi.

Turkiya kutubxonalarida Alisher Navoiy asarlarining nodir manbalari saqlanishi natijasida ko'plab turk olimlari qo'lyozmalar asosida tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, navoiyshunos olimlar Gunay Kut "G'aroyib us-sig'ar" [Kut 1965], Metin Karao'rs "Navodir ush-shabob" [Karaörs 1985], Turkay Kaya "Badoye' ul-vasat" [Kaya 1988], Onal Kaya "Favoyid ul-kibar" [Kaya 1989], Nursel O'zdarendeli "Ilk devon" [Özdarendeli 2001], Bilge Nalbant "Navodir un-nihoya" [Nalbant 2005] devonlarining ilmiy-tanqidiy, qiyosiy-chog'ishtirma, jamlanma matnlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoya qilishgan. Yana bir qancha devon nusxalari, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kesimidagi ishlarni qo'shgan holda Navoiy lirik merosi matnini o'rganish bo'yicha Turkiyada ko'p va samarali ishlar bajarilgan deyish mumkin.

Umuman, Turkiyadagi milliy boyliklarning yaxshi saqlanishi, xorij va Sharqni bog'lovchi ko'priksifatidagi joylashuv markazi, mustamlakachilik siyosatini boshidan o'tkazmagani, adabiyotshunoslik ilmidagi uzluksizlik va boshqa ko'plab sabablar ilmiy tadqiqotlar uchun qulay imkoniyat bera olgan.

Ma'lumki, "Xazoyin ul-maoniy" yaxlit kulliyot hisoblanadi. Ba'zida yirik kulliyotlar ichida devonlarning o'rin almashishi kuzatiladi. Yakka holatda har to'rt devonning alohida ko'chirilgan nusxalari ham uchraydi. Istanbuldagi Navoiy devonlari manbalari orasida "Xazoyin ul-maoniy"ning alohida ko'chirilgan nusxalari ham mavjud. Xususan, "G'aroyib us-sig'ar" qo'lyozmalari nisbatan ko'proq, "Favoyid ul-kibar"ning ham bir necha qadimiy nusxalari bor.

Turk olimi O'nal Kaya "Favoyid ul-kibar" devoni matni bo'yicha maxsus tadqiqot ishi olib borgan. Nodir manbalar asosida devonning qiyosiy-yig'ma matnini shakllantirgan. Quyida mazkur ish uchun matnni ko'chirishda asos bo'lgan manbalarni ko'rib o'tamiz [Kaya 1989, 7-11]:

1. To'pqopi kutubxonasidagi Revan 808-raqamli kulliyot. Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan. "Favoyid ul-kibar" devonida 627 g'azal, 1 mustazod, 2 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 tarjiband, soqiynoma, 48 qit'a, 84 fard bor.

2. Sulaymoniya Fotih kutubxonasidagi 4056-raqamli kulliyot. "Favoyid ul-kibar"da 657 g'azal va boshqa janrlar bor.

3. Parijdagi 316-317-raqamli kulliyot. 1526-27-yillarda Ali Hijroniy tomonidan Hirotda ko'chirilgan.

4. Istanbul universiteti kutubxonasidagi 1565-raqamli "Favoyid ul-kibar"ning 948/1540-yilda alohida ko'chirilgan

nusxasi. Kotib Jamshid. 643 g'azal, 85 fard va boshqa janrlar mavjud.

5. Istanbul universiteti kutubxonasidagi 2794-raqamli "Favoyid ul-kibar"ning alohida ko'chirilgan nusxasi. Kotib Husayn ibn Haydar al Husayniy Jurjoniy. 1043/1633-yilda ko'chirilgan. Mazkur devonda she'r matnlari asosiy sahifadan tashqari hoshiyaga ham ko'chirilgan.

6. Alisher Navoiyning 1963-65-yillarda nashr etilgan 15 tomlik "Asarlar"idagi "Favoyid ul-kibar" matni asos qilib olingan. Tahrir hay'ati: Oybek, G'afur G'ulom, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Porso Shamsiyev, Hodi Zarif, Ramz Bobojon.

Ko'rinadiki, matniy tadqiq uchun 5 ta manba va 1 ta nashr asos qilib olingan. Manbalarning 4 tasi Istanbulda saqlanadi, 1 tasi esa Parij kulliyoti. Onal Kaya manbalarni raqamlab chiqar ekan, eng ishonchli va qadimiy manba sifatida 808-raqamli kulliyotni oladi, unga eng yaqini Parij kulliyoti deb belgilaydi. Ikki nusxadagi farqliliklar 4056, 1565 nusxalar va Hamid Sulaymon nashri bilan aynan o'xshash. Hamid Sulaymon nashri eng mukammali bo'lib, qadimiy manbalar asosida tayyorlangan, deb ta'kidlaydi. "Favoyid ul-kibar"ning alohida ko'chirilgan 2797 nusxasi o'zgachaliklarga ega, umuman 1565, 2797-raqamli qo'lyozmalar devonning alohida nusxalari bo'lgani uchun jalb etilgani atiladi.

Mazkur olti tayanch manbalardan so'ng yana qo'shimcha manbalar ham jalb etilgan. Bular:

1. Anqara TDK kutubxonasi 33-raqamli "Favoyid ul-kibar" qo'lyozmasi.

2. Istanbul universiteti kutubxonasidagi 930/1523-yil Alovuddin Mahmud tomonidan Hirotda ko'chirilgan 5669-raqamli qo'lyozma.

3. Sankt-Peterburgdagi Xanikov fondi 55-raqamli kulliyot.

4. Ko'nya Genel kutubxonasidagi 6623-raqamli kulliyot.

5. London Osiyo jamiyati kutubxonasidagi 47-raqamli kulliyot.

6. Istanbul universiteti kutubxonasidagi 5452-raqamli kulliyot. 1232/1816-yil ko'chirilgan.

7. Sankt-Peterburgdagi 7-raqamli nusxa. 1241/1825-yil Abdurrahim tomonidan ko'chirilgan.

8. Sankt-Peterburgdagi 9-raqamli qo'lyozma. 1281/1864-yil ko'chirilgan.

Mazkur manbalar qo'shimcha sifatida olinib, yuqoridagi olti manba asos manba qilib olingan. Onal Kaya devonning Turkiyadagi manbalarini ko'proq asos qilib oladi. Jumladan, Istanbul

universiteti kutubxonasida “Favoyid ul-kibar”ning ikki nusxasi mavjud. 1565, 2797 nusxalari. Olim Hamid Sulaymon foydalangan Toshkent, Dushanbe nusxalarini ko’rsatmaydi. Ularning o’rniga mo’tabar manbalarni qamrab olgan Hamid Sulaymon nashridan manba sifatida foydalanganini qayd etadi. Sankt-Peterburgdagi Xanikov № 55 raqamli qo’lyozmani S.Volin tasnifi asosida “Favoyid ul-kibar” devoniga tegishli o’rinlarni tavsiflagani aniq. Bizningcha, olim ularni ko’rmagan, faqat ma’lumot uchun keltirib o’tgan bo’lishi kerak. Hamid Sulaymon 55-raqamli qo’lyozmani eng nodir manba sifatida qayd etadi. Dorn tavsiflagan 558-raqamli kulliyot ham mo’tabar manba bo’lishi barobarida unda devonlar alohida emas, g’azallar umumiy alifbo tarzida terib chiqilgan. Ya’ni, barcha devonlardagi alif bilan boshlanuvchi g’azallar birinchi berilgan, so’ng boshqa harflar ketma-ketligida terilgan. Bunday tartib ayrim devonga tegishli g’azalni ajratib olishda qiyinchilik tug’diradi. Hamid Sulaymon tanqidiy matn tuzish jarayonida shu tartibdagi bir qancha Toshkent nusxalaridan ham foydalangan.

O’nal Kaya tadqiqotida matndagi har bir g’azal raqamlangan, arab alifbosidagi matnlar ilova qilinmagan, turk-lotin alifbosida ko’chirilib, qiyosiy matn shakllantirilgan. Mazkur dissertatsiya asosida O’nal Kaya devonni ham nashr qilgan [Kaya 1996].

Turk olimlari rus adabiyotshunoslarining tadqiqotlaridan ham unumli foydalanganlar. S.Volinning mazkur nashri turk tiliga Rejema Uyg’un tomonidan turk tiliga o’girilgan [Volin 1955]. Hozirgi kunda ham davom etib kelayotgan Sankt-Peterburg kutubxonalari-dagi yopiqlik tadqiqotchilarning masofadan turib ma’lumot olish imkoniyatini cheklaydi. Shu ma’noda Hamid Sulaymon Navoiy devonlarining eng qadimiy nashrlarini o’z ko’zi bilan ko’rgan olim sifatida o’zbek matnshunosligida e’tirof etiladi. Bu o’zbek ilmfanining yutug’i hamdir. Har holda Hamid Sulaymon foydalangan manbalar orasida deyarli butun dunyodagi manbalar, yana O’zbekistondagi mo’tabar nusxalar ham borligi ishning ilmiy qimmatini oshiradi. O’zBR FA ShI da Alisher Navoiyning qo’lyozma merosi salmoqli qismni tashkil etadi. Toshbosma matbaalardagi Navoiy asarlarining ommaviy nashrlari ham garchi juda nodir bo’lmasa-da, ana shu xazinani to’ldiradi. Noshirlar, kotiblar ko’chirishda foydalangan nusxalar ham o’zida qadimiy manbalardan darak beradi.

Devonning Tabrizdagi nashri

Eronning Tabriz shahri Alisher Navoiy asarlari eng ko’p

ko'chirilgan, miniatyuralar ishlangan muqaddas maskanlardan biridir. Zero, Istanbulda saqlanayotgan ko'plab qo'lyozmalar Tabrizlik kotiblar tomonidan ko'chirilgan. Navoiy asarlari uchun tuzilgan Fath Ali Kojariyning lug'ati ham bu yerda Navoiyga muhabbat o'zgacha ekanligini ko'rsatadi. Umuman, shoirlarning vatani hisoblangan Tabriz tarixan Navoiy asarlarini o'g'uz turkiylari sevib mutolaa qiladigan joy bo'lgan. Bu yerda bir qator navoiyshunos olimlar mazkur faoliyatni davom ettirmoqdalar. Eronlik olim G'ulomreza Razmi 2023-yilda "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotini to'liq nashrga tayyorladi. Olim kulliyotga kiruvchi har bir devonni alohida nashr etgan. "Xazoyin ul-maoniy"ni tiklash jarayonida 16 ta qo'lyozmadan foydalanadi [Razmi 2023]. Xususan, "Favoyid ul-kibar" devonini tayyorlash uchun 7 ta qo'lyozmani asos qilib oladi:

1. Istanbuldagi To'pqopi 808-raqamli kulliyot.
2. Parijdagi 316-317-raqamli kulliyot.
3. Istanbul universitetidagi 1565-raqamli qo'lyozma.
4. Eron majlis qo'lyozmasi.
5. Tabriz kutubxonasidagi ikki qo'lyozma.
6. Istanbul Fotih kutubxonasi 4056-raqamli kulliyot.

Olim nashrni arab alifbosida tayyorlangan. Toshkent, Dushanbe, Sankt-Peterburg nusxalari jalb qilinmagan.

Devonlar boshqa davlatlarda shu tartibda o'rganilgani uchun ba'zida qayta ishlashga zarurat yo'qdek tuyuladi. Turkiyadagi ishlar usmonli turkchasida tayyorlanganini ham e'tiborda tutish lozim bo'ladi. O'zbekistonda Hamid Sulaymon yaratgan ilmiy-tanqidiy matndan so'ng qayta bu tartibdagi ishlar zarur emas, deb hisoblangan.

Alisher Navoiy devonlari manbalari qiyosi bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan O. Madaliyeva "Favoyid ul-kibar" ning O'zR FA ShI da XV asrda Xurosonda ko'chirilgan alohida nusxasi borligini qayd etadi [Мадалиева 2021, 183].

"Favoyid ul-kibar" adabiyotshunoslik obyekti sifatida

Alisher Navoiyning lirik merosini o'rganish zaruratini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- a) adibning o'zi ijod etgan janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nuqtayi nazaridan;
- b) ilk devonlardan tortib shoirning keksalik davriga qadar badiiy mahoratining o'sib borishi, ijodiy evolyutsiyasi;
- v) lirik she'rlarni mazmuniga ko'ra mavzuviy tasniflagan

holda;

g) dastlabki devonlardan “Xazoyin ul-maoniy”ga kirgan g’azallarning holati, muallif tahriri masalasi bo’yicha;

d) shoirning badiiy mahorati, uslub va til xususiyatlari bo’yicha va h.k.

Devonlar epik dostonlar singari katta, yaxlit syujetga ega emasligi uchun alohida o’rganish uchun tadqiqot obyekti emasdek tuyuladi. Devonlardagi g’azallar doimo mavzusi, g’oyasi, badiiyati, janriga ko’ra umumiy va alohida o’rganiladi. Devonlarni alohida o’rganishga ulardagi she’rlarning taqsimlanishi va nomlanishi asos beradi. Alisher Navoiyning yoshlik, yigitlik, o’rta yosh, keksalik davri lirikasini o’z ichiga qamrovchi (nisbiy bo’lsa-da) devonlar umr, fasllarga ko’ra, yana shoirning ijodiy kamolot bosqichlarini o’rganishda asos vazifasini o’taydi.

O’tgan davrlar mobaynida Alisher Navoiy lirikasi bo’yicha Maqsud Shayxzoda, A.Hayitmetov, A.Abdug’afurov kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib bordilar. Adibning ilk yoshlik lirikasi Y.Is’hoqov [Исхоқов 1965], keksalik davri lirikasi H.Jo’rayev tomonidan o’rganilgan [Жўраев 1993]. Habibulla Jo’rayevning tadqiqoti garchi “Alisher Navoiyning keksalik lirikasi” deb nomlansa-da, aynan “Favoyid ul-kibar” bilan chegaralangan emas. Har to’rt devonga taqsimlangan Navoiyning keksalik kayfiyatini beruvchi she’rlar saralab olingan va tahlilga tortilgan. Shoirning lirikasini davrlarga bo’lib o’rganish she’rlarning yaratilishi tarixi, yili va boshqa ko’plab masalalarning ochilishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Ko’rinadiki, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni manbalari butun dunyo kutubxonalarida saqlanadi. Yuqoridagi olimlarning o’z faoliyatida ishlatgan manbalari sirasida Turkiya nusxalari yetakchilik qiladi. Hamid Sulaymonning yutug’i fanda mo’tabar hisoblangan manbalarning aksariyatidan matnni ko’chirishda foydalanganidir. Bugun mazkur manbalarni qiyosiy o’rganish har biriga xos matniy xususiyatlarni yoritishga xizmat qiladi. Bugun turli kulliyotlar tarkibidagi devonlarni o’ziga xos matniy xususiyatlarini saqlagan holda qiyosiy matn tayyorlash ham eng ma’qul, ommalashgan, xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan faoliyat hisoblanadi. Tobora yaxlitlashib borayotgan dunyoda ilmlar, tadqiqot natijalari ham birlashib bormoqda. Albatta, erishilgan natijalarni o’rganish, ilmiy hamkorlik yo’lida muloqot qilish fanda ijobiy natijalar berishi shubhasiz.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1959. *Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар*. Тошкент: ЎзФА нашриёти.
- Алишер Навоий. 1988. *Мукаммал асарлар тўплами*. 20 жилдлик. 3-жилд: Хазойин ул-маоний: Фаройиб ус-сиғар. Илмий-танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймон. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 1990. *Мукаммал асарлар тўплами*. 20 жилдлик. 6-жилд: Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар. Илмий-танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймон. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 2011. *Фавойид ул-кибар. Хазойин ул-маоний*. Тўртинчи девон. Тошкент: Tamaddun.
- Alisher Navoiy. 2023. *Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar*. Tashih: Razmi, Gholamreza. Tabriz: Tajaddud.
- Alisher Navoiy. 2023. *Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob*. Tashih: Razmi, Gholamreza. Tabriz: Tajaddud.
- Alisher Navoiy. 2023. *Xazoyin ul-maoniy. Badoyi' ul-vasat*. Tashih: Razmi, Gholamreza. Tabriz: Tajaddud.
- Alisher Navoiy. 2023. *Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar*. Tashih: Razmi, Gholamreza. Tabriz: Tajaddud.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. To'pqopi saroyi kutubxonasi. Revan 808-inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi. 4056-inv. raqam.
- Жўраев Ҳабибулло. 1993. Алишер Навоийнинг кексалик даври лирикаси. Филология фанлари номзоди диссертацияси. Тошкент.
- Исҳоқов, Ё. 1983. *Навоий поэтикаси*. Тошкент: Фан.
- Исҳоқов, Ё. 1965. *Алишер Навоийнинг илк лирикаси*. Тошкент: Фан.
- Ҳайитметов, А. 2016. *Навоий лирикаси*. Тошкент: O'zbekiston.
- KUT Günay. 2020. *Külliyat-ı Nevayi: İnceleme, Tıpkıbasım. İstanbul, Türkiye Yazma Eserler Kurumu*.
- KUT Günay. 2003. *Ali Şir Nevâyî, Ğarâibü's-Şîğar İnceleme-Karşılaştırmalı Metin*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayını.
- KAYA Türkey. 1988. *Ali Şir Nevayi Bedayi'u'l-Vasat* (inceleme-metin-dizin). Doktora tezi. Ankara Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü.
- KAYA Önal. 1989. *Ali Şir Nevayi «Fevayidü'l-Kiber»* (inceleme-metin-dizin). Doktora tezi. Ankara Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü.
- KAYA Önal. 1996. *Ali Şir Nevayi. Fevayidü'l-Kiber*. Ankara Üniversitesi.
- KARAÖRS, Metin. 1985. *Ali Şir Nevâyî, Nevadirü's-Şebâb*. Doktora tezi, İstanbul.
- LEVEND Âgâh Sırrı. 1958. "Türkiye Kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları". *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten*, 6: 127-209.
- ÖZDARENDELİ Nursel. 2001. *Ali Şir Nevayi. İlk Divan*. inceleme-metin-dizin.

Doktora tezi. Trakya Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü.
1007 s.

NALBANT, Bilge Özkan. 2005. *Alî Şîr Nevâyî, Nevâdirü'n-Nihâye*. (İnceleme, Metin, Dizin, Notlar). Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi. Ankara. Nalbant.

Мадалиева, О. 2021. *Алишер Навоий девонлари қўлёмаларининг таркибий-қийёсий тадқиқи*. Тошкент: Donishmand ziyosi.

Мадалиева, О. 2017. “Хазойин ул-маоний” девонининг ноёб қўлёмалари ҳақида”. *Шарқшунослик* 3: 60-65.

Сулаймон, Ҳамид. 1959. “Хазойин ул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари”. Сўзбоши, 5-37. *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар*. Тошкент: ЎзФА нашриёти.

Сулейманов, Х. 1955-1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои*. В трех томах. Диссертация доктора филологических наук. Том I-II. Ташкент-Москва.

Сулайманов, Ҳ. 1981. “Алишер Навоийнинг Париж куллийети”. *Шарқ юлдузи* 2: 191-194.

Volin, S. L. (Çev. Rasime Uygun), 1955. ‘Leningrad Kitaplıklarındaki Nevaî Yazmaları Hakkında’. *TDAY-Belleten* 99-141. Ankara.

Шайхзода, Мақсуд. 1948. “Навоийнинг лирик қаҳрамони ҳақида (“Ғаройибус-сиғар” бўйича). *Улуғ ўзбек шоири*, 131-158. Тошкент: ФАН.

Sources of Alisher Navoi's divan “Favoid ul-kibar”, history of textual research

Ozoda Tojiboeva¹

Abstract

Alisher Navoi, who worked a lot in the lyrical genres of classical literature, is the most prolific poet of Turkish literature. Since that time, the poetic works of Alisher Navoi have been highly valued by his contemporaries. He had a great influence on the work of poets of the fraternal peoples of his time and later times. The study of the poet's lyrical heritage occupies a special place in Navoi studies of the twentieth century.

¹ Ozoda T. Tojiboeva – Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz

ORCID-ID: 0000-0003-4742-8357

For citation: Tojiboeva, O. T. 2023. “Sources of Alisher Navoi's divan “Favoid ul-kibar”, history of textual research”. *Golden scripts* 4: 46 – 60.

The study of the poet's lyrical heritage has been widely studied from the point of view of source studies and literary criticism, and new results have been obtained. The innovations of subsequent years also correspond to the origins of the lyrical heritage.

This article highlights the history of the study of "Favoyid ul-Kibar", which is part of the collection "Khazain ul-Maoni".

Key words: *lyrics, devan, genre, era, textual criticism, literary criticism.*

References

- Alisher Navoiy. 1959. *Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar*. Toshkent: O'zFA nashriyoti.
- Alisher Navoiy. 1988. *Mukammal asarlar to'plami*. 20 jildlik. 3-jild: *Xazoyin ul-maoniy: G'aroyib us-sig'ar*. Ilmiy-tanqidiy matn asosida nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1990. *Mukammal asarlar to'plami*. 20 jildlik. 6-jild: *Xazoyin ul-maoniy: Favoyid ul-kibar*. Ilmiy-tanqidiy matn asosida nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2011. *Favoyid ul-kibar. Xazoyin ul-maoniy*. To'rtinchi devon. Toshkent: Tamaddun.
- Alisher Navoiy. 2023. *Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar*. Tashih: Razmi, Gholamreza. Tabriz: Tajaddud.
- Alisher Navoiy. 2023. *Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob*. Tashih: Razmi, Gholamreza. Tabriz: Tajaddud.
- Alisher Navoiy. 2023. *Xazoyin ul-maoniy. Badoyi' ul-vasat*. Tashih: Razmi, Gholamreza. Tabriz: Tajaddud.
- Alisher Navoiy. 2023. *Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar*. Tashih: Razmi, Gholamreza. Tabriz: Tajaddud.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. To'pqopi saroyi kutubxonasi. Revan 808-inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi. 4056-inv. raqam.
- Jo'raev Habibullo. 1993. *Alisher Navoiyning keksalik davri lirikasi*. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent.
- Is'hoqov, Yo. 1983. *Navoiy poetikasi*. Toshkent: Fan.
- Is'hoqov, Yo. 1965. *Alisher Navoiyning ilk lirikasi*. Toshkent: Fan.
- Hayitmetov, A. 2016. *Navoiy lirikasi*. Toshkent: O'zbekiston.
- KUT Günay. 2020. *Külliyat-ı Nevayi: İnceleme, Tıpkıbasım*. İstanbul, Türkiye Yazma Eserler Kurumu.
- KUT Günay. 2003. *Alj Şjr Nevāyī, Ğarāōībū's-Şīġar İnceleme-Karşılaştırmalı Metin*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayını.
- KAYA Türkyay. 1988. *Ali Şir Nevayi Bedāyī'u'l-Vasat* (inceleme-metin-dizin). Doktora tezi. Ankara Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü.
- KAYA Önal. 1989. *Ali Şir Nevayi «Fevayidü'l-Kiber»* (inceleme-metin-dizin). Doktora tezi. Ankara Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü.

1382 s.

- KAYA Önal. 1996. *Ali Şir Nevayi. Fevayidü'l-Kiber*. Ankara Üniversitesi.
- KARAÖRS, Metin. 1985. *Ali Şir Nevāyî, Nevadirü'sh-Şebāb*. Doktora tezi, İstanbul.
- LEVEND Âgâh Sırrı. 1958. "Türkiye Kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları". *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten*, 6: 127-209.
- UZDARENDELİ Nursel. 2001. *Ali Şir Nevayi. İlk Divan*. inceleme-metnizinin. Doktora tezi. Trakya Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü.
- NALBANT, Bilge Özkan. 2005. *Ali Şir Nevāyî, Nevādirü'n-Nihāye*. (İnceleme, Metin, Dizin, Notlar). Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi. Ankara. Nalbant.
- Madaliev, O. 2021. *Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Madaliev, O. 2017. "Xazoyin ul-maoniy" devonining noyob qo'lyozmalari haqida". *Sharqshunoslik* 3: 60-65.
- Sulaymon, Hamid. 1959. "Xazoyin ul-maoniy" tekstlarini o'rganish va nashrga tayyorlashning asosiy masalalari". *So'zboshi*, 5-37. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar. Toshkent: O'zFA nashriyoti.
- Suleymanov, X. 1955-1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi. V trex tomax*. Dissertasiya doktora filologicheskix nauk. Tom I-II. Tashkent-Moskva.
- Sulaymanov, H. 1981. "Alisher Navoiyning Parij kulliyoti". *Sharq yulduzi* 2: 191-194.
- Volin, S. L. (Çev. Rasime Uygun), 1955. 'Leningrad Kitaplıklarındaki Nevaî Yazmaları Hakkında'. *TDAY-Belleten* 99-141. Ankara.
- Shayxzoda, Maqsud. 1948. "Navoiyning lirik qahramoni haqida (G'aroyibus-sig'ar bo'yicha). Ulug' o'zbek shoiri, 131-158. Toshkent: FAN.

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE**Tavhid, nubuvvat va badiiy tavsif
masalasi tadqiqiga doir**Usmon Qobilov¹**Abstrakt**

Mazkur maqola o'zbek mumtoz adabiyotining muhim va dolzarb masalalaridan bo'lgan nubuvvat va badiiy ijod muammosi tadqiqiga bag'ishlanadi. Unda Sharq-islom, xususan, turkiy-o'zbek tasavvuf va mumtoz adabiyoti g'oyaviy-badiiy olamida salmoqli o'rin tutgan nubuvvat ta'limoti (profetologiya) xususida mulohazalar yuritiladi. Maqolada bu tushunchaning lug'aviy-istilohiy va ma'rifiy ma'nolari izohlanadi, badiiy jarayonlarda ifoda etilish an'analari nazariy jihatdan baholanadi. Shu bilan birga tavhid, nubuvvat va badiiy ijod masalalariga oydinliklar kiritiladi, nubuvvat namoyon bo'lishining qator holatlari manbalar asosida tadqiq etiladi. Kuzatishlardan ayon bo'ladiki, nubuvvat tasavvuf ta'limotining shakllanishi va rivojidadagina emas, balki tasavvuf va mumtoz adabiyot taraqqiyotiga ham ulkan ta'sir etgan olamshumul hodisa hisoblanadi. U va unga daxldor haqiqatlarni anglamasdan turib, Sharq adabiyoti va falsafasini chuqur idrok etib bo'lmaydi. Shularni hisobga olgan holda maqolada nubuvvat masalasi va uning mumtoz adabiyot poetik olamidagi mavqeyi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *tavhid va nubuvvat masalasi, nubuvvat va badiiy ijod, islomiy manbalar, an'ana va yangicha talqin, mavzu va g'oya, obraz va motiv, timsol va tavsif.*

Kirish

Dunyo adabiy jarayonidan ma'lumki, hech bir adabiyot yoki san'at o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyoti, yuksalishi yoki tanazzuli muayyan ijtimoiy-ma'naviy omillar taqozosiga ko'ra amalga oshadi, hech bir san'at turi ijtimoiy-tabiiy ta'sirlardan xoli bo'lmaydi. Ayniqsa, so'z san'ati o'zining ko'p qirrali funksiyasi bilan ma'naviy-ijtimoiy

¹ Qobilov Usmon Uralovich – filologiya fanlari doktori, professor, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

E-pochta: usmonqobilov82@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7940-8823

Iqtibos uchun: Qobilov, U.U. 2023. "Tavhid, nubuvvat va badiiy tavsif masalasi tadqiqiga doir". *Oltin bitiglar* 4: 61 – 81.

hayotning barcha sohalariga daxldorligi bois bunday aloqalar miqyosida g'oyat chuqur va teran zaminga egadir. Chunonchi, badiiy adabiyot tarixan ijodiy jarayonning og'zaki namunalari, qadim yozma yodnomalar, antik madaniyat yodgorliklari, din va ruhoniya ta'limotlari, falsafa va hikmat ilmi, aqliy va naqliy ilmlar kabi yuzlab sohalar bilan doimo bog'liq bo'lib kelgan va keladi. Ma'lumki, o'zbek adabiyoti tarixining bir davrini mumtoz (toza, imtiyozli) adabiyot davri tashkil etadi. Bu davr adabiyotining olamshumulligi, betakrorligi, o'lmasligi muqaddas islom, tavhid va nubuvvat ta'limoti bilan yanada barqarorlashadi.

Nubuvvat tushunchasi va nabiylk talqini

Jahon xalqlari tamadduni davrida umuminsoniyat ma'naviy-ruhoniyl ehtiyojlari taqozosiga ko'ra vujudga kelgan nubuvvat ta'limoti badiiy ijodning bani bashar manfaatlari ifodasi sifatida namoyon bo'lishiga ulkan hissa qo'shgan ma'naviy-ruhoniyl hodisa hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf ilmi tadqiqotchisi Y.E. Bertels "Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniyl hayoti haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Tasavvuf klassiklari XX asr boshlariga qadar sharqona adabiyotga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu tasavvufga asosiy e'tibor qaratishni talab etadi. Musulmon Sharqining yirik ijodkorlari ba'zi istisnalar hisobga olinmaganda u yoki bu jihatlardan tasavvuf bilan bog'liqdir. Tasavvuf adabiyotini to'liq anglamasdan Sharqning o'zini ham tushunib bo'lmaydi", – degan edi [Бертельс 1965, 54]. Bu fikrni nubuvvat ta'limotining tasavvuf va mumtoz adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri to'g'risida ham aytish lozim.

Manbalarda nubuvvat tushunchasi ko'p ma'noli ekanligi ta'kidlanadi, qadimgi ivriy-arab tillarida bir necha asosiga urg'u beriladi. Chunonchi, bu tillarda "nab'un" – xabar, "nabva" (nubuy)–yuksalish, "nabi" – payg'ambar ma'nolarini bildiradi [Javhar Shulul 2010, 45]. Shunga ko'ra, "nab'un" – Alloh indirgan-tushirgan "so'zlar", "xabarlar", "nabva" – samoviylik, "nabi" esa "xabarchi", "ilohiy kalomni yetkazuvchi" ma'nolarini anglatadi. Gap shundaki, nubuvvat bilan bog'liq turli ma'nolar ichida "ilohiy xabar", "vahiy", "nuzul" birlamchi hisoblanadi. Shu jumladan, Qur'onning ham qayta tirilish, Qiyomat, ajr haqida xabar beruvchi alohida bir surasi "Naba" deb yuritiladi. Demak, nubuvvat atamasi "xabarlar", "nabiylk" va "nabiylar" tushunchalarini o'zida mujassamlashtiradi va bir ifoda bilan "payg'ambarlik ta'limoti" ma'nosini yuzaga keltiradi. Zotan, nubuvvat turli manba va istilohlarda o'ziga xos izoh

etilsa-da, mohiyatan bir ma'noda tushuniladi. Misol uchun olaylik, "Farhangi istilohot va iboroti irfoniy" (Irfoniy istiloh va iboralar lug'ati)da: "nubuvvat – istilohda Haq Taolo va uning ahkomlarini xalqqa yetkazmoqlikdur. So'fiylar, avliyullohlar hamda aqtoablarni anbiyoning vorisi deb sanaydilar. Muhammad (a.s.)dan so'ng "lo nabiyyu ba'di" (undan keyin payg'ambar yo'q) deb hisoblansa-da, nubuvvatni so'fiylar, avliyullohlar va aqtoablarning ilohiy ilhom olmoqliklari vajhi bilan karomatga doxil qiladilar. Ya'ni, anbiyolarga vahiy kelsa, avliyolar Rabboniy ilhom vositasida o'zgalardan ajralib turadilar", – deyiladi [Farhangi istilohoti ... 2004, 829]. Shuningdek, nubuvvat bir qator lug'atlarda ("Muntaho al-arab", "Nozim ul-atbo", "Somiy") "payg'ambarlik" deb beriladi. Jumladan, "G'iyos ul-lug'ot"da "nubuvvat – xabar bermoq, xabardor qilmoq, payg'ambarlik" degan ma'nolarda izohlanadi [G'iyos ul-lug'at 1948 (2), 468], "Islom. Ensiklopediya"sida: "nubuvvat (arab. – payg'ambarlik) – ... Muhammad (a.v.) va uning vazifasini aqida sifatida tan olish va unga ishonish", – deb ta'riflanadi [Ислом. Энциклопедия 2017, 345]. Xullas, nubuvvat bir islomiy-ilohiy ta'limot o'laroq Sharq va o'zbek mumtoz adabiyotida uzoq asrlar davomida ulug' ma'rifiy-ma'naviy va umumbashariy hodisa sifatida qabul qilindi va turfa adabiy janrlarda ham mazmunan, ham timsoliy jihatlardan badiiy talqin etildi.

Jahon adabiyotshunosligida nubuvvat terminiga sinonim sifatida *profetologiya* tushunchasi ishlatiladi. Bu (profetologiya) istiloh qadimgi yunon-lotin tilida "prorok" va "logos" so'zlaridan olingan bo'lib, payg'ambar va ta'limot, ya'ni "payg'ambarlik ta'limoti" ma'nosini bildiradi. Shundan nubuvvat (profetologiya) termini "muqaddas kalom" va "elchilar" ma'rifati ifodasini anglatadi. Ma'lumki, islomiy manbalarda 124 ming payg'ambar o'tganligi "Qisas ar-Rabg'uziy"ning Nuh alayhissalom qissasida qayd etiladi. Qur'onda Muhammad payg'ambar bilan birgalikda yigirma beshta payg'ambar nomlari zikr etiladi. Ular zikr etilish darajalariga ko'ra turli miqdorni tashkil etadi, "ular haqida keng va qisqacha xabarlar keltiriladi. Tarixiy qissalarni bayon etishda Qur'oni Karim o'ziga xos uslub qo'llaydi. Unga ko'ra, Qur'on tarixiy voqealarning sanasini keltirishga yoki qachon sodir bo'lgani, qaysi voqeadan keyin yoki oldin bo'lganini zikr etishga asoslanmaydi. Qissalarni zikr etish voqea va undan olinadigan nasihat, foydalarni hosil qilishga qaratiladi" [Қуръоншунослик 2011, 104]. Olimlar fikricha, Qur'oni Karimda tarixiy qissalar mingdan ortiq oyatlarda keltiriladi. Shuni aytish kerakki, payg'ambar siymolar soni ilohiy manbalar, xususan, Qur'oni Karimda aniq raqamlarda qayd etilmaydi. Chunonchi: **"Biz**

ko'pgina payg'ambarlar yubordik. Yuqorida Sizga ular haqida hikoya qildik. Va boshqa payg'ambarlar ham yuborganmizki, ular haqida Sizga hikoya qilmadik", – oyati masalaning umumiy holatini anglatadi [Қуръони Карим 1992, 544] yoki boshqa bir oyatlarda barcha qavmlarga payg'ambar yuborilganligi aytiladi, ayrim manbalarda payg'ambarlar soni hech kimga ma'lum emasligi qayd etiladi. Bu haqidagi aniq raqamlar hadislar, sunna, tafsir, ta'vil, qasaslarda uchraydi.

Nubuvvatning samoviy kitoblar, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytilganda, "kutubi osmoniy", "osmoniy to'rt daftar", "asfori samoviy" ma'nosi haqida gap borganda esa Zabur, Tavrot, Injil, Qur'on nazarda tutiladi. Sharq, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida nubuvvat ma'rifati va timsollari nihoyatda keng o'rin egallaydi. Manbalarga ko'ra, zikr etilgan payg'ambarlar, asosan, yahudiy qavmlarga mansubligi va faqat beshtasi arabiy ekanligi qayd etiladi (Hud, Solih, Shis, Ismoil, Muhammad (a.v)). Gap shundaki, nubuvvat ta'limotida zikr etiladigan nabiy siymolarning barchasi ham yahudiylik yoki nasroniylikda payg'ambar sifatida tavsif etilmaydi. Masalan, yahudiylikda Odam – birinchi inson, Nuh – kema yasagan duradgor, Sulaymon – ulug' shoh sifatida qaraladi. Ular payg'ambar sifatida islomiy manbalarda e'tirof etiladi va bu siymolar insoniyatning ham moddiy, ham ma'naviy tarixi bilan bog'lanadi. Bu holat boshqa hodisalar singari nubuvvat ta'limoti ham diniy-ilohiy qarashlarning islom davrida yuqori bosqichga ko'tarilganini isbot etadi. Shu nuqtayi nazardan faylasuf Z. J. Shoyevning "Qur'onda nubuvvat ta'limoti o'zining yuksak gumanistik ruhi, diniy bag'rikengligi va o'zga din payg'ambarlariga bo'lgan chuqur muhabbati bilan xarakterlanadi. Bu fazilatlar barcha musulmlar uchun komillik prototipi – islom payg'ambari siymosida o'z amaliy ifodasini topadi. Qur'on va hadis g'ayridin vakillariga adovat va ularning diniy tuyg'ularini haqoratlanishiga mutlaqo qarshidir. Buning natijasida islom arab bo'lmagan mamlakatlar, xususan, Eron, O'rta Osiyo kabi o'lkalarda tez tarqalishiga olib keldi. Islom payg'ambari vafoti bilan dunyoda monoteistik din bosqichi nihoyasiga yetdi. Qur'onning nubuvvat ta'limoti xotimasi haqidagi g'oyasi tufayli ilohiy olamlar bilan bog'liq aloqalar ham va unga da'vogarlik ham xotima topadi. Ammo nubuvvat ta'limoti inson botiniy tajribalari uchun yangi ilmlar ufqini ochib beradi. Islom madaniyatining bu g'oyasi keyinchalik xilma-xil ilm-ma'rifat maktablarini vujudga keltirdi", – fikri e'tiborlidir [Шоев 2011, 25].

Sharqona qarashlarda nubuvvat tavhiddan keyin va

valoyatdan oldingi alohida ilohiy maqom sifatida qaraladi. U badiiy adabiyot, chunonchi, o'zbek adabiyoti mumtozlik darajasini ta'minlagan ilhombaxsh sohalardan sanaladi. Agar jahon adabiyotida adabiy janr-shakllarning asosiy qismi Sharq hissasiga to'g'ri kelsa, ularning ham katta ulushi nubuvvat ma'rifati ifodasi bilan bog'lanadi. Bu fikr badiiy ijodning mazmun-mundariyasi va g'oyaviy-badiiy dunyosiga ham daxldorlik kasb etadi, nubuvvat ta'limoti va obraz-timsollari talqini mumtoz adabiyot poetik olami bilan har jihatdan tutashadi. Shu o'rinda Sharq mumtoz adabiyotida nubuvvat ifodasi bilan bog'liq bir mulohazani aytish kerak bo'ladi. Jahon, va qolaversa, milliy adabiyotshunoslikda uzoq davrlar Sharq mumtoz adabiyoti she'riyatdan iboratligi haqida fikr yuritib kelindi, adabiyotshunoslik she'riyat nazariyasi asosida yaratilganligi ta'kidlandi, badiiy nasr va epiklik Sharq badiiy tafakkuri mahsuli ekanligi, Sharqda epik tasvir yuqori darajaga ko'tarilganligi va mumtoz nazm vujudga kelishiga zamin tayyorlaganligi e'tibordan chetda qoldi. Aynan badiiy nasr olamshumulligini ta'minlagan jihat ham bevosita nubuvvat qissalari va haqiqatlari ifodasi sanaladi. Bunda birgina "qissas ul-anbiyo" an'anaviy turkumi hisobga olinadigan bo'lsa, Sharqda badiiy nasr butun ijodiy jarayonning poydevori va cho'qqisi ekanligi namoyon bo'ladi. Masalaning muhimligi shundaki, nubuvvat ma'rifati va obraz-timsollari badiiy talqini butun bashariyatga xos tuyg'u-kechinmalar ifodasini vujudga keltiradi, islomning chuqur gumanizm va ezgulikka yo'g'rilgan ma'rifati sifatida namoyon bo'ladi. Bunda, birinchidan, nubuvvatning o'zbek adabiyotida badiiy motiv va poetik obraz sifatida talqini ham unga mansub xalqning ezgulik va poklik, ma'naviy bedorlik va ruhoniy ozodlik haqidagi qarashlari badiiy ifodasi sifatida ko'rinadi, ikkinchidan, nubuvvat ma'rifati va badiiy obrazlari talqini nafaqat Sharq mumtoz adabiyoti, balki dunyo adabiyotining abadiy masalalaridan hisoblanadi. Xususan, nubuvvat mavzusi o'zbek mumtoz adabiyotining ham yorqin sahifalarini tashkil etadi, unga murojaat etmagan, undan ruh olmagan ijodkor va mumtoz asarni topish amrimaholdir.

Jahoniy tajribalardan kelib chiqib aytish lozimki, badiiy adabiyot (o'zbek adabiyoti)ning bir asosi xalq og'zaki ijodi, tarixi va hayoti bo'lsa, ikkinchi bir asosini din-u islom madaniyati va ma'rifati tashkil etadi. Sharq va o'zbek mumtoz adabiyoti islomiy ma'rifatdan nafaqat oziq oldi, balki ayni madaniyat-ma'rifat badiiy ifodasi sifatida o'zini namoyon qildi. Shu nuqtayi nazardan adabiyotshunos R.Xodizodaning: "Qur'on nafaqat bizning muqaddas

kitobimiz, balki bizning sivilizatsiyamizning betakror kitobidir. Bizning madaniyatimiz, bizning ilm-fanimiz, bizning adabiyotimiz, bizning san'atimiz, bizning falsafamiz uning ma'no-mohiyati bilan chambarchas bog'liqdir", – degan fikri o'rinlidir [Ходизода 2000, 41].

Ma'lumki, islom va uning manbalari o'zbek mumtoz adabiyoti uchun doimiy ilhom sarchashmasi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, o'zbek adabiyotida nubuvvat ma'rifati va obraz-timsollari talqini masalasida teran namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, muqaddas Qur'oni Karimning to'rtidan bir qismi payg'ambarlar qissalaridan iborat, nubuvvat kalimasi sakson yetti marotaba zikr etiladi. Islomda "Allohga, oxirat kuniga, farishtalarga, kitoblarga, payg'ambarlarga iymon" farz sanaladi. Bir vaqtda bu talablar nubuvvat ma'rifati hamdir. Shu bilan birga yahudiylik, nasroniylik va islomiyat orasidagi o'zaro bog'liqlikni yuzaga keltirgan holat ham nubuvvat ta'limotidir. Shu jihatdan ular ayrim qarashlarda "ibrohimiylar dinlari" deb yuritiladi. Bunda yahudiy-nasroniy va arabiy qavmlar tarixi Ibrohim Xalilulloh hayotiga borib taqalishi nazarda tutiladi. Payg'ambarlik shajarasiga ko'ra, Odam → Idris → Nuh → Hud → Solih → Lut → Ibrohim → Is'hoq va Ismoil: Is'hoqdan bir shajara → Shuayb → Ayub, ikkinchi shajara → Ya'qub → Yusuf: Muso → Horun → Ilyos → Zulkifl: Dovuddan → Yunus va Sulaymon → Zakariyo → Iso: Ismoilidan → Muhammad alayhissalom alohida shajara tarmog'i sifatida davom etadi va nubuvvatga yakun yasaladi. Demak, Ibrohim Is'hoq va Ismoilga, Is'hoq minglab payg'ambarlarga, Ismoil Muhammad payg'ambarga ajdod sanaladi (manbalarda Is'hoq va Ismoil bilan bog'liq bahslar ham mavjud). Shu bois Ibrohim Xalilulloh "payg'ambarlar otasi" deb qaraladi va yahudiy, nasroniy, islom "ibrohimiylar dinlari" deb yuritiladi. Umumiy zikrdagi 124 ming payg'ambar ham mana shu shajara davomida keltiriladi va ularning qissalari yoki nomlari qiyomatga qadar pinhon bir tarix sifatida qoladi. Kutubi osmoniylar va ayniqsa, Qur'onda qayd etilgan 25 ta payg'ambar hamda ular qissalari, maqom-o'rinlari kabi holatlar tavsifi barcha islomiy-ilohiy manbalarda bir-biriga hamohang tarzda keltiriladi. Gap shundaki, manbalarda payg'ambarlik nabiy va rasul guruhlariga bo'linsa, ularning rasul guruhi asosan samoviy kitoblarda zikr etilganlari deb qaraladi. Bu holatlarning badiiy adabiyot, xususan, o'zbek mumtoz adabiyoti sahifalarida talqin etilishi ayni manbalarga uyg'un bo'lgan poetik manzaralar yaratadi. Bunda payg'ambarlik qissalaridagi muhim voqealik va hodisalar badiiy detal yoki bir ramziy-majoziy tasvir ifodalarini yuzaga

keltiradi.

Tavhid va nubuvvat masalasi tavsifi

Yuqorida qayd etilganidek, nubuvvat islom davriga kelib mukammal bir ta'limotga aylanadi. Qur'onda "Bugun sizga diningizni komil qilib berdik" ("al-yovna akmalu lakum dinakum"), "va islomni sizga din deb, rozi bo'ldim" (Moida, 3-oyat) – oyatlari keltiriladi. Bunda, avvalo tavhid va nubuvvat kamoli nazarda tutiladi. Islomiy qarashlarda tavhid asosiy o'rin egallaydi, ma'lum ma'noda islom bilan bir darajada tushuniladi. Yuqorida aytilganidek, Sharq adabiyoti mumtozligi ham tavhid-nubuvvat badiiy ifodasi bilandir. Sharq va G'arb adabiyotidagi o'ziga xosliklar haqida gap ketganda, birinchi navbatda, tavhid-nubuvvat Sharq adabiyoti olamshumulligi sifatida ham qaralishi lozim. Manbalarda "barcha payg'ambarlar yo'li – tavhid yo'li", "islom – barcha payg'ambarlar dini", "payg'ambarlar tavhid va imon darakchilari" ekanligi darj etiladi. Shunga ko'ra, nubuvvat dastavval tavhid xabari, din mukammalligi tavhid va nubuvvat takomilidir. Islomda tavhid Haq va haqiqatlar yagonaligini anglatadi. Bu jihatdan islom ma'lum ma'noda yahudiylilik bilan "ittifoqdosh" sanaladi. Chunki tarixda monoteizm (yakkaxudolik) ilk bor yahudiylilikda aks etgan edi. At-tavhid arabcha "vahhada" fe'lidan olingan bo'lib, "yagona deb bilmoq", "bir deb anglamoq" ma'nosini ifodalaydi. "Navoiy asarlari lug'ati"da: tavhid "1. So'fiylikda – bitta (yakka) deb bilish, yolg'izligiga ishonish, yagona deb hisoblash; 2. Tasavvuf ta'limotida – Haqiqatga yetishish, kishi ruhining iloh, ilohiy ruh bilan qo'shilib ketishi, xudoga yetishish, so'fiylikning beshinchi davri"dir deyiladi [Навоий асарлари луғати, 584]. U "Allohdan boshqa hech qanday iloh yo'q"ligi g'oyasiga asoslanadi. Shuni aytish kerakki, tavhidning ilohiyotchi olimlar tomonidan talqin etilishi Haq borlig'i: Zot va Sifat namoyoniga binoandir. Masalan, mutaziliylar tavhidda Zot va Sifat ayrolig'ini tanqid etadi, a'shariylar tavhidni Alloh zoti ajralmas birlikda deb qaraydi, xanbaliylar tavhidni Allohni yagona Yaratuvchi va rahnamo sifatida anglash, butun irodani unga topshirish, uning o'zigagina tayanishda deb biladi.

Tasavvufda tavhid insoniy irodaning ilohiyotga qo'shilishi, Haq haqiqatiga fano bo'lish (hulul ul-Haq), Haqdan boshqa borliq yo'qligi maqomiga erishish tushuniladi. Islom ta'limotining barcha jihatlarini tavhid asosida shakllanadi. Jahonga mashhur ilohiyotchi Ibn Arabiy tavhidning oxirgi bosqichi "tavhid al'-mushohada" e'tirofi asosida vahdat al-vujud ta'limotiga asos soladi. Tavhidga binoan, Alloh yagona yaratuvchi, tenggi va sherigi yo'q, abadiy mavjud,

borlig'i chegara bilmaydi, boqiy, ibtido va intihosiz. U yaratilgan vujud emas, hech qanday yaratilganlarga o'xshamaydi va biror yaralmish ham Unga o'xshamaydi, zamon va makonga bog'liq emas, osmondan yuqori va zamindan chuqur, yer va osmon – barchasi unga tegishli, hech kimga, hech nimaga qarashli emas, osmonga chiqish ham, yerga tushish ham Unga yaqinlashtirmaydi, ammo barcha narsa va hodisalarga juda yaqindir, insonga qon tomirlari qadardir ("Biz unga jon tomiridan ham yaqinroqmiz". "Qof" surasi), yaqinlikda jismoniy yaqinlikka, borlig'i vujudiy borliqqa o'xshamaydi, makondan yuqori, vaqtdan yiroq, yo'qlikdan oldingi borliq, nuqsonlardan xoli, o'lim daxl qilmaydi, O'zi yaratadi, kashf qiladi, barcha narsa-hodisalarni biladi, zamin va samoda biror chang ham Uning irodasidan tashqarida sodir bo'lmaydi, "yulduz va oysiz kechalarda qora toshda yuruvchi qora chumolini" va osmon ostida harakat qiluvchi har qanday hashorotni ko'rib turadi, **"... siz oshkora gapirsangiz ham (va yoki xufyona gapirsangiz ham U zotga barobardir). Zero, U sirni ham, eng maxfiy narsalarni ham bilur"** ("Toha" surasi). Olamda hech bir narsa: ko'rinadigani ham, ko'rinmaydigani ham Alloh irodasi, qaroridan tashqarida sodir bo'lmaydi, hech kim Uning iqrori va irodasini o'zgartira olmaydi, **"biluvchi, eshituvchi, ko'ruvchi"** ("Haj" surasi)dir. Injili Sharifda aytilganidek, **"...shon-shuhrat, izzat-ikrom, kuch-qudrat...ga loyiq... Butun borliqni yaratgan... Hamma narsa... irodasi ila vujudga keladi"** [Инжил 1996, 584]. Unga sokin bo'lsa ham eshitilmaydigan ovoz, yashirin bo'lsa-da ko'rinmaydigan narsa yo'q, eshitishi uchun masofa, ko'rishi uchun qorong'ulik to'siq bo'lmaydi.

Qur'on, Tavrot, Injil, Zabur – o'z elchilari orqali vahiy etgan kitoblari va Haqligi uchun dalolatdir, harakatida dono, qarorida adolatlidir. O'zidan boshqa aql va his bilan anglanadigan barchasi: inson, jin va farishtalar, yer va samo, jonzot, o'simlik va tog'-u toshlar – barchasi yo'qdan bor etgan mavjudliklaridir.

Tasavvuf adabiyotida tavhid alohida maqom sifatida qaraladi. Masalan, Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da *"Tavhid vodiysining ta'rifi"*ni keltiradi. Unda tavhid "Mantiq ut-tayr" kabi yetti vodiyni (talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, faqr-u fano) beshinchisi sanaladi. Shu o'rinda aytish lozimki, Sharq adabiyotida "qush tili-nutqi, munozarasi" turkumi an'anasiga ham nubuvvat ta'limoti asos bo'lgandek ko'rinadi. Chunki nubuvvat tarixida ko'pgina masalalar qissalar talqinida uchraydi. Misol uchun qalam, otning xonakilashtirilishi va boshqalar, xususan, "qush tili" masalasi ham ilk bora Sulaymon payg'ambar qissasida

keltiriladi. Unda turkumda bo'lgani singari Hudhud obrazi asosiy o'rin tutadi. "Qush tili" turkumida qushlarga Qof tog'ida yashovchi Simurg' haqida Hudhud xabar bergani kabi Sulaymon payg'ambar qissasida Sabo mamlakati malikasi Bilqis haqida xabarni Hudhud keltiradi. Shuningdek, "qush tili" ilmini Sulaymon bilishi darj etiladi. Sharq mumtoz adabiyotida "Sulaymon va Bilqis" mavzusida ishqiy asarlar ham yaratilgan edi. Shu bois tasavvuf adabiyoti ramziy ifoda qonuniyatiga ko'ra, "qush tili" turkumi badiiy majoz va ishoraviy talqin sifatida Sulaymon qissasiga tayanilgan, degan fikr uyg'otadi. Endi masalaga qaytilsa, Alisher Navoiy talqinicha, tavhid – vahdat sirridir, barchasini tafrid-tajridda, birlikda deb bilishdir:

*Vodiyi Tavhid ondin so'ngra bil,
Fard o'lub tajrid ondin so'ngra bil.
Chun bu vodiy sori sayring qo'ydi gom,
Fardu yaktolig' sanga bo'ldi maqom.
Chun bu vodiyy'a nihoyat topti sayr,
Munda bir bil yuz tuman ming bo'lsa tayr.
Borchag'a kom-u havo tafrit o'lur,
Borchag'a lahn-u navo tafrid o'lur.
Bu ravishlarg'a chu yetti ul kashish,
Borchag'a birlikda gum bo'lmoqdur ish.
Birda birdin hosil o'ldi bir adad,
Yo'q xiradqa munda dam urmoqqa had.
Chun sening ollingda tushti bo'yla pech,
Bilki ermish birdin o'zga barcha hyech.
Bir bo'lu, bir ko'r-u, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.
Ikkilik bu yo'lda ahvalliqdurur,
Sirri vahdatdin mu'attalliqdurur [Навоий 2012, 223].*

Tavhid ma'rifiy qarashlarda yuqori daraja kasb etganligi badiiy-estetik talqinlarda ham o'z ifodasini topadi. Unda tavhid Haq borlig'i, ilohiyot va bashar olami birligini anglatadi, nubuvvat esa undan keyin va uni anglatuvchi maqom sifatida e'tirof etiladi.

Nubuvvat tasavvuf ilmida "Allohdan yetgan tablig'", "Haqdan kelgan xabar", "malakdan kelgan ilohiy bilim" sifatida baholanadi. Imom G'azzoliy fikricha, "nubuvvat xos insonlar hollaridan bir hol bo'lib, shu hol ichida insonda ma'naviy bir ko'z ochiladi. Bu ko'zda bir nur bo'lib, u nur bilan g'aybni va aql idrok eta olmaydigan narsalarni ko'rishga erishiladi". Haqning nubuvvat etilgan haqiqatlari "kutubi osmoniy" inson ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun mas'ul ilohiy manbalardir, adabiyotlardagi "nubuvvat keldi", "risolat tushirildi"

iboralari qo'llanganda esa shu kitoblarning indirilish nazarda tutiladi. Shuni ta'kidlash kerak, manbalarda payg'ambarlarga nubuvvat kelishi hodisasining qirq olti turi qayd etiladi ("*Solih tush – nubuvvatning qirq olti juz'idan biridir*"). Din va payg'ambarlik ta'limoti nuzul qoidalarida nihoyatda jiddiy masala hisoblanadi. Kalom ilmida "vahiy holati" alohida sirli ilm sohasi sifatida qaraladi. U inson tafakkuri va ongidan xorijda bo'lgan ilohiy hodisa sanaladi. Aytish lozimki, imon yoki botil nubuvvat-vahiy masalalari e'tirofida namoyon bo'ladi. Shundan "vahiy asoslari" usuli din, payg'ambarlik ta'limoti, sunnat, shariat va boshqa masalalarning birinchi qatorida turadi. Manbalarga ko'ra, "vahiy" lug'aviy jihatdan "inmoq", "tushmoq" ma'nolarini bildiradi. Injilda: "...Xudo kishiga ko'rintiradigan g'ayritabiiy hodisalar yoki eshittiradigan kalomlar" sifatida sharhlanadi [Injil 1996, 2]. "Navoiy asarlari lug'ati"da "vahiy arabcha, payg'ambarlarga Jabroil farishta vositasi bilan Xudodan yuborilib turilgan xabar; vahy nozil bo'lmoq – vahy (Xudo so'zi) inmoq, tushmoq", – deb izohlanadi [Навоий асарлари луғати, 147].

Ayrim manbalarda Allohdan payg'ambarlarga yuborilgan har qanday narsani anglatadi. U lug'atlarda ishorat, kitobat, noma, xat, maktub, xabar, maxfiy kalom, maxfiy xabar, yashirin so'z, Xudodan xabar va ilhom, Xudoning payg'ambarlariga ilqo qilingan narsalari, Xudoyi Taolo tomonidan boshqa suratda anbiyolarga ilqo (tushiriladigan) qilinadigan so'z yoki yozuv kabi ma'nolarda izohlanadi va istilohiy ma'noda Xudoning shar'iy kalomi deb tushuntiriladi. Payg'ambarga vahiy nozil bo'lishi hodisasi "zohiriy vahiy" va "botiniy vahiy"ga ajratiladi.

Manbalarda zohiriy vahiyning uch xil turi darj etiladi. *Birinchisi*, zikr qilingani bo'lsa, *ikkinchisi*, farishta vositasida bo'lib, bunda payg'ambar faqat eshitadi, ya'ni farishta ko'rinmasdan payg'ambar qalbiga xabarni yetkazadi. Qur'oni Karim ham faqat farishta tilidan eshutiladi, o'rtada boshqa bir muloqot bo'lmaydi. Shunday paytlarda Muhammad alayhissalom "Ruhul-quds mening qalbimga soldiki", – deb gap boshlaganligi aytiladi. *Uchinchisi*, ilhom – bu barcha qismlarga mutlaq dalil bo'luvchi va avliyolarning ilhomidan farqli holatdir. Endi botiniy vahiyga kelsak, u ra'y va ijtihoda asosida hosil bo'ladi. Demak, payg'ambarlarga tushiriladigan hodisa – "vahiy", payg'ambar bo'lmagan odam bilan farishta so'zlashishi – "kashf", g'aybiy masdardan tushgan ilm – "ilhom" deb yuritiladi. Bunda vahiy – anbiyolar, kashf – avliyolar, ilhom – insonlar ulushi deb qaraladi. Payg'ambarlar orqali ilohiy so'zlar, valiylar vositasida hikmatlar hosil bo'ladi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "inson

qalbida: 1. Shayton vasvasasi 2. Nafs g'ulg'ulasi 3. Farishta xotiraga soladigan narsalar 4. Rabboniy ilhom paydo bo'lishini" maxsus tahlillarda qayd etadi [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф 2011, 145]. Demak, vahiy Alloh yuboradigan xabarni vositali yoki vositasiz ravishda elchilarga yetkazilishi tushuniladi. Bunda vahiy-xabar payg'ambarlarga Jabroil farishta orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri yetkaziladi va o'z navbatida payg'ambar tomonidan xalqqa uzatiladi. Bu xalqa qat'iy ishonch va imon orqali yuz beradi. Shu mas'uliyatga qodir shaxs payg'ambar sifatida tanlanadi. Qur'oni Karim Sho'ro surasida: **"Biron odam uchun Olloh unga so'zlashi joiz emas, magar vahiy-ilhom orqali, yo biror parda to'siq ortidan yoki biron elchi-farishta yuborib, o'sha (farishta Ollohning) izni-ixtiyori bilan o'zi xohlagan narsani vahiy qilishi orqali (so'zlar). Albatta, u yuksak va hikmat egasidir"**, – deyiladi [Куръони Карим 1992, 361]. Bu tasdiqqa ko'ra, "nubuvvat-xabar": birinchidan, "vahiy-ilhom", ikkinchidan, "parda ortidan", uchinchidan, "elchi-farishta" orqali indirilishi ta'kidlanmoqda. Ko'rinadiki, islom ilohiyotida nubuvvat-vahiy inson qalbi va ruhiga yo'l olgan fikr, ya'ni "ilhom" ma'nosida keladi. U ikkinchi bir holatda, ya'ni "tush" shaklida ham namoyon bo'ladi. Tush "ru'yo" so'zidan olingan bo'lib, uyquda ko'riladigan narsa-hodisalarga aytiladi.

Ayrim lug'atlarda "ru'yo – tush ko'rmoq, ko'rilgan tush, tushda ko'rilgan narsalar, payg'ambarimizga tushirilgan vahiy shakllaridan biri, ya'ni o'ngidan keladigan tushlar", - ma'nolarida izohlanadi [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф 2011, 280]. Ayrimlar uni "solih tush" va "mahzun tush" sifatida ikkiga bo'ladi. Bunda mahzun tush – shaytoniy, solih tush esa rahmoniy, ya'ni "nubuvvatning qirq olti juz'idan biri" deb ta'riflanadi. Masalan, shunday bir solih tush Ibrohim alayhissalom hayotida yuz beradi. Bu haqda Qur'oni Karim Va-saffot surasida shunday oyatlar nozil etiladi: **"Bas, biz unga bir halim o'g'ilning xushxabarini berdik. Endi qachonki u (bola Ibrohim) bilan birga yuradigan bo'lg'ach, (Ibrohim): "Ey o'g'ilcham, men (ha, deb) tushimda seni (qurbonlik uchun) so'yayotganimni ko'rmoqdaman. Endi sen o'zing nima ra'y – fikr qilishingni bir o'ylab ko'rgin"**, degan edi. U aytdi: **"Ey otajon, senga (tushingda Parvardigor tomonidan) buyurilgan ishni qilgin. Inshoolloh meni sabr qilguvchilardan topursan"**. Bas, qachonki ikkisi ham (Ollohning vahiysiga) bo'yinsunib, (Endi Ibrohim o'z o'g'li Ismoilni qurbon qilish uchun) peshonasi bilan (yerga) yotqizgan ediki. Biz unga nido qildik: **"Ey Ibrohim, darhaqiqat sen (ko'rgan) tushingni rost**

– bajo qilding”. Albatta, biz chiroyli amal qiluvchilarni mana shunday mukofotlarmiz. Albatta, bu (ya’ni, Ibrohimning o’z o’g’lini qurbon qilishga buyurishi) ochiq-ravshan imtihondir, xolos. Biz (Ismoilning) o’rniga (Ibrohimga) katta bir (qo’chqor) so’yishni – qurbonliqni evaz qilib berdik (ya’ni katta bir qo’chqorni jannatdan tushirdik)” [Қуръони Карим 1992, 329]. Xullas, tush hodisasi boshqa payg’ambarlar, jumladan, Muhammad payg’ambar hayotida ham bir necha bor bo’lib o’tadi. Shu bois “payg’ambar tushi – vahiy” (ru’yo al-anbiyo – vahy) deyiladi. Shu boisdan badiiy talqinlarda nabiyalar timsollari tavsifida tush epizodiga alohida e’tibor qaratiladi. Hadislarda tush “nubuvvatdan keyin ilohiy olamda qoladigan sirli hodisa” ekanligi qayd etiladi, badiiy asarlarda ham muhim poetik vazifa bajaradi. Bunda tush ramziy ifoda bo’lib, uning muqarrar amalga oshishi xarakter tabiatidagi ilohiy bir holni anglatadi. Bu holatlar mumtoz va tasavvuf adabiyoti, she’riyatida turfa ramziy-majoziy ifodalar bilan g’oyat jozibador ravishda talqin etiladi.

Manbalarda nubuvvatning “tush”dan tashqari, “parda ortidan” kelishi hodisasi ham e’tirof etilib, u payg’ambarning Alloh ovozi eshitishi tarzida ro’y beradi. Bu payg’ambarlik tarixida kam uchraydi. Unga Muso alayhissalomning Tur tog’ida Alloh bilan suhbat (“Endi qachonki uning oldiga yetib kelgach, u muborak joydagi vodiyning o’ng tarafidan – daraxtdan unga nido qilindi: **“Ey Muso, albatta, Men barcha olamlar Parvardigori Ollohdirman”** – “Qasas” surasi) va Muhammad Mustafo payg’ambarning me’roj voqeasi (**“Unga (bu vahiyni) bir kuchga to’lgan Sohibi qudrat (ya’ni Jabroil alayhissalom)” ta’lim bermishdir. Bas u (avval) yuksak ufqda (ko’rinib), tik turdi. So’ngra yaqinlashib, pastladi. Bas, (Muhammad alayhissalomga) ikki kamon oralig’ida yo (undan-da) yaqinroq bo’lib**” – “Va-n-najm” surasi) yorqin isbotdir.

Sharq mumtoz adabiyotida Muso Kalimullohning Alloh bilan suhbat va Muhammad Mustafo alayhissalom me’roji epik-lirik talqinlari ko’p bora keltiriladi. Tasavvuf adabiyotida suhbat – tajalli va diydor, me’roj – vasl va qurb ifodasi sifatida talqin etiladi. O’zbek mumtoz adabiyotida me’roj talqini alohida mavzu hisoblanadi. Bu mavzu nubuvvat ma’rifati talqini bilan bog’lanadi va umuman mumtoz adabiyot poetik olami uchun nihoyatda teran poetik ifodadir. Unda payg’ambar alayhissalom tarixi bilan bog’liq tun kechasida amalga oshirilgan sayohat tavsif etiladi. Me’roj kechasi haqida Qur’oni Karimda nozil etilgan oyatlar mavzuning ilk manbasi sanaladi. Bu hodisa keyinroq badiiy ijodda keng sharhlanadi (tafsir)

va talqin (ta'vil) etiladi. Tafsirda me'roj voqeasi chuqur bayon etilgan bo'lsa, ta'vil tufayli bu hodisa chuqur irfoniyl talqin ifodasiga aylanadi. Ayrim qarashlarda me'roj mo'jiza sifatida qayd etilsa, ba'zilar "talab" deb baho beradilar. Agar Qur'onda payg'ambarlik mo'jizalari e'tirofi asnosida Muhammad payg'ambar (s.a.v) bilan bog'liq mo'jizalar qayd etilmaganligi hisobga olinsa, mo'jiza tushunchasini keng ma'noda anglash lozim bo'ladi. U ojiz qoldiruvchi, aql bovar qilmas hodisa bo'lish bilan birga, Haqqa yaqinlik maqomini ham bildiradi.

Sharq adabiyoti singari turkiy tasavvuf va o'zbek mumtoz adabiyotida me'roj tavsifi hamda talqini turli janriy shakllarda o'z ifodasini topadi, xilma-xil yo'nalishlardagi "noma" (shohnoma, ishqnoma, pandnoma, qushnoma...) an'analari singari me'roj mavzusi ham o'ziga xos "noma" darajasiga ko'tariladi. Jumladan, Ahmad Yassaviyning "Hikoyati me'roj" asari 24 banddan iborat, Rabg'uziy "An-nabiy sallallohu alayhi va sallamning me'roji" epik qissa janrida yaratilgan. Navoiy "Hayrat ul-abror" dostoni beshinchi na'tida 53 bayt "Me'roj kechasi ta'rifi...", "Farhod va Shirin"da "Ul shohsuvor vasfi..." deb boshlanadigan 69 bayt me'roj tavsifi, "Layli va Majnun"da 92 bayt "Ul musofiri bavodipaymo, balki ul rokibi samovotpaymo me'roji kechasining ta'rifi", "Sab'ai sayyor"da me'roj tavsifi 43 bayt, "Saddi Iskandariy"da "Ul humoyi balandparvoz tayronining sur'ati ta'rifidakim, me'roj shabistoni..." 121 bayt va "Lison ut-tayr" dostonida "Ul risolat Qofi Anqosining balandparvozlig'i va mahbubi haqiqiy vaslig'a yetib..." kabi me'rojlarni aytish mumkin. Alisher Navoiy dostonlari ichida katta hajmlisi "Saddi Iskandariy" bo'lgani kabi me'rojlarda ham ko'lamdori shu dostondagi me'rojdir. Bundan tashqari butun mumtoz she'riyatda bu hodisa ifodasiga ishora etish, me'roj motivi orqali jozibali badiiy-estetik manzaralar yaratish an'anasi mavzuning nihoyatda keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. Bu mavzu epik tavsifi, xususan, "Qisas ul-anbiyo"larda ifodalanishi ko'proq tafsirlarga asoslangandek fikr uyg'otadi. Misol uchun, Rabg'uziy tavsifida ham payg'ambar me'roji xuddi tafsirlarda bo'lgani singari butun tafsiloti bilan aks ettiriladi. Unda Rasulullohning tunda Makkadan Bayt ul-Muqaddasga olib borilishi, ko'ksini yorib yuragini iymon va hikmat bilan to'ldirilishi, Buroqda Jabroil bilan samoga ko'tarilishi, yetti qavat osmonga chiqarilishi, me'roj hikmati, yetti samoda o'tmish payg'ambarlari bilan uchrashishi, "maqomi mamduh"ga erishishi, me'roj sababiyu maqsadi, hol va ta'riflari, tun qadri va qimmat, Muhammad alayhissalomga bu tunda yetti qavat osmon va yer, jannat, do'zax, dunyo, kavnayn olami ko'rsatilganligi badiiy tasvirlar batafsil ta'rif

va tavsif etiladi. Adabiy sohalar rivoji tufayli me'roj mavzusi ham o'ziga xos adabiy-ma'rifiy hodisaga aylanadi, badiiy ijod olamida lirik-epik talqinlar uchun ilhom va ruh bag'ishlovchi mavzu bo'lib qoldi. Me'roj mavzusi mumtoz adabiyotimizda majozan ham talqin etiladi. Unga binoan payg'ambar alayhissalomning Haq borlig'iga erishuvi oshiqning ma'shuqa vaslini qozonishi deb talqin etiladi. Alisher Navoiy uni "qoyim maqom" deb ta'riflaydi. Masalan, "Sab'ai sayyor" dostonida me'roj "oshiq ma'shuq bilan visol topgani, orada faqat Xoliq qolib, mahluq yo'qolgani, yor mavjud-u ag'yor yo'qligi, yordan boshqasi qolmaganligi" qayd etiladi // *Toptilar vasl oshiq-u ma'shuq, Borcha Xoliq, aroda yo'q maxluq. Yor mavjud-u anda yo'q ag'yor, Yordin o'zga, balki yo'q dayyor*// Shu o'rinda aytish kerakki, Sharq mumtoz adabiyotida ishq mavzusi talqinlarida oshiq va ma'shuqani ifoda etuvchi an'anaviy majoziy timsollar guruhi keltiriladi. Ularni lirikada "gul va bulbul", "sham va parvona", "temir bo'lagi va olov", "xum va dengiz" singari ramziy timsollar ifodalasa, epik talqinlarini "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro", "Yusuf va Zulayho" kabilar tashkil qiladi. Bu lirik-epik syujetlarda majoziy ma'noda mahbuba dardida o'rtanish, toblanish, intilish, hajr kabi motivlar yuksak ruhda tasvirlanadi va ular vasl yo'lida turli ramziy-badiiy ifodalar sanaladi.

Gap shundaki, tasavvuf va mumtoz adabiyot olamida vasl ifodasini me'roj talqini singari anglatadigan boshqa biror tamsil uchramaydi. Shuning uchun Alisher Navoiy "me'roj"larida "oshiq talabi visol", "do'st vaslini qozonish", "o'zlikdan o'zni chiqarish" masalalariga e'tibor qaratiladi. Shunga ko'ra, nubuvvat maqomi tasavvuf va mumtoz adabiyotda vasl, diydor, vahdat haqiqatlari talqini uchun asos sanaladi. Ibrohim Haqqulov fikricha, "tasavvuf, ma'lum bir ma'noda, nubuvvat ta'limoti va ma'rifatiga sodiqlik" [Xaqqul 2007, 34]. Kezi kelganda qayd etish lozimki, mumtoz yoki tasavvuf adabiyotida nubuvvat haqiqati ifodalari haqida gap ketganda "nubuvvat ta'limoti va ma'rifatini" yaxlit bir maqom sifatida anglash talab etiladi. Chunonchi, badiiy ifodalarda, xususan, Alisher Navoiyda ham nubuvvat "silsila", "xalqa", "doira", "gulshan", "bo'ston", "xayl", "sipehr", "bahr" tarzida tavsiflanadi va masalaning barcha jihatlari qamrab olinadi. Bu holatlar tavsifi mumtoz adabiyotimizda ruh va ko'ngil bedorligi o'ziga xos mafkura darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. Bu o'zbek mumtoz adabiyotida, birinchidan, Muhammad payg'ambar ma'rifat va oriflik timsoli bo'lib kelishi, ikkinchidan, me'roj talqinlaridagi bedorlik ifodalarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bunga misol sifatida payg'ambarlik

davrlarida ommaviy ofatlar sodir bo'lishi va sabablari haqidagi qissalarni keltirish mumkin.

Manbalarga ko'ra, "osmoniy kitoblar" indirilgach, ommaviy ofatlar to'xtatiladi. Bu "Qisas ar-Rabg'uziy" Muso qissasida zikr etiladi. Biroq bashariy ofat sifatida jaholat davom etadi. Mumtoz adabiyotda Muhammad payg'ambar siymosi mana shu johillik aksi o'laroq ma'rifat timsoli sifatida talqin etiladi, Muhammad alayhissalom diniy va dunyoviy amallar kamoli deb qaraladi. Bu insondan dunyo hayotida doimo bedor ko'ngil va ma'rifat egasi bo'lishni talab etadi. U tasavvuf adabiyotida "basirat" deb yuritiladi. Misol uchun, Navoiy "Layli va Majnun" dostonida payg'ambar basiriy sifatlari haqida shunday misralar bitadiki, bu motiv muttasil ruhoniylar uchun uyg'oqlik va ma'naviy bedorlikka chorlaydi.

*Dahr sho'r-u sharridin osuda,
Ko'ngli uyg'og'-u ko'zi uyquda.*

Manbalarda ta'kidlanishicha, nubuvvatning yana biri "elchi-farishta" vahiysida namoyon bo'ladi. Bunda Alloh bilan payg'ambar aloqasi farishta orqali yuz beradi. Bu nubuvvat sirrida payg'ambarlar Jabroil alayhissalom ovozini eshitadi, ba'zan o'zini ko'radi. Nubuvvatning "elchi-farishta" orqali sodir bo'lishi islom nubuvvat ta'limotining o'ziga xos komilligini ham bildiradi. Qur'onda Jabroil alayhissalom Ruh-ul quds (Muqaddas Ruh), Ruh-ul Amin (Ishonchli Ruh), Ruhul-Illoh (Alloh ruhi) kabi nomlarda keltiriladi. Rahmatulloh qori Obidov "Payg'ambarlarga faqat ilohiy vahiy kelsa "nabiy", ilohiy vahiy bilan birga alohida shariat yuborilgan bo'lsa "rasul" deyiladi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga qirq yoshlarida nabiyluk, keyinroq esa rasullik keldi", – deydi [Обидов 2005, 142]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, tasavvuf adabiyotida vahiy nazariga yaqin tarzda "ibn-ul vaqt" tushunchasi ishlatiladi. Alisher Navoiy bu holatni: "*Fano ahlini o'z vaqtining podshohi debtur, balki vaqt podshohini aning gadoyi*", - ya'ni, fano ahli o'z vaqtining podshohi yoki vaqt podshohi ahli fanoning gadoyi, – deb ta'riflaydi. Bu maqom sukr holi, ya'ni lahzada yuz beradigan ruhiy jarayon sanaladi. Bunda solik o'zida Haqdan kelgan ilohiy fayz va zavqni his etish holiga ega bo'ladi. U tasavvuf va mumtoz she'riyatda "la'li lab" obrazida ham ifoda etiladi. Bu ilohiy ilhom payg'ambarga vahiy kelgan damga o'xshatiladi. Ba'zan solik tabiatida yuz beradigan bunday farahli onlar "Anal-Haq"qa o'xshash fikrlarni ham keltirib chiqargan. Bu daqiqa solikning zavq-ishtiyoq holati deb baholanadi va tasavvufda komronlik sifatida anglanadi. Bu lahzada sodir bo'ladigan tuyg'uga teng vaqt – abadiyluk, manguilik deb tushuniladi.

Mumtoz va tasavvuf adabiyotida doimiy an'ana sifatida tasvirlanadigan soqiy, may, jom timsollari ham bir xususiyatiga ko'ra nubuvvat haqiqatlarining badiiy-ramziy ifodasidek fikr uyg'otadi. Bunda timsollar Haq ilohiy ma'rifati nabiy qalbida namoyon bo'lishi, ya'ni nubuvvat haqiqati uchun ham o'ziga xos bir majoz ifodasini yuzaga chiqaradi. Shuni aytish kerakki, islomiy manbalarda Muhammad alayhissalomga Jabroil farishtaning uch xil tarzda namoyon bo'lganligi aytiladi. Birinchidan, bu hol o'ziga xos ovoz shaklida bo'lib, xuddi qo'ng'iroq jarangidek yoqimli bir sas eshitiladi. Dastlabki onlarda Muhammad Rasululloh ham gap nima haqida ekanligiga tushunmaydilar, vaqtiki, "vahiy-xabar" ekanligini fahmlaydilar. Bu ovoz Jabroil alayhissalomning qanot qoqishidan ekanligi bilinadi. Ba'zi ulamolar Qur'on oyatlariga tayanib, bu ovozni asal arining hosil yig'ishiga qiyoslashadi. Chunonchi, Nahl surasida: **"(Ey Muhammad), Parvardigoringiz asalariga vahiy - amr qildi: "Tog'larga, daraxtlarga va (odamlar) quradigan inlarga uya solgin. So'ngra turli mevalardan yeb, Parvardigoring (sen uchun) oson-qulay qilib qo'ygan yo'llardan yurgin!" Uning qornidan odamlar uchun shifo bo'lgan alvon rangli ichimlik-asal chiqur. Albatta, bu ishda tafakkur qiladigan qavm uchun oyat-ibrat bordir",** – deyiladi. Ko'rinadiki, asalari faoliyati "amri vahiy" tufaylidir. Bu holat vahiy taqqosi uchun nihoyatda jozibador va mantiqli qiyosdir. Bunda asalarining eng chiroyli gullardan eng totli va foydali mahsulotlarni keltirishiga ko'ra, "vahiy holati" asalari xizmatiga taqqoslanadi. Ikkinchidan, Jabroil farishta Muhammad payg'ambarga odam suratida namoyon bo'ladi. Bunda Jabroil Rasulullohga favqulodda go'zal sahobalardan biri shaklida ko'rinadi. Uchinchidan, Jabroil farishta o'z qiyofasida namoyon bo'ladi. Muhammad alayhissalomga Jabroil farishtaning odam suratida ko'rinishi ikki marotaba, birinchisi zaminda (Makka) va ikkinchisi samoda (Me'roj) kuzatiladi.

Yuqoridagilardan aytish mumkinki, ilohiy vahiy yetti xil: 1. Tush ko'rish shaklida; 2. Qalbg'a quyilish tarzida; 3. Qo'ng'iroq jarangidek ovozda; 4. Farishtaning inson suratiga kirgan shaklida; 5. Jabroilning o'z samoviy qiyofasida; 6. parda ortidan gapirish; 7. So'zlashish (ba'zan tushda) tarzida namoyon bo'ladi. Bu aloqalar ta'rifi ulamolar tomonidan turlicha talqin etiladi. Islom ilohiyotchilari Qur'oni Karim Muhammad alayhissalomga Jabroil farishta orqali nozil qilinganligini aytadilar. Shu bilan birga "Tavrot" – Musoga, "Zabur" – Dovudga, "Injil" – Iso alayhissalomga Jabroil orqali yuborilganligi Qur'oni Karim oyatlarida tasdiqlanadi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni na’tida “Kutubi osmoni”larda Rasululloh nomi zikr etilganligi, Haq Musoga “Tavrot”ni bayon etgani, Dovudga “Zabur”ni, Isoga “Injil”ni nozil etgani, Muhammadga har bir so’zi mo’jiza bo’lgan “Kalom” yuborganligi qayd etiladi. “Tavrot”da Muhammad haqida qisqa fikr bayon etilgani, “Zabur”da Mustafoga mo’jizalari qayd etilgani, “Injil”da sifatlariga ta’rif berilgani – xullas “kutubi osmoniy”larda Muhammad Rasululloh to’g’risida xabarlar keltirilganligi ta’kidlanadi:

*Chu Musog’a “**Tavrot**” etib Haq bayon,
Sanga ul bayon ichra mu’jiz ayon.
Bo’lub chunki Dovud qismi “**Zabur**”,
Sening mu’jizing anda aylab zuhur.
Chu Isog’a “**Injil**” nozil bo’lub,
Haq anda sifotingg’a qoyil bo’lub.
Kalomeki sendin topib intizom,
Aning lafz bar lafzi mu’jiz nizom.
Nechakim **kutubi osmoni** kelib,
Borisinda sendin nishone kelib [Навоий 2012, 19].*

Shu bilan birga barcha kitoblar manbayi va yaratilgan taqdiri bitilgan “al-Lavh al-Mahfuz” ham e’tirof etiladi. Ayrim manbalarda o’tmish payg’ambarlariga ilohiy kitoblar bir damda va faqat Muhammad alayhissalomga qariyb chorak asr davomida nozil etilgan deyiladi. Bu nubuvvat islom davriga kelib barcha masalalarda komil darajaga erishganligini bildiradi. Qur’on va boshqa muqaddas kitoblar ham “Laylat-ul qadr” (qadr kechasi, musulmon oy kalendarining to’qqizinchi oyi, ramazon oyi yigirma yettinchi kechasi) kunida tushirilganligi zikr etiladi. Shuning uchun bu oy va kecha muqaddas hamda qadr hisoblanadi. Qadr kechasi mumtoz asarlarda doimiy ravishda olqishlanadi. Jumladan, Rabg’uziy me’roj kechasini “bu tun – shu tun” deb sharaflaydi. Qur’onning Qadr surasida: **“Albatta, Biz u(Qur’on)ni qadr kechasida nozil qildik. (Ey Muhammad), qadr kechasi nima ekanligini siz qayerdan bilar edingiz. Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir. Un (kecha)da Farishtalar va Ruh (Jabroil alayhissalom) Parvardigorlarining izni-ixtiyorida (yil davomida qilinadigan) barcha ishlar bilan (osmondan zaminga) tushurlar. U (kecha) to tong otgunicha tinchlik – omonlikdir”,** – deyiladi [Куръони Карим 1992, 515].

Sohaviy lug’atlarga ko’ra, ramazon – arabcha “rumuz” so’zidan olingan bo’lib, “yomg’ir” ma’nosini bildiradi. Shu bois islom olamida ramazon oyi ramziy ma’noda “qalb va ruh yuviladigan oy” sifatida qadrlanadi. Qur’onda nubuvvat (profetologiya) masalasini

maxsus tadqiq etgan olim A.R.Gaynutdinova: “Qur’onda “rasul” termini “nabiy” terminiga qaraganda ko’p bora ishlatiladi. Qur’on matnida “rasul” birlik va ko’plik sonda 331 marta, “nabiy” esa 87 marta qo’llanadi. Nabiy Bibliya va Qur’on uchun umumiy termindir. Bundan ko’rinadiki, Qur’oni Karimda nabiylerden ko’ra, rasullar tarixiga e’tibor ko’proq qaratiladi”, – deydi [Гайнутдинова 2008, 24]. Demak, Qur’oni Karimda zikri kelgan payg’ambar siymolar rasullar qissasi va hissasiga to’g’ri keladi.

Adabiyotshunos Sayfiddin Rafiddinov nubuvvatning ikki asosiy tamalini qayd etadi: “Birinchisi, ularga Olooh tarafidan laduniy ilm, saviya, farosat beriladi. Odatda, payg’ambarlar madrasada o’qib, mehnat qilib, tajriba orttirmaydilar, ikkinchisi, insonlarga payg’ambarlik vazifasini yetkazish quvvati va qobiliyatiga ega bo’ladilar, har kim ham bunday og’ir va mas’uliyatli vazifani bajara olmaydi” [Рафиддинов 2019, 45].

Manbalarda payg’ambarda shart bo’ladigan xislatlar: shaxsiy erkinlik (tobe emaslik), aql va idrok, jismoniy kamchiliklardan (ko’r, kar singari) xolilik, gunohdan yiroqlik kabi ellikka yaqin ratsional (hayotiy) sifatlar qayd etiladi. Ular nabiylik tavsiflari ham sanaladi. Bu sifatlar ulug’ ijodkorlar asarlarida, xususan, Alisher Navoiy dostonlarida nihoyatda jozibador ta’rif etiladi. Shu tariqa payg’ambar siymolarga xos bashariy-ilohiy xislatlar muqaddas kitoblar, xususan, Qur’oni Karimda batafsil qayd etiladi. Bular Sharq, jumladan, o’zbek mumtoz adabiyoti g’oyaviy-badiiy olamida ilohiy aqida sifatida chuqur samimiyat, iymon bilan qabul qilinadi va payg’ambar siymolar komil inson sifatida tavsif etiladi.

Xulosa

Ko’rinadiki, nubuvvat haqiqati ilohiy kitoblar va ayniqsa, Qur’oni Karimda g’oyat teran ifoda etiladi. Boshqacha aytilganda, nubuvvatning namoyon bo’lish asoslari muqaddas Qur’on bilan isbot etiladi va bu haqiqatlar dunyo tamadduni tarixida nihoyat katta o’rin tutadi. Ma’lum bo’ladiki, nubuvvat dinni va aksincha, din nubuvvatni vujudga keltiradi. Islom madaniyati nubuvvat ma’rifati bilan chambarchas bog’liq bo’lib, uni anglash badiiy adabiyotda nubuvvat haqiqatlari va obrazlari talqini masalalarini xolis idrok etish bilan birga mumtoz badiiy ijod mohiyatini chuqur tushunishda nihoyat darajada muhimdir. O’zbek mumtoz adabiyotida nubuvvat ma’rifati talqini islom ta’limotining umuminsoniy qarashlari badiiy ifodasi sifatida ko’rinadi. Sharq, xususan, o’zbek adabiyoti mumtozligi nubuvvat haqiqatlari badiiy talqinlarida namoyon bo’ladi.

Nubuvvat ma'rifati ifodasi badiiy ijodda ezgu tuyg'ular ifodasi, qalb tarbiyasi va ruh harorati bo'lib xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytilganda, nubuvvat – ruhoniy va bashariy poklik, insoniy halollik, ma'naviy va axloqiy go'zallik ifodasi hisoblanadi. Uning o'zbek mumtoz adabiyotida mavzu va motiv, timsol va obraz sifatida tavsif etilishi natijasida o'ziga xos badiiy-estetik olam yuzaga keladi. Xullas, mumtoz adabiyotda tavhid va nubuvvat masalalari janriy shakllar ifodasi, ramziy-majoziy tasvirlar ko'lami va badiiy-estetik jozibadorligi bilan ruh kamoloti va nafs tarbiyasi uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 2012. *Тўла асарлар тўплами. Лайли ва Мажнун. Сабъаи сайёр. 7-жилд. Ўн жилдлик. Тошкент.*
- Алишер Навоий. 2012. *Тўла асарлар тўплами. Лисон ут-тайр. Ўн жилдлик. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.*
- Алишер Навоий. 2012. *Тўла асарлар тўплами. Хазойин ул-маоний. Ўн жилдлик. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.*
- Алишер Навоий. 2012. *Тўла асарлар тўплами. Хамса. Садди Искандарий. Ўн жилдлик. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.*
- Бертельс Е.Э. 1965. *Суфизм и суфийская литература.* Москва: Наука.
- Гайнутдинова Аделя Равилевна. 2008. *Профетология Корана: истории пророков как элемент построения коранического текста.* Авт. кан. дисс. по филол. наук. Москва.
- Javhar Shulul. 2010. *Nubuvvat falsafasi.* Istanbul.
- Муҳаммад Ғиёсиддин. 1948. *Ғиёс ул-луғот (икки жилдлик).* Иккинчи жилд. Техрон: Қонуни маърифат.
- Injil, Tavrotdan "Ibtido" va Zabur.* 1996. Tarjimonlar: Abaev I., Gulkarov Y. Turkiya: Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti.
- Ислом. Энциклопедия.* А-Х. 2017. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Тошкент: Давлат илмий нашриёти.
- Навоий асарлари луғати.* Тошкент.
- Носириддин Бурҳониддин Рабғузӣй. 1990. *Қисаси Рабғузӣй.* 1-китоб. Тошкент: Ёзувчи.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2011. *Тасаввуф ҳақида тасаввур.* Тошкент: Шарқ.
- Шоев З.Дж. 2011. *Учение монотеистических религий о пророчестве и его развитие в исламе.* Авт. канд. дисс. по философ. наук. Душанбе.
- Рахматуллоҳ қори Обидов. 2005. *Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир.* Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Рафиддинов С. 2019. "Навоий ижодида нубувват талқини". *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 45.
- Фарҳанги истилоҳот ва ибороти ирфоний.* 2004. Доктор Саййид

- Жаъфар Сажжодий. Техрон: Тахурий.
Қуръоншунослик. 2011. Ўқув қўлланма. Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси.
Қуръони Карим. 1992. Таржима ва изоҳлар: Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон.
Ҳаққулов И. 2000. *Тасаввуф сабоқлари*. Бухоро: Бухоро.
Ҳаққул, Иброҳим. 2007. *Тақдир ва тафаккур*: Эсселар ва адабий-танқидий мақолалар. Тошкент: Шарқ.
Ходизода Р. 2000. *Ҳафт гуфтор дар барои Қуръон*. Душанбе.

On the Study of the Problem of Tawhid, Prophecy and Artistic Description

Usmon Kobilov¹

Abstract

This scientific article is devoted to the study of the problem of prophecy and artistic creativity, which are important and topical issues of Uzbek classical literature. It contains reflections on the teaching of prophecy (prophetology), which has an important place in the ideological and artistic world of Eastern Islam, in particular, Turkish-Uzbek mysticism and classical literature. The article explains the lexical-terminological and educational meanings of this concept, and evaluates the traditions of expression in artistic processes from theoretical aspects. At the same time, the issues of monotheism, prophecy and artistic creation are clarified, and a number of cases of the manifestation of prophecy are researched based on the sources. It is clear from the observations that prophecy is a universal phenomenon that has a great impact not only on the formation and development of Sufism, but also on the development of Sufism and classical literature. Without understanding it and the truths related to it, it is impossible to have a deep understanding of classical Eastern literature and philosophy. Taking this into account, the article discusses the issue of prophecy and its position in the poetic world of classical literature.

Key words: *Eastern classical literature, the issue of monotheism and prophecy, prophecy and artistic creation, Islamic sources, tradition and new interpretation.*

¹ Usmon U. Kobilov – Doctor of Philological Sciences, Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

E-mail: usmonqobilov82@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7940-8823

For citation: Kobilov, U.U. 2023. “On the Study of the Problem of Tawhid, Prophecy and Artistic Description”. *Golden scripts* 4: 61 – 81.

References

- Alisher Navoiy. 2012. *To'la asarlar to'plami. Layli va Majnun. Sab'ai sayyor*. 7-jild. O'n jildlik. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 2012. *To'la asarlar to'plami. Lison ut-tayr*. O'n jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Alisher Navoiy. 2012. *To'la asarlar to'plami. Xazoyin ul-maoniy*. O'n jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Alisher Navoiy. 2012. *To'la asarlar to'plami. Xamsa. Saddi Iskandariy*. O'n jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Bertels Ye.E. 1965. *Sufizm i sufiyskaya literatura*. Moskva: Nauka.
- Gaynutdinova Adelya Ravilevna. 2008. *Profetologiya Korana: istorii prorokov kak element postroeniya koranicheskogo teksta*. Avt. kand. diss. po filol. nauk. Moskva.
- Javhar Shulul. 2010. *Nubuvvat falsafasi*. Istanbul.
- Muhammad G'iyosiddin. 1948. *G'iyos ul-lug'ot (ikki jildlik)*. Ikkinchi jild. Tehron: Qonuni ma'rifat.
- Injil, Tavrotdan "Ibtido" va Zabur*. 1996. Tarjimonlar: Abaev I., Gulkarov Yu. Turkiya: Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti.
- Islom. Ensiklopediya*. A-H. 2017. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti.
- Navoiy asarlari lug'ati*. Toshkent.
- Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziy*. 1990. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. Toshkent: Yozuvchi.
- Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 2011. *Tasavvuf haqida tasavvur*. Toshkent: Sharq.
- Shoev, Z.Dj. 2011. *Uchenie monoteisticheskix religiy o prorochestve i yego razvitie v islame*. Avt. kand. diss. po filosof. nauk. Dushanbe.
- Raxmatulloh qori Obidov. 2005. *Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir*. Toshkent: Movarounnahr.
- Rafiddinov S. 2019. "Navoiy ijodida nubuvvat talqini". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 45.
- Farhangi istilohot va iboroti irfoniy*. 2004. Doktor Sayyid Ja'far Sajjodiy. Tehron: Tahuriy.
- Qur'onshunoslik*. 2011. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi.
- Qur'oni Karim*. 1992. Tarjima va izohlar: Alouddin Mansur. Toshkent: Cho'lpon.
- Haqqulov I. 2000. *Tasavvufsaboqlari*. Buxoro: Buxoro.
- Haqqul, Ibrohim. 2007. *Taqdir va tafakkur: Esselar va adabiy-tanqidiy maqolalar*. Toshkent: Sharq.
- Xodizoda R. 2000. *Haft guftor dar baroi Qur'on*. Dushanbe.

Muqimiy va Muhyi “Sayohatnoma”larida an’ana va o’ziga xoslik

Ahadjon Muhammadiyev¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Muqimiy va Muhyi sayohatnomalari qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi shoirlarning “Sayohatnoma”lariga ham murojaat qilingan. Maqolada tilga olingan “Sayohatnoma”larni batafsil o'rganish o'quvchiga o'sha davr tarixi, ijtimoiy hayot tarzi, joy nomlari va shu joy odamlarining xarakter-xususiyatlari haqida to'laroq ma'lumot olish imkonini berishi ta'kidlangan. Sayohatnomalar, nasrda va nazmda yozilishi, nazmiy sayohatnomalar hamisha Muqimiy “Sayohatnoma”si kabi to'rtliklardan iborat bo'la-vermasligi, ular qasida shaklida ham yozilishi, nazmiy sayohatnomalar nasriy sayohatnomalar kabi batafsillikka da'vo qila olmasligi, ularda umumlashgan tasvirlar ifodasi ustunlik qilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *sayohatnoma, she'riy va nasriy sayohatnomalar, tafsilot, tasvir, muallif maqsadi, uslub, mahorat.*

Kirish

Jahon madaniyati va tafakkuri rivojida Ibn Battuta, Ibn Xurdorbeh, al-Ya'qubiy, al-Istaxriy, al-Muqaddasiy, al-Ma'sudiy, Ibn Havkal kabi o'rta asr arab geograflari hamda Abu Hamid al-G'artoni, Ibn Fadlon, Ibn Jubayrlardek sayyohlar o'zlarining “Sayohatnoma”lari bilan alohida o'rin tutishgan. Xususan, Ibn Battutaning “Sayohatnoma”si [Ибн Баттута, 2012] o'rta asr mamlakatlari, shaharlari, ularning xalqlari madaniyati, turmush tarziga oid g'oyat qimmatli, ko'p o'rinlarda yagona ma'lumotlari bilan boshqalardan ajralib turgan. Shu sabab bo'lsa kerak, Akademik I.YU Krachkovskiy Ibn Battutani “Barcha musulmon mamlakatlarini kezib chiqqan so'nggi eng buyuk sayyoh” [Ибн Баттута, 2011], deya e'tirof etgan. Umuman, sayohatnomalar sayohat taassurotlari va tafsilotlari tasviriga bag'ishlanar ekan, ularning tarixiy-badiiy

¹ Muhammadiyev Ahadjon Mahmudovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Shahrisabz davlat pedagogika instituti.

E-pochta: abdulahadmuhammad@mail.ru

ORCID ID: 0009-0008-3135-7236

Iqtibos uchun: Muhammadiyev, A.M. 2023. “Muqimiy va Muhyi “Sayohatnoma”larida an’ana va o’ziga xoslik”. *Oltin bitiglar* 4: 82 – 96.

qimmatini muallif maqsadi, uslubi va mahoratiga bog'liqdir.

Adabiyot tarixida sayohat taassurotlarining nasriy va nazmiy tasviridan iborat o'nlab asarlar mavjud. Nasriy sayohatnomalarda joy va voqealarning izchil tafsiloti yetakchi o'rin tutsa, she'riy sayohatnomalarda tasvir ixcham va umumlashma xarakterda bo'ladi. Masalan, tojik tilida she'riy sayohatnomalar yozgan Jonmuhammad Joniy (1839–1881) Sharq adabiyotida qadim an'analariga ega bo'lgan sayohatnoma janriga yangidan ruh berdi. XIX asrning 70-yillarida Buxoro – Nurota safari haqida tojik tilida "Sayohatnoma" nomli asar yozdi. Unda muallifning 800 chaqirimdan uzoqroq masofadagi hozirgi Buxoro, Samarqand, Sirdaryo hamda Qozog'istonning Chimkent viloyatlari hududida joylashgan 50 ta qishloqning tabiati, manzaralari, odamlari haqidagi xotiralari o'z ifodasini topdi.

"Turkiston viloyatining gazetisi"da 1887-yili Xarkov qishloq xo'jalik ko'rgazmasida ishtirok etgan samarqandlik savdogar Mirzo Buxoriyning Boku, Xarkov, Moskva, Peterburgga sayohati xotiralari (1888-yil, 4–7-sonlar), toshkentlik savdogar Toshmuhammad Isamuhamedovning 1900-yili Boku – Istanbul yo'li bilan Parijga sayohati (44–45-sonlar), gazeta mualliflaridan Sattorxon Abdug'afforovning (1890), shoir Zokirjon Furqatning (1891, 2–23-sonlar), Xudoyorxonning kichik o'g'li Ibn Yaminbekning (1893, 22–28, 32-sonlar) o'z qo'llari bilan yozilgan tarjimai hollari, xususan, rus madaniyati bilan bog'lanishlariga oid xotiralari, toshkentlik Orifxo'janing sayohatnomasi (1894 yil 28-son) bosildi [Қосимов 2004, 12].

Hozirgi davr adiblari va publitsistlarining turli mamlakatlarga qilgan safarlari natijasida ham bir qator nasriy sayohatnomalar yuzaga keldi. Ular uslubida ocherk va publitsistika uchun xarakterli xususiyatlar ko'proq. Masalan, Oybekning "Pokiston taassurotlari" asarida sayohatnoma mavzusining kengaygani, bayon va tasvir shakllarining o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi.

O'zbek adabiyoti tarixi uchun, asosan, she'riy sayohatnomalar xarakterlidir. Masalan, Muqimiyning murabba' shaklida yozilgan "Sayohatnoma"si g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan bu janrning original namunasi hisoblanadi.

She'riy "Sayohatnoma"lar janri va mavzusi

Muqimiy milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida "Sayohatnoma" janrini boshlab bergan. Unda davr ziddiyatlari, chor hukumatining xalq boshiga solgan kulfatlari, zolim va adolatsiz hokim guruhlar ayovsiz tanqid qilindi, xarob va vayron qishloqlar

tasvirlandi. Shoir “Sayohatnoma”si o‘z vaqtida mutaxassislar tomonidan atroflicha o‘rganildi [Каримов 1987, 117-122]. Muqimiy Farg‘ona vodiysi bo‘ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she‘r qilib yozdi va bular “Sayohatnoma” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Muqimiy sayohatnomalari mavzusi quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olgan:

1. *Qo‘qon – Farg‘ona:*
Faryodkim, garduni dun
Aylar yurak bag‘rimni xun,
Ko‘rdiki, bir ahli funun –
Charx anga kajraftor ekan.
2. *Qo‘qon – Shohimardon:*
Chun shahrdin chiqdim «Qudash»,
Ko‘ngul bo‘lub mahzun-u g‘ash,
Majnunsifat, devonavash,
Serchashma-yu kam chang ekan.
3. *Qo‘qon-Isfara:*
Aflok kajraftor uchun,
Har dam ko‘ngul afgor uchun,
Ho‘qand tang-u tor uchun,
Sahro chiqish darkor ekan.
4. *Isfara sayohatidan:*
Shahr ichra toqat toq o‘lub,
Dubora yo‘llar qoq o‘lub,
Ko‘z Isfara mushtoq o‘lub,
Avval chiqish “Yayfon” ekan.

Matnshunos Q.Pardayevning ta’kidlashicha, Muqimiy “Sayohatnoma”lari matni shoir asarlarining barcha joriy nashrlarida asliyatga nomuvofiq keltirilgan. Tabiiyki, noqis matn asosida xolis va haqqoniy tadqiqot yaratib bo‘lmaydi. Shu jihatdan, shoir “Sayohatnoma”lari matnini matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilib, qayta nashr etish dolzarbdir. Umuman, davr talabi nuqtayi nazaridan “Sayohatnoma” bandlaridagi aksar misralar tahrir qilingan. Natijada, muallifning mufti, hoji va qozilar haqidagi rost gaplari yolg‘onga do‘ngan, matn asliyatdan mutlaqo yiroqlashgan. Xo‘sh, nega bunday yo‘l tutilgan? Shoir ijodini dinga qarshi qo‘yib talqin qilinganini e‘tiborga olsak, bu masala o‘z-o‘zidan ayonlashadi [Пардаев 2015].

Qisqa aytganda, Muqimiy “Sayohatnoma”si Qo‘qon shoirlari ijodiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi zabardast shoirlar Muqimiy asarining vazni va radifi bilan sayohatnomalar

yoʻzdilar. Furqat "Sayohatnoma"si adabiyotshunos olim Sharifjon Yusupov tomonidan e'lon qilingan. Zavqiy "Sayohatnoma"si esa "Obid mingboshi haqida hajv" nomi bilan tanilgan. Zavqiy ijodiy merosida, xususan, uning "Yangi Qo'rg'on qishlog'i", "Suv janjali", "Shohimardon sayohati" kabi asarlarida o'zbek qishloqlarining ahvoli, dehqonlar hayoti mavzusi yoritilgan. Tajalliy "Sayohatnoma"sidan esa bizgacha ayrim parchalargina yetib kelgan bo'lib, bu asarlar Muqimiyning "Sayohatnoma"si ta'sirida yozilgan.

Muqimiyning har uch yo'nalish sayohatnomalari ham to'rtliklardan tarkib topgan yaxlit bir asar shaklidir. Ularning barchasi aruzning rajazi murabbai solim bahrida yozilgan bo'lib, jami 244 misradan iborat. Har bir band "ekan" radifi bilan yakunlanadi. Hammasi uchun bitta umumiy muqaddima va bitta umumiy yakun – xulosa bor. Asarda sayohat sababi beriladi, so'ng turli manzil-qishloqlar, ularning tabiati, manzaralari tasvir etiladi. Joylardagi odamlar, fe'l-udumlar hikoya qilinadi.

Muqimiy "Sayohatnoma"si:

Faryodkim, garduni dun,

Aylar yurak-bag'rimni xun.

Ko'rdiki bir ahli funun,

Charx anga kajraftor ekan, – satrlari bilan; Zavqiyning Shohimardon xotirasiga bag'ishlangan "Sayohatnoma"si esa:

Bu ravzaga kimki kelib,

Bir kechasi mehmon ekan.

Umrida bir ko'rgan kishi

O'lganda bearmon ekan – bandlari bilan boshlanadi.

Muqimiy Farg'onadan Shohimardongacha bo'lgan masofadagi qishloqlar va ularning odamlari, ob-havosi, yaxshi va yomonlari, qolaversa, yer egalarining yashash tarzi haqida umumiy xulosalarini bayon etgan. Zavqiy esa xuddi Muqimiy vazni va radifida davom etsa-da, faqat Shohimardon ta'rifi va tavsifini yoritadi, xolos.

Muqimiy "Sayohatnoma"sining yana bir xarakterli jihati shuki, unda ko'proq "hasbi hol" ko'zga tashlanadi.

Muqimiydan farqli o'laroq Nodimning Samarqand va Toshkentga, Muhyining Rishton va Marg'ilonga qilgan safarlari natijasida yuzaga kelgan sayohatnomalari qasida shaklida yozilgan. Ta'kid lozimki, Muhyining forsiy devonidagi qasidalar fardlardan so'ng joylashtirilgan. Birinchi qasida Mullo Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiyga bag'ishlangan. Ikkinchisi esa Marg'ilon va Roshidon shahrlarining ta'rif-u tavsifidan iborat.

Muhyi qasida avvalida: "қасидаи навинаки дар роҳи

Марғинон дар тариқи Рошидон гуфта шуда” (tarjimasi: bu yangi qasida Marg'inondan Roshidonga borish yo'lida aytili), deya sarlavha qo'yadi.

Mazkur bitiklar mazmunan o'quvchiga Muqimiy sayohatnomalarini eslatadi. Biroq Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Tajalliylardan farqli o'laroq Muhyi “sayohatnoma”si qasida ko'rinishida, qolaversa, yuqoridagi shoirlarda bo'lgani kabi “ekan” radifi ko'zga tashlanmaydi. Vazn ham boshqacha (ramali musammani maqsur).

Muhyi “Sayohatnoma”si

Muhyi “Sayohatnoma”ni fors-tojik tilida yozgan. Umuman, Muhyining mazkur “Sayohatnoma”si fors-tojik tilida yozilgan dastlabki asar emas. Avval ta'kidlaganimizdek, XIX asrda Buxoro adabiy muhitida ham fors-tojik tilida sayohatnomalar bitilgan. Muhyida Muqimiydan farqli o'laroq quyidagi ikki yo'nalish mavjud:

1. Ta'rifi Rishton.
2. Vasfi Marg'inon.

Shoir qasidada bu haqida shunday yozadi:

*Буд маҷмуи ҳамин абёт аз яксад фузун,
Нисфи он таърифи Риштон, нисфи васфи Марғинон*

[Muhyi 211].

Demak, shoirning xabar berishicha, ushbu qasida 100 baytdan ziyod bo'lgan. Uning yarmi Roshidon, yarmi esa Marg'ilon ta'rifida bitilgan. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Субҳи ҷумъа матлаи субҳи саодатро нишон,
Гаштам аз дарвоза берун раҳ ба суйи Рошидон*

[Muhyi, 208].

Tarjimasi: subhi juma – saodatning to'lishgan tongidan nishon. (Shu kunda, ya'ni juma kunida) men darvozadan tashqariga chiqdim va Roshidon tomon yo'l tortdim¹.

Shoir Roshidon tomon yo'l tortar ekan, avvalo, fayzli tongning ta'rifiga kirishadi:

*Субҳи нур файзе ки беҳтар буд аз шабҳойи қадр,
Балки рӯзи қадр гўям ҳам бувад кам васфи он.*

Tarjimasi: bu shunday bir fayzli subh (tong) ediki, hatto u qadr kechasidan ham yaxshiroq edi. Nafaqat qadr kechasi, balki qadr kuni (kunduz)dan yaxshiroq desam ham – bu uning vasfi uchun kamlik qiladi.

Чунки аз дарвозаи Хўқанд гаштам шодмон,

¹ Tarjimalar muallifniki.

Озими сахро чу сахро рашки гулзори эрам.

Tarjimasi: chunki Qo'qon darvozasi (sarhadi)dan shodmon holda chiqdim va sahroni qasd qildim. Bu shunchaki sahro (yo'l) emas, balki Eram (Jannat) gulzorlarining rashkini qo'zg'ovchi sahrodir.

Muqimiy Qo'qondan Shohimardonga qilgan safari chog'ida bitgan to'rtliklarida har bir to'xtagan manzili, u yerning ob-havosi, tabiat tasviri va shu yerlik odamlarning fe'l-atvori, hatto yashash tarzi haqida ham batafsil to'xtalib o'tgan. Masalan, O'ltarma sayohati davomida shoir bir ma'raka ustidan chiqadi. Yig'inda besh yuzcha xotin-xalaj voizdan va'z tinglab turgani tasvirlangan. Qiziquvchan shoir Mingboshini surushtiradi. Natijada uning qo'sh tegirmoni borligi va ismi Xo'ja Iso ekanini aniqlaydi. Xo'ja Iso (garchi qo'sh tegirmoni bo'lsa ham) ishsiz, bekorchi kishi edi. Shoir u haqda shunday yozadi:

*Mag'rur, xasis-u besh-u kam,
Har gapda yuz ichgay qasam,
Takjoy olur moxovdanam,
Hoji o'zi murdor ekan.*

Xullas, Muqimiy Qo'qon – Shohimardon yo'nalishidagi Do'rmoncha, Bo'rbaliq, Oq yer, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, Chimyon va Vodil kabi joylarning ham ta'rif-u tavsifini chizadi. Muhyida esa Muqimiydan farqli ravishda ko'proq kishi ta'bini xursand etuvchi go'zallik, yoqimli ob-havo va ajoyib peyzaj tasvirini ko'ramiz. Muhyi Roshidon yo'lidagi tabiatni quyidagicha tasvirlaydi:

*Ончунон сарсабзу хуррам боғу роғу сабзаҳо,
Ҳар қадам бини ҳазорон боғу садҳо бўстон.*

Tarjimasi: bog'-u rog'lar, maysalar shu qadar shod-u xurram (yashnab ochilgan)ki, har qadamda yuzlab, minglab bog'-u bo'stonlarni ko'rasan.

*Як тараф бини хиёбон дар хиёбон лолазор,
Як тараф бини биёбон дар биёбон гулситон.*

Tarjimasi: bir tarafda xiyobonni ko'rasan, u lolazordan iborat; boshqa bir tarafda biyobonga ko'zing tushadi, u gulistondan tarkib topgan.

*Гўйиё аз барғу сабза фурши нав андохта,
Аз зумуррад ҳар тараф фаррош дар атрофи он.*

Tarjimasi: go'yoki barg va ko'klamdan (tabiat uzra) yangi

to'shanchi to'shalgan. To'shakning har tarafida zumraddan far-roshlar bor.

*Дар ямину дар ясору дар жанубу дар шимол,
Васфи жаннотун-наъим аз ҳар тараф бини аён.*

Tarjimasi: Jannotun-na'im (jannat ne'matlari)ni har tarafdan – o'ngdan, chapdan, janubdan va shimoldan aniq ko'rasan.

*Ваҳ чи роҳи дилкушо к-аз файзи жон бахшии ӯ,
Нест боке гар дарояд дар тани амвот жон.*

Tarjimasi: bu qanday ham ko'ngil ochar yo'lki, uning fayzi (kishiga) jon bag'ishlaydi. Bu fayz o'lik tanga ham jon kiritsa ajab emas.

*Ҳар тараф беду гулу гулзору боғу лолазор,
Аз ду жониб ҳаст жорий ҳар тараф наҳри калон.*

Tarjimasi: atrofda tollar, gul-u gulzorlar, bog' va lolazorlar yastanib yotibdi. Bularning har ikki tarafidan katta ariq oqadi.

*Андар он гулзору боғу бўстонҳо ваҳ чи хуш,
Сад ҳазорон булбулон аз шавқи гул андар фиғон.*

Tarjimasi: u joyda naqadar go'zal gulzorlar va bog'-u bo's-tonlar bor. Bog'-u bo'stonlar ichra yuz minglab bulbullar gul shavqida fig'on qiladilar.

Muqimiya ham shunday tasvirlar yo'q emas. Shoir ham ayni Roshidon va Zohidon ta'rifini bitish asnosida Muhyining yuqoridagi baytlariga hamohang jummalarni yozganiga guvoh bo'lamiz:

*Ammo nazarda "Roshidon",
Firdavs bog'idin nishon.
O'ynab oqar obi ravon,
Sahni gul-u gulzor ekan.*

*Ma'yus bordim "Zohidon",
Bir ko'cha ketguncha do'kon.
Sho'x odami, ichmay piyon,
Mast, otasi bezor ekan.*

*Suvlar sepilgan so'rilar,
Bo'rlangan o'choq-mo'rilar,
Tab'ing mabodo choy tilar,
Damlashlari ishqor ekan.*

Muhyi ham Roshidan yo'nalishida davom etar ekan shoxlari

bir-biriga chirmashib ketgan daraxtlar va ularga maftun turgan xushsavn sayroqi qushlar (bulbul, foxta, qumri, sa'va...) haqida yozadi:

*Ҳеч нахле ман надидам бенавойи андалиб,
Турфа хуш алҳону нолон дар басотин булбулон.*

Tarjimasi: biror bir daraxtni benavo bulbulsiz ko'rmadim. Mazkur bulbullar bo'stonlarda turli ko'rinishda (alhonu nolon) nolali xonish qiladilar.

*Фохта, Қумрию Саъва шўриши афғон кунон,
Сарви ар-ар то баҳам печида анд то фарқадон¹.*

Tarjimasi: Foxta (yovvoyi kabutar), Qumri va Sa'valar do-faryod solmoqdalar. Sarvi ar-ar (daraxti) esa (yerdan) to farqadon yulduziga qadar yuksaklikka chirmashgan.

*Аз Вафури фокиҳа дар ин тариқи дилкушой,
Тўда-тўда уфтода нозу неъмат бекарон.*

Tarjimasi: mevalar shu qadar mo'lk, ularning ko'pligidan ko'ngil ochuvchi bu yo'lda behisob noz-u ne'mat uyum-uyum to'kilgan.

*Шохҳойи ин дарахтон ончунон пайваста анд,
Роҳравро гашта шохи беду насрин соябон.*

Tarjimasi: bu daraxtlarning shoxlari shu qadar muxtalaf chirmashganki, natijada, tol va nasrinlarning shoxlari yo'lovchilar uchun soyabonga aylangan.

*Гуна-гуна себу шафтолуву анжиру анор,
Харбуза сад қисм ҳар жо кас насозад майли он.*

Tarjimasi: olma, shaftoli, anjir va anorlar rang-barang. Har joyda xohlovchilar uchun qovunlar (tilim-tilim qilib) yuz bo'lakka bo'lib qo'yilgan.

*Аз баройи роҳравон бенишаста ҳар жо мунтазир,
Ҳаст дар ин раҳ фурушанда ҳазорон мардумон.*

Tarjimasi: bu yo'l bo'yida minglab sotuvchi (savdogar) lar bor. Ular har yerda yo'lovchilar uchun o'tirmasdan (tinimsiz) intizor holda (xizmat qiladilar).

¹ Farqad فرق. Bu lug'at "Farxangi zaboni to'chik" da shunday sharhlangan: "Nomi yake az du sitorayest dar galasitorai Dubbi Asg'ar, ki har du sitora yakcho Farqadon yo Farqadayn nomida meshavad. Tarjimasi: Dubbi Asg'ar galaktikasidagi ikki yulduzdan birining nomi, ikkala yulduz birgalikda "Farqadon" yoki "Farqadayn" deb ataladi.

*Ғайр аз ин дар ҳар қадам бозорҳойи дилкушой,
Аз дўконҳойи васеъ бо такаллуф гирди он.*

Tarjimasi: bundan tashqari, har qadamda ko'ngil ochar bozorlar bor. Bu bozorlarning atrofi keng do'konlar bilan o'rab olingan.

*Ҳар самовораш ба ранги қасри жаннат дилкушой,
Ҳар дўкони ў батарҳи гулситон фарҳат нишон.*

Tarjimasi: bu yerning har bir samovarlari ko'ngilga xush yoquvchi Jannat qasrlarining rangidandir. Har bir do'koni esa rohatbaxsh guliston kabidir.

*Лаб-лаби оби калону зери ашжори баланд,
Фарши нав андохтаи баҳри нузули раҳравон.*

Tarjimasi: katta ariqlar yoqalab, baland daraxtlar ostida yo'lovchilar uchun to'shaklar solingan.

*Зарфҳойи ҳўб сиймин ҳар тараф андохта,
Раҳравонро аз сафар кардиди монеъ сайри он.*

Tarjimasi: har tarafda (mehmonlar uchun) ajoyib, chiroyli idishlar qo'yib qo'yilgan. Bu esa, o'z navbatida yo'lovchilarning sayr qilishlariga to'sqinlik qiladi.

*Ҳар дўкони ў бувад аз нақшҳойи дилкушой,
Чун нигористони Чин рангин мисоли бўстон.*

Tarjimasi: u yerdagi har-bir do'kon ko'ngilochar naqshlar bilan ziynatlangan. Ular Chin (Xitoy) bezaklari kabi rang-barang. Misoli bo'stondir.

Guvohi bo'lganimizdek, Muhyi sayohatnomalarida an'ana-viylikdan ko'ra ijodiy originallik ko'proq ko'zga tashlanadi. Muqimiy sayohatnomalaridan farqli o'laroq Muhyi sayohatnomalarida ko'ngil ochar tasvirlar, har bir mavzening o'ziga xos tabiati, dov-daraxtlari, sayroqi qushlari, bozor-u rastalari, dam olish manzillari, tasvirlanayotgan joy odamlari va ularning sayohatchilarga nisbatan mehribon va mushfiqligi kabilar mahorat bilan chizilgan. Shuning-dek, safar asnosida tanishgan zebo sanamlar ham Muhyining e'tiboridan chetda qolmaydi:

*Баҳри хизмат мунтазир истода зебо манзарон,
Гулрухони сийми соқу маҳвашони дилбарон.*

Tarjimasi: zebo yuzlilar, siymtan gulruxlar va dilbar mahvashlar xizmat uchun shaylar.

*Ман чунон оям берун аз уҳдаи таърифи он,
З-он ки набуд фурсате то ман намоям шарҳи он.*

Tarjimasi: (xullas) bu yo'l (Roshidon yo'li) ta'rifini (batafsil) uddalash imkoniyatidan chetdaman. Chunki batafsil sharhlash uchun menda fursat yo'q edi.

Qo'qon shoirlari sayohatnomalarida O'ltarma¹ nomi tez-tez tilga olinadi. Muqimiy bu joyga yurish qilganida yo'ldoshi bir chitfurush bo'lganini, O'ltarmaga peshin vaqtida yetib kelgani va qiziq bir bozor ustidan chiqqanini quyidagicha tasvirlagan:

*"O'ltarma"ga qildim yurush,
Yo'ldosh edi bir chitfurush,
Yetdim jadallab vaqti tush,
Birdam qiziq bozor ekan.*

Muhyi esa O'ltarmaga ertalabki nonushta vaqtida kelganini yozadi. Shoir tong sahardagi nonushta paytini va u yerdagi qaynab turgan jonbaxsh samovarlarni quyidagicha tasvirlagan:

*Аввали манзил маҳали ношито Ўлтарма шуд,
Дар самоворики, ал-ҳақ, буд роҳатбахш жон.*

Tarjimasi: avvalgi manzilimiz nonushta vaqtida (saharda) O'lturmada bo'ldi. Darhaqiqat, u yerdagi samovar jonga rohatbaxsh edi.

*Андар-он манзил мулоқи гашт дилдореки буд,
Орази ў дар латофат ба з-моҳи осмон.*

Bundan (nonushtadan) keyingi uchrashuv manzilimiz dildor kezgan (ko'cha) bo'ldi. Uning (dildorning) orazi (yuzi) latofatda osmondagi oyga teng edi.

*Чунки он ёри шакарлаб буд дар шому сабоҳ,
Бо мане дилхаста Муйи солҳо ороми жон.*

Tarjimasi: chunki u shakarlab yor erta-yu kech men dilxasta Muhyi uchun oromijon edi.

*Ман чи гўям аз жамолу васфи хўбҳойи ў,
Нест мисоли ў ба хўбе дилбаре, эй дўстон.*

Tarjimasi: uning (yorning) go'zalligi va maqtovi haqida nima deyishim mumkin? Do'stlar, qisqasi, dilbarlar ichida uning misoli (tengi) yo'q.

¹O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati Bag'dod tumaniga qarashli shaharcha. O'ltarmaga 2009-yilda shaharcha maqomi berilgan.

*Як-ду соат суҳбати хуш сохта бо як дигар,
Ман ижозат хостам з-он жо ба сӯйи Рошидон.*

Tarjimasi: bir necha soat yoqimli suhbat qurgandan so'ng, qaytadan Roshidon tomonga sayohatni davom ettirish uchun ijozat so'radim.

Muhyining bundan keyingi baytlari Roshidon yo'lida hamrohlik qilgan ikki sho'xning ta'rif-u tavsifidan iborat. Unda bu go'zallar: zebo manzar, sho'x-u harif (hamsuhbat), ofati jon, fitnai davron, baloyi mu'minon, makkora, sho'x tab', nuktadon, joduzabon kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. Xullas, Muhyi ular hamrohligida Do'rmonchaga yetib oladi:

*То мақоми Дӯрмонча омадему баъдаз-он,
Хуш вадоъи як дигар кардем лек армон кунон.*

Tarjimasi: Do'rmonchaga qadar yetib keldik va shu yerda armon bilan xayrlashdik.

*Қиссаи ду буд ҳамчун зулфи ӯ дуру дароз,
Лек кардам ихтисору бас намудам зикри он.*

Tarjimasi: ikkisining (ikki go'zalning) hikoyasi ularning sochlari misol uzoq va uzun edi, biroq men (bu qissani) ixtisor qildim (qisqa qildim) va ularning zikrini to'xtatdim.

Xullas, Muhyi ham Muqimiy kabi vatan ichkarisida qilgan sayohatlarini qasida tarzida fors-tojik tilida bayon etgan. Unda tilga olingan Rishton, Marg'ilon va ularning yo'lidagi qishloqlar – O'ltarma va Do'rmonchalarning tabiati, odamlari va ularning yashash tarzi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Muhyi sayohatnomalarini shartli ravishda ikki qismga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Vatan ichkarisiga qilingan safar chog'ida yozilgan sayohatnomalar.

2. Chet ellarga qilingan safar chog'ida yozilgan sayohatnomalar.

Mazkur fasl avvalida Muhyining Rishton (Roshidon) va Marg'ilon (Marg'inon) yo'nalishlari bo'ylab amalga oshirgan sayohatlari davomida yozilgan qasida (sayohatnoma) bilan batafsil tanishdik. Quyida shoirning chet ellardagi safarlari ta'sirida yozilgan sayohatnomalarini o'rganishda davom etamiz.

Ta'kidlaganidek, Muhyi Qo'qondagi Mallaxon saroyiga xizmatga olingach, u yerda ham obro'-e'tibor topadi. Hatto diplomatik ishlarga ham jalb qilinadi. U 1859–1861-yillar orasida

xonning maxsus elchisi maqomida bir necha marta Afg'oniston va Hindistonga borgan. Yo'l-yo'lakay Turkiya, Eron singari mamlakatlarni ko'rishga muvaffaq bo'lgan. E'tiborli jihati, u safar chog'ida qayerda atoqli olim yoki qalam sohibi borligini eshitsa, darhol uning huzuriga borib suhbat qurgan. Albatta, shoir xizmat yuzasidan kezib chiqqan shaharlar xususida tuyg'ulari, kuzatuvlari aks etgan she'rlar ham bitdi. Shulardan biri hozirda Pokiston hududidagi Lohur shahri ta'rifi xususidagi "Дар сифати шахри Лоҳур ба тариқи бадиха гуфта шуда буд. Дар шахри Лоҳур" sarlavhali she'ridir.

Badiha avvalida shoir shunday yozadi: "Дар сифати шахри Лоҳур ба тариқи бадиха гуфта шуда буд. Дар шахри Лоҳур" (ma'nosi: Lohur shahrining sifatida badihatan aytiladi. Lohur shahrida).

*Зиҳи Лоҳуру шахри дилкушояш,
Чи гўям васфи хубии ҳавояш.
Эрамро хичлате аз тарҳи боғаш,
Фалак сар бар замин аз ҳар бинояш [Muhyi, 105].*

Ma'nosi: Lohur shahri ko'ngil ochuvchi shahardir. Uning xushbo'y havosi vasfida nima ham derdim. Lohur bog'ining go'zalligidan, hatto, Eram bog'i ham xijolatda. Uning har bir binosining balandligidan falakning boshi ham yerda bo'ladi.

Ko'rinadiki, badihago'ylik shoirning zukkoligi, topqirligi, qolaversa, uning nechog'lik iste'dod sohibi ekanini belgilovchi mezonlardan biridir. Ammo badihago'ylik ijodkorlarning zakiyligini ko'rsatish bilan birgalikda asosi tezkorlikka qurilgani uchun qofiyabozlikni keltirib chiqarishi, rangsiz baytlar yozilishiga sababchi bo'lishi ham mumkin. Bunday holatlar Muhyi badihalarida deyarli kuzatilmaydi. Aksincha, uning badihalari an'anaviy ta'rif-u tavsiflardan o'tib, o'quvchini mushohada yuritishga undovchi go'zal baytlardan tarkib topgan.

Muhyi nafaqat Muqimiy kabi mamlakat ichkarisida sayohat qilgan, balki xorij safarlariga ham tez-tez chiqib turgan. Bunga sabab uning betakror iste'dodi edi. Garchi rasman bo'lmasa-da, xon Muhyini diplomatik ishlarga jalb etadi. Bu sayohatlar esa Muhyiga dunyoni ko'rish, borgan mamlakatlariga ma'rifat ulashish va ma'rifatlanish imkonini bergan. Albatta, Muhyi iste'dodli ijodkor sifatida bu sayohatlarini o'z asarlariga muhrlagan. Chet el sayohatlari davomida bitilgan asarlaridan yana biri Turkiya safari chog'ida dunyo yuzini ko'rdi.

Shoir devonida Turkiyaning Istanbul shahridan yuborilgan yigirmaga yaqin suratlarining tasviriga bag'ishlangan qit'alar

mavjud. Bu haqda Muhyi qit'a avvalida shunday yozadi: "Ma'lum o'laki, ushbu qit'otni fit-tug'rof birlan olg'on Islombul tasvirining orqosig'a bayon aylab ma'lum qilmog' uchun aytib yozgon edim".

Qit'alarda Istanbul shahridagi masjid, madrasa va maqbaralar, daryo va ko'priklar, podsho lashkarlari hamda ularning kazarmalari kabi turli xil inshootlar tasvirlangan. Shoir qit'alardan birida Istambul shahrini barcha mamlakatlarning boshi sifatida quyidagicha ta'rif etadi:

*Shahri Islombulki bu olam aro,
Barcha kishvarni jahonda boshidur.
Aylag'il nazzora bu tasvir aro,
Jumlasi ul kupurukni boshidur* [Muhyi 353].

To'pchilar suratiga sharh sifatida bitilgan navbatdagi qit'ada esa shoir mamlakatning harbiy quvvatiga yuksak baho beradi. Suratdagi har bir to'pchini go'yo bir ajdarga qiyoslab quyidagicha yozadi:

*Hazrati Sulton Hamidni shukri,
Chiqqon erkon ul kazarmadin biri.
Ushbulardur to'pchilarni surati,
Har biridur begumon bir ajdari* [Muhyi, 354].

Shoirning forsiy devonida ham turkiy devondagi singari Istanbul shahri ta'rifiga bag'ishlangan turkum qit'alar mavjud. Fikrimizning isboti uchun shoirning Xol ota qal'asi tasviriga bag'ishlangan qit'asini sharhlaymiz:

*Ин иморатроки бини дар ҷаҳон,
Аз шуқуҳаш дар замона ғулғуласт.
Гар надони Мухйи мегӯяд шунав,
Қалъаи Хол ота дар Истамбуласт* [Muhyi, 154].

Ma'nosi: Dunyo ichra mavjud bo'lgan bu imoratni ko'rgin. Uning ulug'vorligidan zamona (ahli) hayratdadir. Agar bu imorat to'g'risida hech narsa bilmasang, Muhyidan eshit. Bu – Istanbuldagi Xol ota qal'asidir.

Xulosa

Mazkur maqolada tilga olingan shoirlar tomonidan ijod etilgan "Sayohatnoma"larni batafsil o'rganish o'quvchiga o'sha davr tarixi, ijtimoiy hayot tarzi, joy nomlari va shu joy odamlarining xususiyatlari haqida to'laroq ma'lumot olish imkonini beradi. Mumtoz adabiyotdagi "hasbi hol"larda, asosan, shoirlar o'z ahvollari

haqida yozishgan. Bularning ayrim ko'rinishlari sayohatnomalarda ham mavjud. Birgina misol, Muqimiy o'z "Sayohatnoma" sida "garduni dun" ("pastkash dunyo")dan faryod qiladi, yurakbag'rini "qon" ("xun") qilganidan shikoyat etadi. "Ahli funun" ("ilm-fan kishilari") ga bu dunyoning hamisha teskari ("kajraftor") yurganini ta'kidlaydi va hokazo...

Sayohatnomalar muallifning safar hisoboti yoki tor shaxsiy kechinmalar majmuyidangina iborat emas. Ularda davr ijtimoiy hayot muammolarini (Muqimiyda) tanqidiy nazar bilan tahlil etilgan. Sayohatnomalar nasrda va nazmda yozilishi mumkin. Nazmiy sayohatnomalar hamisha Muqimiy "sayohatnoma"si kabi to'rtliklardan iborat bo'lavermaydi. Bilaks, maqolamiz avvalida ta'kidlaganimizdek, ular qasida shaklida ham yozilishi mumkin. Bu kabi sayohatnomalarda ko'proq ta'rif, tavsif yetakchilik qiladi. Nazmiy sayohatnomalar nasriy sayohatnomalar kabi batafsillikka da'vo qila olmaydi. Ularda ko'pincha umumlashgan tasvirlar ifodasi ustunlik qiladi.

Adabiyotlar

- Абдуғафуров, А. 1976. *Муқимий сатираси*. Тошкент: Фан.
- Аҳмедов, С. 1986. "Ўзбек адабиётида саёҳатнома". *Адабий мерос* 6: 7-116.
- Зарифов, Ҳ. 1955. *Муқимий ҳаёти ва ижоди*. Тошкент: Фан.
- Ибн Баттута. 2012. *Саёҳатнома*. Тошкент: Шарқ.
- Ибн Баттута "Саёҳатнома"си. 2011. *Жаҳон адабиёти*, 10-сон.
- Каримов, Ғ. 1987. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Учинчи китоб. Тошкент: Ўқитувчи.
- Муҳйиддин Муҳйи. *Девони Муҳйи*. Тошкент: Ҳожи Абдуррауф нашри, 1911/м. ЎзФАШИ тошбосма асарлар фонди №3220. 360 саҳифа.
- Ойбек. 1974. *Асарлар*. 9-том. Тадқиқот ва мақолалар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Олимжонов, А. 1953. *Муҳаммад Амин Муқимий*. Ҳаёти ва ижоди. Тошкент: Фан.
- Сотти Ҳусайн. 1974. Танланган асарлар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Қосимов, Б., Юсупов, Ш., Долимов, У., Жабборов, Н., ва б. 2004. *Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти* дарслиги. Тошкент: Маънавият.
- Қўлдош Пардаев. 2015. "Муқимий "Саёҳатнома"си матни тарихидан". *Шарқ юлдузи* 4.

Tradition and originality in Mukimi and Muhyi "Sayohatnoma"

Ahadjon Muhammadiev¹

Abstract

This article discusses travelogues written by Muqimi and Muhyi. Furthermore included were the "Sayohatnoma" of poets like Furqat, Zavqi, and Tajalli. Notedly, the reader can obtain comprehensive knowledge on the social life, place names, historical background, and personal characteristics of the inhabitants in this region by carefully examining the "travel notes" penned by the poets listed in the article. Both prose and verse can be used to write travelogues. Poetic travelogues can take the shape of odes or quatrains, unlike Muqimi's "travelogue" and they can not be said to be as precise as prose travelogues because they frequently use generic imagery. The supremacy of expression has been demonstrated by science.

Key words: *travelogue, she Poetry and prose travelogues, travel impressions, detail, image, author's purpose, style, skill.*

References

- Abdugʻafurov, A. 1976. *Muqimiy satirasi*. Toshkent: Fan.
- Ahmedov, S. 1986. "Oʻzbek adabiyotida sayohatnoma". *Adabiy meros* 6: 7-116.
- Zarifov, H. 1955. *Muqimiy hayoti va ijodi*. Toshkent: Fan.
- Ibn Battuta. 2012. *Sayohatnoma*. Toshkent: Sharq.
- Ibn Battuta "Sayohatnoma"si. 2011. *Jahon adabiyoti*, 10-son.
- Karimov, G'. 1987. *Oʻzbek adabiyoti tarixi*. Uchinchi kitob. Toshkent: O'qituvchi.
- Muhyiddin Muhyi. *Devoni Muhyi*. Toshkent: Hoji Abdurrauf nashri, 1911/m. O'zFASHI toshbosma asarlar fondi №3220. 360 sahifa.
- Oybek. 1974. *Asarlar*. 9-tom. Tadqiqot va maqolalar. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti.
- Olimjonov, A. 1953. *Muhammad Amin Muqimiy*. Hayoti va ijodi. Toshkent: Fan.
- Sotti Husayn. 1974. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti.
- Qosimov, B., Yusupov, Sh., Dolimov, U., Jabborov, N., va b. 2004. *Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti darsligi*. Toshkent: Maʼnaviyat.
- Qoʻldosh Pardae. 2015. "Muqimiy "Sayohatnoma"si matni tarixidan". *Sharq yulduzi* 4.

¹ Ahadjon M. Muhammadiyev – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Shahrisabz State Pedagogical Institute.

E-mail: abdulahadmuhammad@mail.ru

ORCID ID: 0009-0008-3135-7236

For citation: Muhammadiev, A. M. 2023. "Tradition and originality in Mukimi and Muhyi "Sayohatnoma". *Golden scripts* 4: 82– 96.

Oltoy hayoti va ijodi haqida ba'zi mulohazalar

Soatova Gulzoda¹

Abstrakt

Maqolada alohida o'ringa ega XX asr 20-30-yillar milliy adabiyot tarixida o'z ijodi bilan muhim ahamiyat kasb etgan shoir Oltoy (Bois Qoriyev) faoliyati, hayoti va ijodi, oilasi (otasi Abduvohid qori, akasi Bosit Qoriyev hayoti, faoliyati) haqida ma'lumotlar keltirilgan. Adibning nashr etilgan she'rlari, kitoblari, haqida fikr yuritiladi. She'rlaridagi asosiy g'oya tahlil etilib, shaxsiy mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, ijodkorning "Qizil O'zbekiston", "Farg'ona", "Turkiston", "Ishtirokiyun" kabi gazetalar, "Maorif va o'qitg'uvchi", "Alanga", "Yer yuzi", "O'zgarishchi yoshlar" kabi jurnallarda bosilgan she'rlarining matni, "Chin yo'lni endi topdi", "Umid qishloqqa" hikoyalari tahlili ilk marta chop etilmoqda. Oltoyning maqolalari tasniflanib, ba'zilari xususida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar. *Oltoy, Abduvohid qori, Bosit Qoriyev, millatchi, "Armug'on", "Yer yulduzlari".*

Kirish

XX asr 20-30-yillar adabiyoti milliy adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadi. Bu davrda til va adabiyot sohasida turli jamiyatlar, to'garaklar va adabiy uyushmalar tashkil topdi. Masalan, Respublika hududida "Chig'atoy gurungi" (1919 – 1922) adabiy uyushmasi, "Qizil qalam" (1926-1930) jamiyati, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi (1930 – 1932) faoliyat ko'rsatdi. Bularning faoliyatida kamchiliklar bilan birga ijobiy ishlar ham mavjud edi. Yangi o'zbek adabiyoti ana shunday tarixiy voqealar zaminida davr ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarga faol aralasha bordi. Bu davr o'zbek adabiyotida Bois Qoriyev (Oltoy)ning ham o'rni bor. Oltoy haqida ba'zi ma'lumotlar Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmad kabi olimlarning tadqiqotlarida uchraydi.

¹ Soatova Gulzoda Nurmamat qizi – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: soatovagulzoda@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-2064-8088

Iqtibos uchun: Soatova, G.N. 2023. "Oltoy hayoti va ijodi haqida ba'zi mulohazalar". *Oltin bitiglar* 4: 97 – 108.

Oltoyning hayot yo'li

XX asrning 30-yillarida Oltoy taxallusi bilan ijod qilib, ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan she'riy asarlar qoldirgan shoir Bois Qoriyev 1903-yil Bo'stonliq tumanida Abdurauf qori o'g'li Abduvohid qori oilasida tavallud topgan. Abduvohid qori (Bois Qoriyev otasi) Toshkentning Shayhontohur tumanida tug'ilgan bo'lib, arab, fors, rus tillarini puxta o'rgangan. Buxoro, Toshkent madarasalarida o'qib, diniy bilimlarni chuqur egallagan. 1906-yilda Turkistondan Rossiya davlat dumasiga a'zo etib saylanadi. 1908-yilda ijtimoiy faoliyatida Chor Rossiya hukumatiga qarshi harakatlar bo'lganligi bois Tula shahrida surgunda bo'lib, u yerdagi xalqlarning urf-odatlarini, turmush sharoitlarini o'rganadi. Islom diniga alohida e'tibor bilan yondashgan mashhur rus adibi Lev Tolstoy bilan ham uchrashadi, suhbatlashadi. 1912-yilda surgundan qaytib, "Sho'royi islomiya", "Sho'royi ulamo" jamiyatlariga rahbarlik qiladi. Turkiston istiqloli uchun millatni hamjihatlikka da'vat etadi. Bu borada Sherali Turdiyev quyidagicha yozadi: "Abduvohid qori 1921-1922-yillarda Turkiston Respublikasi Oliy sudi jamoa a'zosi bo'lib ishladi. Shundan keyin 1927-yilgacha shahardagi "Mahkamayi shar'iya" idorasida va turli masjidlarda imom-xatib vazifasida ishladi.

1933-yilda u yana siyosiy shubha ostida Qozog'istonda qamoqqa olindi. Besh yarim oy tergov qiynoqlari, qamoq azoblaridan qutulib, ona shahri Toshkentga qaytdi. Bu vaqtda endi u yetmishga yetib, kuch-quvvatdan qolgani uchun endi u davlat idoralaridagi ishlardan uzilib, o'zining Shirinquduq mahallasidagi masjidda imom-xatib bo'lib ishlab yurdi. Hech qancha vaqt o'tmasdan 1937-yili avgust boshlarida saksonga yaqinlashib, keksayib qolgan qariya to'satdan yana qamoqqa olinadi. Tergovda og'ir jismoniy va ruhiy tazyiq-qiynoqlar ostida unga "ayb"larini bo'yniga olishga majbur qilishadi. Buning ustiga 1930-yilda qamalgan o'g'li shoir Bois Qoriyev (Oltoy) va 1937-yili qamalgan yana bir o'g'li O'zbekiston san'at ishlari boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Bosit Qoriyev va boshqalarning g'am-tashvishlari keksa otaning qamoqdagi ahvolini yanada og'irlashtirdi. Buning oqibatida u 1938-yil boshlarida Toshkent qamoqxonasida vafot etadi" [<https://info.islom.uz/ulamolar>].

Abduvohid qorining katta o'gli Madaniyat vazirligi san'at boshqarmasining boshlig'i Bosit Qoriyev 1937-yilda siyosiy qatag'onga uchrab qamoqqa olinadi. 1938-yil 5-oktabrda u Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Fitratlar bilan birga otib o'ldiriladi. Bosit Qoriyevning ayoli, O'zbekiston xalq artisti Ma'suma Qoriyeva tur-

mush o'rtog'ining dog'i va ikki o'g'li Shavkat va Botir Qoriyevlarning ikkinchi jahon urushida halok bo'lganini eshitgach, og'ir xastalikka uchrab, 1946-yil Moskvada vafot etadi. Mushtipar ona bu yillarda urush tugasa ham daragi bo'lmayotgan o'g'illarini izlab Moskvaga borib qolgan edi.

Abduvohid qorining kichik o'g'li Bois Qoriyev maorif komissarligi xodimlaridan edi. Ijodkor 1919-yilda "Chig'atoy gurungi" tashkiloti yig'ilishlariga qatnashadi, shu paytlarda Fitrat, Cho'lpon kabi shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlarda bo'ladi. U "Oltoy" taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi. Uning o'qishi va faoliyati haqida Sirojiddin Ahmad "Haq yo'lining fidoiylari" maqolasida shunday ma'lumot beradi: "U o'qituvchilar tayyorlash kursida o'qidi. 1918, 1920-1921-yillarda Toshkent va Xiva shaharlaridagi maktablarda o'qituvchilik qilgan. 1921-yil mart oyidan boshlab Toshkent eski shahar maorif bo'limida nazoratchi, 1922-1925-yillarda pedagogika institutida o'qigan. 1923-yilda Turkiston fronti tomonidan Andijonda nashr etilgan "Darxon" gazetasida adabiy xodim bo'lib ishlagan. 1925-1927-yillarda pedagogika instituti rektori bo'lgan. 1928-1929-yillarda Moskvada kompartiya akademiyasida tahsil olgan. 1929-1930-yillarda Davlat Ilmiy kengashi boshlig'i, "Qizil qalam" uyushmasi raisi, "Yosh leninchi" gazetasi mas'ul muharriri lavozimlarida ishladi. 1930-yilda "Narkompros ishi" bo'yicha hibsga olingan va 10 yilga qamaldi. U jazo muddatini o'tab kelganiga qaramay 1941-1948-yillarda qayta-qayta yangi muddatlarga qamaladi. 1955-yilda ozodlikka chiqadi. 1957-yilda "Turon" kutubxonasida, 1959-yildan to umrining oxirigacha Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot institutida ishlagan. Uning "Armug'on" she'rlar to'plami bosilgan" [Sirojiddin Ahmad 2010, 4]. Oltoyning "Armug'on" she'riy to'plamiga G'afur G'ulom va Maqsud Shayxzoda tomonidan yozilgan so'zboshida shoirning "Armug'on" (1967), "Yer yulduzlari" (1925), "Chaqmoqlar" (1930) nomli 3 ta kitobi nashr etilgani aytib o'tiladi. 1967-yilda Sherali Turdiyev bilan birgalikda "O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi bibliografiyasi"ni tuzadi. Bu kitob 2010-yilda Naim Karimov muharrirligida qayta nashr etildi. U rus adibi V. Mayakovskiyning she'rlarini o'zbek tiliga birinchilardan bo'lib tarjima qildi. O'zbek shoirlaridan Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodiga alohida qiziqish bilan qaraydi va unga atab "Hamza Toshkentda" poemasini yaratadi. Ushbu jumlar fikrimiz dalilidir:

*Otashin shoirning otash so'zlarin,
O'sha yoshlik chog'lar etdim dilga jo.
Shu vajdan bor butun salovati-la,*

Qarshimda jonlanar u buyuk siymo [Oltoy 1967, 67].

“Bundan tashqari ijodkorning “Qizil O‘zbekiston”, “Farg‘ona”, “Turkiston” kabi gazetalar, “Maorif va o‘qitg‘uvchi”, “Alanga”, “Yer yuzi” kabi jurnallarda bosilgan talay she‘rlari hamda “Adabiy taxalluslar haqida” (O‘zbek tili va adabiyoti, 1967-yil, 1-son), “Nafis adabiyotga sog‘lom mafkura va sog‘lom tanqid kerak” (Qizil O‘zbekiston, 1928, 7-10-avgust), “O‘rta maktablarda til va adabiyot darslari to‘g‘risida” (Qizil O‘zbekiston, 1925, 12-noyabr), “Maorif ishlarini qaytadan qurish yumushlarini talabga muvofiq tuzish kerak” (Qizil O‘zbekiston, 1930, 16-aprel), “Adabiyot to‘garagi” (Turkiston, 1922, 24-noyabr) kabi o‘nlab sarmazmun maqolalari ham bor. Shoir she‘rlari haqida “Maorif va o‘qitg‘uvchi jurnalidagi adabiyot materiallari” nomli monografiyada quyidagicha ma‘lumot berilgan: “Bois Qoriyev (Oltoy)ning “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida 7 ta “Telefon”, “Bu dam”, “Qutlash”, “O‘zimga o‘zim”, “Zindon”, “Yangi davr yigitlari”, “Yalta kunduzi” nomli she‘rlari berilgan. Bu she‘rlarning aksariyati 1967-yilda nashr etilgan “Armug‘on” she‘riy to‘plamiga qayta ishlangan holda kiritilgan. Ijodkor o‘z davrida bo‘layotgan o‘zgarishlarga, yangiliklarga munosabat bildirib borgan. Bunday holat jurnaldagi “Telefon”, “Qutlash”, “Yangi davr yigitlari” she‘rlarida yaqqol namoyon bo‘ladi” [Soatova 2023, 68].

1930-yil avgust oyida O‘zbekiston xalq maorif komissarligidagi bir guruh rahbar xodimlar hibsga olinadi. Ular ichida maorif komissari Mannon Ramziy, uning o‘rinbosari Botu, shuningdek, Oltoy, Nosir Saidiy va boshqalar bor edi. Naim Karimov bu ayblovni shunday ta‘rif etadi: “Botu boshchiligida o‘ttizga yaqin maorif xodimlarining qamoqqa olinish sababi garchand Obid Nosirovning o‘limi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular millatchilik va aksilinqilobchilikda ayblanganlar. Shunday ayb bilan qamoqqa olingan va umrining katta qismini sovet davlatining qamoq va lagerlarida o‘tkazgan jabrdiydalaridan biri Bois Qoriyev (Oltoy)dir. U birinchi marta qamoqqa olinganida ham, keyingi tergovda ham o‘zining “millatchi” bo‘lganini tan olgan. Hatto o‘zini shu yo‘lga boshlagan ustozlarining ham “millatchi” ekanligini aytadi. Shoir bu haqida yozma ko‘rsatma ham bergan. Botu ham o‘zining “millatchi” ekanini e‘tirof etgan. Ushbu ko‘rsatma bilan tanishar ekanmiz, NKVD xodimlarining doimiy tazyiqlari ostida mahbuslarda qanday ruhiy o‘zgarish ro‘y berishini ko‘ramiz, o‘zlarini o‘zlari dor tagiga olib borganlarining pinhoni sabablarini sezgandek bo‘lamiz” [Karimov 2013, 150].

Darhaqiqat, sho‘ro hukumati rahbarlari ko‘plab millat ziyolilarining faoliyatida ularga qarshi norozilik bo‘lgan ziyoli qatlam-

ni ayamasdan og'ir jazoga tortgan. Boshlariga inson zoti chidab bo'lmaydigan qiynoqlarni solgan. Biz bu achchiq haqiqatlarni bilgan holda jadid bobolarimizning ijodiy faoliyati, hayot yo'lini yanada chuqur o'rganishimiz, ular orzu qilib yetisha olmagan, bu yo'lda jonini fido qilgan hurlikning, istiqlolning, farovon turmushning qadriga yetmog'imiz, kelajak avlodni ham shu ruhda tarbiyalamog'imiz zarur. Bu haqda professor N.Jabborov shunday yozadi: "Biz jadidchilik bo'yicha shu paytgacha bajarilgan ulkan va salmoqli ishlarni sinchiklab o'rganish, shundan so'ng ularni munosib davom ettirish haqida o'ylashimiz kerak. Holbuki, o'zbek va dunyo olimlari jadidchilik hamda jadid adabiyotini u shakllangan va takomilga erishgan XX asr avvalidanoq tadqiq qila boshlagan..." [Jabborov 2023, 3].

Oltoy ijodi

Nihoyat, 1957-yil 30-martda Abduvohid qori va uning maslakdoshlari bo'lgan ziyolilar 30-yillarda sovet tuzumi tomonidan nohaq qamalgani rasman ajrim qilindi. Shu bilan birga, Abduvohid qorining ikki o'g'li – shoir Oltoy (Bois Qoriyev) va Bosit Qoriyev ham oqlandi. Bugungi kunda Bois Qoriyevning "Nodir nashrlar"dagi gazeta va jurnallarda saqlanib qolgan asarlari talaygina. Bu she'rlarning ayrimlari biz tomonimizdan ilk marta chop etilmoqda.

Ijodkor she'rlari bilan tanishar ekanmiz, uning she'rlarida, asosan, ozodlik, hurlik bilan birga, ilm yo'lidagi yoshlarni qo'llab-quvvatlash ("Yoshliq", "Student", "Olqish"), hayotdagi ijtimoiy, texnik yangiliklardan quvonish ("To'ylar", "Telefon", "Ana kela-di...", "Mashina") kabi g'oyalarni ko'ramiz. Uning 1925-yilda nashr etilgan "Yer yulduzlari" she'riy to'plami ham, asosan, hayotga endigina kirib kelayotgan elektr, telefon, traktor, mashina, poyezd kabi ijtimoiy hayot mavzularida edi. Bir so'z bilan aytganda, Oltoy ijodi hurlik, farovon turmush, shijoatli yoshlarni qo'llash, texnik taraqqiyot kabi har bir davr uchun muhim bo'lgan g'oyalarni ilgari surdi. Bu haqda Qo'ldosh Pardayev "XX asr tongida millat ziyolilari-ning Turkiston xalqiga ma'rifat tarqatishdagi xizmatlari beqiyosdir. Ular ma'naviy-ma'rifiy ruhda, o'tkir publitsistik maqolalari bilan millatni uyg'otishga, jaholat iskanjasidan ma'rifat yuksakligiga olib chiqishga intildi" [Pardayev 2023, 463] deganida haq edi. Zero, Oltoy ham mana shunday millat ziyolilaridan biri edi. Uning she'rlari va maqolalari bilan tanishar ekanmiz, buning guvohi bo'lamiz.

Ozodliq

(Sharqda inqilob kuchaymakda, zulmga qarshi har yerda istiqlool, ozodlik kurashlari...)

Sharqda inqilob,
Sharqda ixtilof,
Sharqda isyon,
Sharqda g'alayon.
Sharqda zulmga qarshi to'palon.

Bu kun arabning,
Hindning, xitoyning,
Misrning ichida
Bag'rinda ozodliq,
Qutulish harakati.
Kuchi yetgan to'lqunlanib,
Butun mustamlaka
O'lkalarni bosqon.

Arabda Abdulkarim,
Isyon egasi.
Faranggistonga
Qarshi to'palon.
Qo'zg'alon qomanda:
Xitoyda har kuni
Yangi o'zgarish,
Yangi voqea,
Hammasi qutulish,
Hammasi ozodliq!
Mustamlaka panjasidan,
Yorug'liq dunyog'a,
Chiqmoqchi.
Ozod yashamoqchi!
Ha, ular istaydir
Qon... qon... qon.
Inqilob olovi,
Qutulish dardi.
Hamma o'lkaning
Ezilgan ishchi -
Dehqon yuragida
Zulmga qarshi
Birdan hujum.
Birdan yiqitish.
Huv - oltin taxtlarni,
O'rnig'a birdan tuzish,
Yangi - tinch dunyo!
Sharq ozod,
Sharq yashaydir.
Shu yo'lda,
Ijtimoiy yo'lda
Kurrai sharq kambag'al!

1925

Mazlumlar to'liqui

Zulmlar, dahshatlar tog'-toshlardek,
Alamlar, qo'rqishlar, dengiz o'tlardek...
Kuchlangan to'liquklar, hayqirg'on ovoz,
- Bormi deb titratar butun hayotni!
Buloqlar qaynag'on xafiz qonlardan,
Vulqonlar pishqirg'on baland tog'lardan.

Qilichlar qinidan odashqon yaraqlab,
O'lim isining qo'shig'in so'ylar.
Uzoqda yolqunlab o'tlar yonadir.
Yerda, ko'kda mudhish ovozlar.
Yangg'irab har yoqqa o'tlar otadir!
Zolimlar ustiga to'fonlar haydab,
Mazlumlar to'liqui chayqalib bosadir...

1923

Ijodkorning matbuot nashrlarida uning "Qoratog' etaklarida" [Oltoy 1926, 37], "Umid qishloqqa" [Oltoy 1926, 48], "Chin yo'lni endi topdi" [Oltoy 1924, 14] kabi hikoyalariga duch keldik. "Umid qishloqqa" hikoyasi: "Uzoqdan qop-qora tumang'a o'ralg'on, qo'rqinchli tusda qishloq ko'zga ko'rinadir" jumalari bilan boshlanadi. Qop-qora tumang'a o'ralg'on, qo'rqinchli tusdagi qishloq bu 20-30-yillarda taraqqiyotdan orqada qolgan, yeyishga noni, kiyishga kiyimi bo'lmag'an qishloq ahlining og'ir kunlari va hayoti tasviridir. Bu muammoga yechim qilib muallif hikoya so'ngida inson yaxshi kunlar kelishiga umid bilan yashashi, tezroq yetishish uchun mehnat qilishi lozimligini aytadi.

"Chin yo'lni endi topdi" hikoyasida esa Do'stmat ismli bir dehqon yakka-yu yagona o'g'li Olimjonni shahardagi yangi maktabga o'qishga qo'ygani, Olimjon maktabni a'lo baholar bilan yakunlab, ta'lim-tarbiya dorulfununiga o'qishga kirgani, hozirgi kunda o'zi ham yaxshi bir muallim ekanligi yoritiladi.

Mazkur hikoya yoshlarni ilm-ma'rifat egasi etish lozimligi, bunda, albatta, kattalar yoshlarga yo'lboshchi bo'lishi kerakligi ilgari suriladi. Zero, ilmiy yoshlar kelajak poydevoridir. Oltoy hikoyalari ni to'plab nashr etmagan.

Oltoyning maqolalari uning ijodida salmoqli o'rinni egallaydi. Uning maqolalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Adabiy yo'nalishdagi ilmiy maqolalar. "Adabiy taxalluslar haqida" [Ozbek tili va adabiyoti, 1967-yil, 1-son], Futurizm to'g'risida [Turkiston, 1924, 2-noyabr], Sinf va ziyolilar [Qizil O'zbekiston, 1926, 4-aprel].

2. Tanqidiy yo'nalishdagi maqolalar. "Ko'mak" uyushmasi (Turkiston, 1923, 20-aprel), Hozirgi maktablarimiz va undagi

o'qituvchilar (Turkiston, 1924, 12-yanvar), O'zbekiston ilmiy markazining vazifalari ustida (Qizil O'zbekiston, 1925, 14-avgust), Maorif ishlarini qaytadan qurish yumushlarini talabga muvofiq tuzish kerak. (Qizil O'zbekiston, 1930, 16-aprel), "Nafis adabiyotga sog'lom mafkura va sog'lom tanqid kerak" (Qizil O'zbekiston, 1928, 7-10-avgust), "Maorif ishlarini qaytadan qurish yumushlarini talabga muvofiq tuzish kerak" (Qizil O'zbekiston, 1930, 16-aprel),

3. Ilmiy-metodik yo'nalishdagi maqolalar. "Adabiyot to'garagi" (Turkiston, 1922, 24-noyabr), Maktablarimizda siyosiy va ijtimoiy tarbiya (Turkiston, 1924, 6-avgust), Hozirgi maktablarimiz va undagi o'qituvchilar (Turkiston, 1924, 12-yanvar), O'lka o'zbek bilim yurtida adabiyot darslari (Turkiston, 1923, 30-may), O'rta maktablarda til va adabiyot darslari to'g'risida (Qizil O'zbekiston, 1925, 12-noyabr).

"Adabiy taxalluslar haqida" [Oltoy 1967, 57] nomli maqola chuqur ilmiy izlanishlar natijasida dunyoga kelgan. Bugungacha bu maqoladan foydalanmagan Milliy uyg'onish davri adabiyoti mutaxassisleri kam bo'lsa kerak. Chunki maqolada 20-30-yillarda ijod qilgan shoir va adiblarning 434 dan ortiq taxalluslarini keltiradi. Garchand, Bois Qoriyevning ham Oltoy, Bois, O-y, Qalamkash, Yosh qalam kabi taxalluslari borligini ayni shu maqola orqali bilamiz.

"Ko'mak" uyushmasi" [Bois 1923, 5] nomli tanqidiy maqolasida esa bu uyushma boshlanish vaqtida o'z vazifalarini namunali bajarib, muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, bugungi kunda rejadagi ishlar bajarilmayotgani, hatto "Ko'mak"ning ma'lum bir idora xonasi yo'qligi, ishlari maorif komissarligi binosi ichidagi yo'lakda sochilib yotganligi, bu yil chetga o'qishga bormoqchi bo'lgan yoshlarimiz soni o'tgan yilgidan ancha ko'p bo'lishiga qaramay, ularga yordam berishga "Ko'mak"ning kuchi yetmayotganligi, yangidan "Nashri maorif" qurmasdan "Ko'mak"ni oyoqqa turg'izish lozimligi haqida kuyunib gapiradi. Maqola quyidagi so'zlar bilan yakunlanadi. "Nashri maorif" qani qurulg'ondan beri nima ish qildi? Bir kitob nashr etdimi yoki chetga birgina o'quvchi yubordimi? Bir leksiya o'qutdimi? Yo'q, hech narsa yo'q... Lekin kuch sarf etilib turibdir. Agar u kuch "Ko'mak" qozonig'a quyulsa edi, hammasi "em" bo'lg'on bo'lur edi. Hammamizning maqsadimiz bir joyda va bir nuqtadir. Lekin foydasiz birga kuch sarf etmaylik. "Ko'mak"ning qilg'on ishlari va qiladurg'on vazifasi ko'z oldimizda gavdalanib turg'on bir vaqtda qurulg'onig'a anchagina vaqt bo'lsa-da, kichkinagina ish ko'rsata olmag'on uyushmalar ketidan yurmaylik-da, "Ko'mak"ka ko'maklashaylik!".

“O’rta maktablarda til va adabiyot darslari to’g’risida” [Oltoy 1925, 3] nomli ilmiy-metodik maqola “Qizil O’zbekiston” gazetasi-ning yuqori nomerlarida IShFAK bilim yurtining talabalari tomonidan o’zbek adabiyotining o’qilishi to’g’risida zorlanib o’rtoq Abdurahmon Sa’diyning Tataristong’a ketib qolishi bilan muallimsiz qolg’onlig’i bayon qilinib, bilim yurti uchun til va adabiyot muallimi so’raladir” degan jumlar bilan boshlanadi. Oltoy ushbu maqolasini shu e’longa javoban yozadi. Maqolada butun O’zbekiston o’rta maktablarining til va adabiyot darslarini birgina o’rtoq A.Sa’diyga bog’lab qo’yish ham kerak emasligi, ishni har bir o’quvchining o’z tashabbusiga, mayliga, uning shug’ullanishdagi iqtidoriga qarab olib borish kerakligini aytadi va muallim qaytguncha quyidagi usulda darslarni tashkil etishni taklif etadi: “O’rta maktab talabalari mashg’uliyatlarida har biri alohida sur’atda, o’zi mavzu olib mustaqil ravishda shug’ullanadirlar. Ularning shug’ullanishlari uchun umumiy vazifa hozirlanadir. Vazifada ko’rsatilgan mavzudan tashqariga chiqmaydir. Vazifani har bir talaba o’z qo’lig’a ko’chirib oladir. Haftada, yoxud o’n besh kunda tartibli konferensiyalar bo’lib, yechilmagan nuqtalarini o’zaro muzokara qilib anglashishadir, bilishadir, yechishadir. Ikkinchi haftada vazifaga xulosa yasaladir. Bu usul til va adabiyot darsida eng qulay, eng oson, muallimsiz o’tkarsa ham bo’ladirg’on bir usuldur. Muallimning o’rniga bir rahbar talabalarning kuchliklaridan chiqariladir”.

Xulosa

Oltoy ijodini kuzatish davomida, uning asarlarini ikkiga bo’lib o’rganishimiz mumkin degan xulosaga keldik. Birinchisi, 1930-yilgacha, ya’ni to qamalguncha bo’lgan vaqtga qadar davr ruhiga moslab yozilgan asarlar. “Yer yulduzlari” kitobidagi she’rlar bunga misol bo’la oladi. Ikkinchisi, uzoq 25 yillik qamoq jazosidan so’ng, 1955-yildan boshlab uning ijodida jiddiy g’oyaviy o’zgarishlar bo’lganligining guvohi bo’lamiz. U endi haqiqiy ma’rifat va ilm sari intilar edi. 1967-yilda nashr etilgan “Armug’on” she’riy to’plamidagi ayrim she’rlar, adabiy taxalluslar bibliografiyasi kitobi, ba’zi maqolalari fikrimizni isbotlaydi.

Yuqoridagi tahlil va izlanishlardan ma’lum bo’ladiki, Bois Qoriyev o’z davrining yetuki, ziyoli ijodkorlaridandir. Uning ijodi ham ko’p qirrali. “Farovon turmush, tinch-osoyishta hayot qurish uchun yoshlarimiz har tomonlama kuchli bo’lishi kerak” degan nazariyani olg’a suradi. Bu yo’lda ilm-ma’rifat asosiy qurol ekanligini o’z asarlarida tinimsiz ta’kidlaydi. Uning sermazmun she’rlari, maqolalari

bu fikrimizni isbotlab turibdi. O'z navbatida adabiyotimiz taraqqiyotida ham uning o'rni bor.

Adabiyotlar

- Турдиев Шерали. *Абдувоҳид қори Абдурауф қори ўғли*. <https://info.islom.uz/ulamolar/>
- Сирожиддин Аҳмад. 2010. *Ҳақ йўлининг фидоийлари. Хуррият*.
- Soatova G. 2023. *Maorif va o'qitg'uvchi jurnalida adabiyot materiallari*. Toshkent: Bookmany print.
- Олтой. 1967. *Армузон. Шеърлар*. Тошкент.
- Karimov Naim. 2013. *Tarixning noma'lum sahifalari*. 4-kitob. Toshkent.
- Jabborov Nurboy. 2023. "Jadidchilikni nega va qanday o'rganishimiz kerak". *Yangi O'zbekiston* 263 (1052). 19-dekabr.
- Terigulov Kashshof. 1928. "Nafis adabiyot jabhamizni sog'lomlash yo'lida". *Qizil O'zbekiston*, 4-5-iyul.
- Oltoy. 1928. "Nafis adabiyotga sog'lom mafkura va sog'lom tanqid kerak". *Qizil O'zbekiston*, 7- 10-avgust.
- Pardayev, Q. 2023. "Al-isloh" jurnalida ta'lim islohi masalasining yoritilishi". *"Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi"* mavzuyidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.
- Oltoy. 1925. Qishloq, dehqon, gazet: She'r. *Qizil O'zbekiston*. 18-avgust
- Oltoy. 1925. Ozodliq: She'r. *Qizil O'zbekiston*. 28-avgust.
- Oltoy. 1923. Mazlumlar to'liqini: She'r. *Turkiston*. 21-noyabr.
- Oltoy. 1926. Umid qishloqqa. Hikoya. *Adabiyot parchalari*. Toshkent. O'zbekiston Davlat nashriyoti, 1926. mart
- Oltoy. 1924. Chin yo'lni endi topdi. Hikoya. *O'zgarishchi yoshlar*. Toshkent. №3-4.
- Oltoy. 1967. Adabiy taxalluslar haqida. *O'zbek tili va adabiyoti*, №1.
- Bois. 1923. "Ko'mak" uyushmasi. *Turkiston*. 20-aprel
- Oltoy. 1925. O'rta maktablarda til va adabiyot darslari to'g'risida. *Qizil O'zbekiston*. 12-noyabr.

Some remarks about the life and work of Altay

Soatova Gulzoda¹

Abstract

In the article, the life and work of the poet Altay (Bois Qoriyev), who has a special place in the history of our national literature, gained importance in the literature of the 20 and 30 years of the XX century, and his family (the life and work of his father Abduvahid Qoriyev, brother Bosit Qoriyev) is presented. The author's published poems and books are discussed. The main idea of his poems is analyzed and personal comments are given. Also, the creator's newspapers such as "Qizil O'zbekiston", "Fergana", "Turkistan", "Ishtirokyun", "Maarif va oqitguvchi", "Alanga", "Yer Yuzi", "O'zgarishchi yoshlar", published in such magazines as "Chin yo'lni endi topdi", "Hope for the Village" is being published for the first time. Altay's articles are classified and some of them are described.

Key words. *Altay, Abduvahid Qori, Bosit Qoriyev, nationalist, "Armugon", "Earth Stars".*

References

- Turdiyev Sherali. *Abduvohid qori Abdurauf qori o'g'li*. <https://info.islom.uz/ulamolar/>
- Sirojiddin Ahmad. 2010. *Haq yo'lining fidoiylari*. Hurriyat.
- Soatova G. 2023. *Maarif va o'qitg'uvchi jurnalida adabiyot materiallari*. Toshkent: Bookmany print.
- Oltoy. 1967. *Armug'on*. She'rlar. Toshkent.
- Karimov Naim. 2013. *Tarixning noma'lum sahifalari*. 4-kitob. Toshkent.
- Jabborov Nurboy. 2023. "Jadidchilikni nega va qanday o'rganishimiz kerak". *Yangi O'zbekiston* 263 (1052). 19-dekabr.
- Terigulov Kashshof. 1928. "Nafis adabiyot jabhamizni sog'lomlash yo'lida". *Qizil O'zbekiston*, 4-5-iyul.
- Oltoy. 1928. "Nafis adabiyotga sog'lom mafkura va sog'lom tanqid kerak". *Qizil O'zbekiston*, 7-10-avgust.
- Pardayev, Q. 2023. "Al-isloh" jurnalida ta'lim islohi masalasining yoritilishi". *"Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissi"* mavzuyidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.

¹ *Gulzoda Soatova* – Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: soatovagulzoda@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-2064-8088

For citation: Soatova, G. 2023. "Some remarks about the life and work of Altay". *Golden scripts* 4: 97 – 108.

- Oltoy. 1925. Qishloq,dehqon, gazet: She'r. *Qizil O'zbekiston*. 18-avgust
- Oltoy. 1925. Ozodliq: She'r. *Qizil O'zbekiston*. 28-avgust.
- Oltoy. 1923. Mazlumlar to'lqini: She'r. Turkiston. 21-noyabr.
- Oltoy. 1926. *Umid qishloqqa. Hikoya. Adabiyot parchalari*.
Toshkent. O'zbekiston Davlat nashriyoti, 1926. mart
- Oltoy. 1924. *Chin yo'lni endi topdi. Hikoya. O'zgarishchi yoshlar*. Toshkent.
№3-4.
- Oltoy. 1967. Adabiy taxalluslar haqida. *Ozbek tili va adabiyoti* 1.
- Bois. 1923. "Ko'mak" uyushmasi. Turkiston. 20-aprel
- Oltoy. 1925. O'rta maktablarda til va adabiyot darslari to'g'risida. *Qizil O'zbekiston*. 12-noyabr.

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Afg'oniston o'zbek tili fonetikasida assimilyatsiya hodisasi

Feada Samadbek¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Afg'oniston o'zbek tili fonetikasida assimilyatsiya hodisalari misollar bilan ko'rsatilgan. Mazkur tilda yozilgan nasriy ijodiyotlar yonida manzum asarlardan ham foydalanilgan. Assimilyatsiyaning turlari, ayniqsa, progressiv, regressiv va ularning kichik bo'laklaridagi tovush o'xshashligi, tovushlarning ta'siri bilan yondagi tovushning o'zgarishi hodisalaridan ham misollar berilgan.

Afg'oniston o'zbek adabiy tilida ko'ringan ayrim assimilyatsiya hodisalari, og'zaki nutqda misollari ancha ko'p. Biroq shevalar hech bir shaklda ishlanmagan. Ayrim kichik tadqiqotlar doirasida ishlangan bo'lsa ham cheklangan sohani qamrab olgan. Mazkur tadqiqotlar yordamchi tarzda ma'lumotlarni to'ldirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning mavzusi Afg'oniston o'zbek adabiy tilda yangi bir tadqiqot bo'lib, kelajakda mazkur tadqiqotdan keng foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: *Afg'oniston, o'zbek tili, assimilyatsiya, progressiv, regressiv.*

Kirish

Assimilyatsiya turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida keng tarqalgan hodisa bo'lib, nutqning moddiy zanjirida, ya'ni tovushlar ketma-ketligida ma'lum bir belgiga ko'ra ikkita no-o'xshash undoshning talaffuz qulayligi uchun o'xshash undoshga aylantirilishidir. Ko'rinadiki, muayyan leksema tarkibida ma'lum belgi asosida zidlanuvchi ikki undosh talaffuz noqulayligini bartaraf qilish harakati tufayli zidlanish belgisini yo'qotadi, bir xil undoshlarga aylanadi [Nabiyeva, Zokirova 2016, 83-84].

Tilshunoslikda assimilyatsiya hodisasi ikkiga bo'linib

¹ Feada M. Samadbek – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: fada.mfada@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-2282-3320

Iqtibos uchun: Feada Samadbek. 2023. "Afg'oniston o'zbek tili fonetikasida assimilyatsiya hodisasi". *Oltin bitiglar* 4: 109 – 119.

tekshiriladi. Birinchisi progressiv assimilyatsiya, ikkinchisi esa regressiv assimilyatsiya shakllaridir.

1. Progressiv assimilyatsiya.

Bir soʻzdagi undoshning oʻzidan keyin kelgan boshqa bir undoshni oʻziga oʻxshatish hodisasidir. Bu tovush hodisasi ikki shaklda tekshiriladi.

1.1. Toʻliq progressiv assimilyatsiya.

Bir soʻzdagi undoshning oʻzidan keyin kelgan boshqa bir undoshni oʻziga oʻxshatish hodisasidir. Afgʻoniston oʻzbek tilining adabiy tilida kam uchraydigan nutq tili va shevalarda koʻproq koʻrinadi.

a. Afgʻon oʻzbek tilida /t/ undoshi bilan tugagan otlarga oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasi *-da*; chiqish kelishigi qoʻshimchasi *-dan* kelganda bu qoʻshimchalarning boshidagi /d/ undoshi jarangsiz /t/ tovushiga aylanib talaffuz qilinadi.

td > tt	ت > د ت ت
o'tda > o'tta Bilasizmi, maktab o'qigan nodonlar o'zlarining qashshoq hayotlarini "bilim o'tta yonmaydi, suvga cho'kmaydi" deb, hammaga ko'z-ko'z qilmoqchi bo'ladilar va bizning shirin hayotimizni ma'naviyatsiz deytilar [Oltoy 2007, 11].	اوتده > اوتته بېلھسېز مې، مکتب اوقیگن نادانلر اوزلرېنینگ قشاق حیاتلرینی "بېلیم اوتته یانمھیدی، سووگه چوکمھیدی» دیب، هممه-گه کوز – کوز قیلماقچی بولھدیلر و بیزنینگ شیرین حیاتیتمیزنی معنویتسېز حیات دییدیلر.
sutdan > suttan U har kun kattaroq bo'lardi. Onasi Ko'kchani majburan suttan ayirdi [Noil Xonkeldi 2022, 46].	ن-ت-توس > ن-د-توس او هرکون کتتهراق بولردی. آنهسی کوکچهنی مجبوراً سوتتن آیردی.
otdan > ottan Dehqon aka uyga bordi. Savdoni ottan tushirib supaning uchiga qo'ydi [Noil Xonkeldi 2022, 9].	آتن > آتنن دهقان اکه اویگه باردی. سودانی آتنن توشیریب سوپهنینگ اویگه قویدی.
vaxtdan > vaxttan Yana ham bir yildan beri istamay turgandi. Oylalar vaxttan o'zarosiga gapni pishirgan ekanla [Noil Xonkeldi 2022, 182].	وختدن > وختتن ینه هم بیر ییلدن بیرى ایستهمی تورگندیم. عایلهلر وختتن اوز ارهسیگه گینی پیشیرگن ایکنله.

b. Afgʻon oʻzbek tilida /k/ bilan tugagan soʻzlarga, joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi yoki sifat-dosh fe'l qoʻshimchasi *-gan* kelganda, qoʻshimchaning boshidagi /g/ tovushi jarangsizlashib /k/ tovushiga aylanadi.

kg > kk	کگ < کک
ko'kga > ko'kka "Bog'-u bo'ston"ingga ont ichkan g'animlar o't qo'yib, / Yoqdilar, ko'kka kulini biabo sovurdilar [Labib 2020, 169].	کوکگه < کوککه "باغ و بوستان"ینگگه آنت ایچکن غنیملر اوت قویب، / یاقدیلر، کوککه کولینی بیابا ساووردیلر.
kesakga > kesakka Bir kuni ayog'im bir kesakka tegib, mudrab ketdim. Ayolim bilan qizim yugurib, qo'ltig'imdan ko'tardilar [Yorqin 2007, 3].	کیسکگه < کیسککه بیر کونی ایایم بیر کیسککه تیگیب، مودرهب کیتدیم. عیالیم بیلن قیزیم یوگوریب کیلیب، قولتیغیمدن کوتردیلر.
yurakga > yurakka Shunday she'rlar borki, na ko'zni chaqnatadi, na yurakka chang soladi, va na-da, tilni kuydiradi [Labib 2020, dd].	یورهکگه < یورهککه شوندھی شعرلر بار که، نه کوزنی چقنتهدی، نه یورهککه چنگ سالهدی، و نه —ده، تیلنی کویدیرهدی.
tutqinlikga > tutqinlikka Berma tutqinlikka tan, sindir kishanni hur yasha?! / Qo'rqma, mardonavor aytgin so'zingni yovga cho'rt! [Elsevar 2016, 48].	توتقینلیکگه < توتقینلیککه بیرمه توتقینلیککه تن، سیندیر کیشتنی خر یشه؟! / قورقمه، مردانهوار آیتگین سوزینگنی یوگه چورت!

c. Progressiv assimilyatsiyaning yana bir turi bor. Afg'oniston o'zbeklari tilida /q/ undaoshi bilan tugagan so'zlarga jarangli undosh bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda, jarangli undosh tovushi jarangsiz /q/ tovushiga o'zgaradi.

qg > qq	قگ < قق
chiqgan > chiqqan Musulmonlar namoz o'qib chiqqan payt Bo'yolar loladek qip-qizil qonga [Elsevar 2016, 76].	چیقگن < چیققن مسلمانلر نماز اوقیب چیققن پیت بویالر لاله دیک قیپقیزیل قانگه
uzoqga > uzoqqa Birinci navbatda 6-7 yashar bir bola to'g'ri kelib uni shoxi bilan ko'tarib, xasdek qilib uzoqqa uloqtirib yibordi [Yorqin 2020, 66].	اوزاقگه < اوزاققه بیرینچی نوبتده ۶-۷ یشر بیر باله توغری کیلیب، اونی شاخی بیلن کوتهریب، خسدیک قیلیب اوزاققه اولاقتیریپ بیباردی.
ayoqga > ayoqqa Barcha olam xalqi a'dl istab ayoqqa tursala, / U, zamon barcha ulus yo'lda qo'shgaydir ulush [Elsevar 2016, 38].	ایاقگه < ایاققه برچه عالم خلقی عدل ایستهپ ایاققه تورسهلر، او، زمان برچه اولوس یولده قوشگی دیر اولوش

d. Afg'oniston o'zbek tili shevalarida /t/ bilan tugagan otlarga –ni tushum kelishigi qo'shimchasi kelganda, /t/ undoshi /n/

tovushini o'ziga o'xshatadi.

tn > tt	تت > نت
yigitni > yigitti ...Yetti tuttan yetti barig osa diydi, yetti qayta yuvsa yetti qayta tuysa diydi, shu yigitti ko'ziga baylasa pas yenadan tuvma ko'zi bo'ladi depti [Akbari, 2011, 143].	يیگیتتی < ییگیتتی ... یییتی توتتن یییتی بریگ آسه دییدی، یییتی قیتنه یووسه یییتی قیتنه نویسه دییدی، شو ییگیتتی کوزیگه بیلسه پس یینهدن توومه کوزی بولهدی دییتی.
cho'tni > cho'rtti Men shu cho'rtti o'ylapam ana big'amdi qarang endi bir mahal diydi asan shu ko'taldi boshirog'idan... [Akbari 2011, 150-151].	چورتتی < چورتتی مین شو چورتتی اوبلهیم انه بیغمدی قرهنگ ایندی بیر محل دییدی اسان شو کوتلدی باشیراغیدن...
otni > otti "Toshpo'lot" otti tutib taqqa qoqar "Bo'riqul" qassob semiz qo'yga boqar [Amini 2020, 47].	آتتی < آتتی "تاشپولات" آتتی توتیب تَقَه قاهر «بور یقول» قصاب سیمیز قویگه باقر

e. Afg'oniston o'zbekchasi nutq tilida /n/ undoshi bilan tugagan bir so'zga /l/ undoshi bilan boshlangan bir qo'shimcha kelganda so'zning oxiridagi /n/ undoshi qo'shimchani boshi-dagi /l/ undoshini o'ziga o'xshatadi. Bu tovush hodisasi ko'proq ko'plik –lar qo'shimchasi bilan yuz beradi.

nl > nn	نل < نن
xirmanlar > xirmannar ... xay dedi xirmannardan bir bir ham qob bug'doy ham senga kumak qilamis [Akbari 2011, 186].	خرمنلر < خرمنلر ... خی دیدی خرمنلردن بیر بیر هم قاب بوغداى هم سینگه کومک قیلهمیس.
qumandonlar > qumandonnar Munu vuchurdu kep shu bolig' pishirgichti kalasiga qo'ndu ana qumandonnar bu boshqa vukumatlar... [Akbari 2011, 168].	قومندانلر < قومندانلر مونو ووچوردو کیپ شو بالیغ پیشیرگیچتی کلہسیگه قوندو انه قومندانلر بو باشقه ووکومتلر...

1.2. Qisman progressiv assimilyatsiya.

To'liq progressiv assimilyatsiyada bir tovush ikkinchi bir tovushni aynan o'ziga o'xshatsa, qisman progressiv assimilyatsiyada jarangsiz undosh, jarangli undoshni jarangsizlashtiradi.

a. Afg'oniston o'zbek tilida jarangsiz /ch/ undoshi bilan tugagan fe'llarga jarangli undosh bilan boshlanadigan qo'shimcha qo'shilganda jarangli undosh tovushi jarangsizlashadi.

chg > chk	چگ < چک
ichgan > ichkan "Bog'u bo'ston"ingga ont ichkan g'animlar o't qo'yib, / Yoqdilar, ko'kka kulini biabo sovurdilar [Labib 2020, 169].	ايچگن < ايچکن "باغ و بوستان"ینگه آنت ايچکن غنيملر اوت قویب، / یاقدیلر، کوککه کولینی بیابا ساووردیلر.
qochgan > qochkan Bu ajubalar ulkaga kirganday, islom qo'shni ulkalarga qochkan edi muqaddasligini yig'ib terib [Noil Xonkeldi, 2023, 241].	قاچگن < قاچکن بو اعجوبلر اولکهگه کیرگندهی، اسلام قوشنی اولکهلرگه قاچکن ایدی مقدسلیگینی بیغیب تیریپ.
ko'chgan > ko'chkan Tezda uzoqroqqa bashqa uyga ko'chib bordi. Biroq ko'chkanimizdan beri Shafqat amaki menga bir musibat bo'lgan edi [Yorqin, 2013, 12].	کوچگن < کوچکن تیزده اوز اقراققه بشقه اویگه کوچیب باردیک. بیراق کوچکنیمیزدن بیرى شفقت عمکی مینگه بیر مصیبت بولگن ایدی.

b. Afg'oniston o'zbek tilida /sh/ undoshi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga kelganda /g/ shaklda yoziladi ammo nutqda /k/ tovushi bilan ifoda etiladi.

shg > shk	شگ < شک
boshga > boshka Jinoza marosimidan o'n kun o'tkan bo'lsa ham, yaqindan va uzoqdan kelgan kim do'stlari, Elxonni bundek buyuk va alamnok qayg'u bilan bosh- boshka qo'yib ketmog' istamadilar [Noil Xonkeldi 2017, 276].	باشگه < باشکه جنازه مراسمیدن اون کون اوتکن بولسه هم، یقیندن و اوزاقدن کیلگن کیم دوستلری، ایلخاننى بوندیک بویوک و المناک قیغو بیلن باش- باشکه قویب کیتماغ ایسته- مهیدیلر.
ishga > ishka Ikkinchi kuni ertalab ishka ketayotganimda bog'ko'chada yana usha shirin va yoqimtoy bolani ko'rdim [Yorqin 2009, 27].	ایشگه < ایشکه ایکینچی کونی ایرتهلب ایشکه کیته یاتگنیمده باغکوچهده ینه اوشه شیرین و یاقیمتای بالهنی کوردیم.
yoshga > yoshka Uch-to'rt yoshka kirganiga qo'rqituvchi narsalar ham birga katta bo'lادilar [Yorqin 2013, 23].	یاشگه < یاشکه اوچ - تورت یاشکه کیرگنیکه قورقیتووی نرسهلر هم بیرگه کتته بولهدیلر.

c. Afg'oniston o'zbek tilida /t/ undoshi bilan tugagan fe'llarga, o'tgan zamon -di qo'shimchasi kelganda /d/ tovushi /t/ tovushiga o'zgaradi. Bu o'zgarish ayrim adabiy manbalarda ko'ringanidek, og'zaki tilda keng bir (miqyosda) kavlamda ishlatiladi.

td > tt	تد < تت
---------	---------

uzotdi > uzotti qo'l uzotti haydari dur bog'iga yosaman xoro bo'lur mu muncha ham [Habibi 2011, 38].	اوزاتدى < اوزاتتى قول اوزاتتى حيدرى دُر باغيگه ياسمن خارا بولور مو مونچه هم
tutding > tutting o'tding > o'tting Gerrayib qo'pol kabi tutting o'zing Umrbor kalpanag kabi o'tting o'zing [Abidi 2011, 31].	توتدینگ < توتتینگ اوتدینگ < اوتتینگ گیره بیب قوپال کبی توتتینگ اوزینگ عمر بار کلپنگ کبی اوتتینگ اوزینگ
ketdi > ketti Ketti yonimdan nigorim tushdi qayg'u boshima / Keldi to'fon endi netoy tushdi to'prog' oshima [Azizo'g'li 2014, 5].	کیتدی < کیتتى کیتتى یانیمدن نگاریم توشدی قیغو باشیمه کیلدی طوفان ایندی نیتای توشدی توپراغ آشیمه
surtidi > surtti Necha fosid, pora xo'r bad qildi islom otini / Surtti go'yo keltirib mavlavlilar betiga lush [Elsevar 2016, 7].	سورتیدی < سورتتى نیچه فاسد، پاره خور بد قیلدی اسلام آتینی سورتتى گویا کیلتیریپ مولوی لر بیتیکه لوش

d. Afg'oniston o'zbek adabiy tilida tovushlarning o'zaro mosligiga ko'ra assimilyatsiyaning aralash shakllari ham bor. Murakkab o'xshashlik deb ot olgan bu hodisa, /g'/ undoshi bilan tugagan otlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga va fe'llarga sifatdosh fe'l qo'shimchasi -gan qo'shilganda, so'zning oxiridagi /g'/ tovushi /q/ tovushiga o'zgaradi. Ushbu hodisa ta'siri ostida, qo'shilgan qo'shimchalarnin boshidagi /g/ tovushi ham /q/ tovushiga o'zgarib ketadi.

g'g > qq	غ گ < ق ق
bog'ga > boqqa Barobar boqqa borar edilar og'ochlardan xabar olgani [Noil Xonkeldi, 2022, 10].	باغگه < باققه برابر باققه بارر ایديلر آغاچلردن خبر آلگنى.
tog'ga > toqqa Nihoyat eng sodda bir dizoyin bo'lgan "yog'du" ma'nosini in'ikos beradigan quyosh; toqqa , boqqa, dengizga va bulutga, qishqachasi har tomonga yoyralgan yorug'ini tunatkan bir dizoyin qabul ko'rindi [Noil Xonkeldi, 2022, 552].	تاغگه < تاققه نهایت اینگ ساده بیر دیزاین بولگن "یاغدو" معناسینی انعکاس بیرهدیگن قویاش؛ تاققه ، باققه، دینگیزگه و بولوتگه، قیسقهچھسی هر تامانگه یایرهلگن یاروغینی تونهتکن بیر دیزاین قبول کوریندی.

yig'gan > yiqqan Yil ham shunday xayrli va barakatli bir yil bo'lib qolgandi ki dehqon aka, yiqqan hosilotini qo'yadigan bir yer topolmasdi [Noil Xonkeldi, 2022, 19-20].	يېغگن < يېققن يېل هم شوندهي خيرلي و برکتلي بير يېل بوليب قالگندي که دهقان اکه، يېققن حاصلاتيني قويهدیگن بير بير تاپهالمسدي.
tug'gan > tuqqan Ikkinchi, shundoq mash'um voqiya yuz bergan mantiqaning davlat amaldorlarini qo'ylari tuqqan dek bo'libT ularga xudo berardi [Yorqin 2008, 133].	توغگن < توققن ايگينچي، شونداق مشنوم واقعه يوز بيرگن منطقه- نينگ دولت عملدارلريني قويلري توققن ديك بوليب، اولرگه خدا بيرردی.

e. Shuningdek hodisa, oxiri /g/ bilan tugagan so'zlarga sifatdosh fe'l -gan qo'shimchasi qo'shilganda, so'zning oxiridagi va qo'shimchalarning boshlaridagi /g/ tovushi /k/ tovushiga o'zgaradi.

gg > kk	گگ < گگ
eggan > ekan O'z tushunchalariga ko'ra, ekkan nihollarining hosilini ko'rmog' uchun qadam ranja qilgan edi [Noil Xonkeldi 2017, 239].	ايگگن < ايککن اوز توشونچهلريگه کوره، ايککن نهاللرينينگ حاصيليني کورماغ اوچون قدم رنجه قيلگن ایدی.
teggan > tekkan Oltinlarning yo'qligini bilgach, qanotiga o'q tekkan qushdek yuqoriga ko'tarildi-yu yerga quladi [Oltoy 2007, 13].	تيگگن < تيککن آلتينلارنينگ يوقليگيني بيلگچ، قناتيگه اوق تيککن قوشديک يوقاريگه کوتريلدی-يو بيرگه قولهدی.
tuggan > tukkan Berda qulog'imizga tukkan seslar, harf-harf erib kalima-kalima tilimiz uchidan tomar ekan; kimi zamon salqin bir shamolga o'zgarib bizni navozish qiladi [Noil Xonkeldi 2023, 158].	توگگن < توککن بيرده قولاغيميزگه توککن سيسلر، حرف - حرف ايريب کلمه - کلمه تيليميز اوچيدن تامر ايکن؛ کيمي زمان سلقين بير شمالگه اوزگريب بيزني نوازش قيلهدی.

2. Regressiv assimilyatsiya.

Bir undoshning o'zidan oldin kelgan undosh tovushni o'ziga o'xshatish hodisaga regressiv assimilyatsiya deyiladi. Bu tovush o'xshatish hodisasi ikkiga bo'linadi.

2.1. To'liq regressiv assimilyatsiya.

Bir undosh tovushning o'zidan keyin kelgan undoshni, xuddi o'ziga o'xshatish hodisasidir. Bu tovush hodisasi Afg'oniston o'zbek adabiy tilida ko'proq nutq tilida ko'rinadi.

a. Afg'oniston o'zbek tilida /t/ undoshi bilan tugagan otlarga /ch/ undoshi bilan boshlagan bir qo'shimcha qo'shilgan paytda /ch/ tovushi, /t/ tovushini o'ziga o'xshatib qo'yadi.

ت چ < چ چ

خدمتچی < خدمچى

بو فکر شوندىن عبارت ايدى كه، اگر خدمتچيلر دسترخوان اوستيگه ايلاق
قويمسلىرىدىن آلدن بيرگينه ينگى جراب كييب، كيبن دسترخوان اوستيگه يوريب
خدمت قىلسهلىر يخشى بولردى.

tch > chch

xizmatchi > xizmachchi

Bu fikr shundan iborat ediki, agar xizmatchilar dasturxon
ustiga ayoq qo'ymaslaridan oldin birgina yangi jurob kiyib, keyin
dastarxon ustiga yurib xizmat qilsalar yaxshi bo'lardi [Yorqin 2007,
8]. Ushbu misoldagi xizmatchilar so'zi o'qishda **xizmachchilar**
shaklida o'qiladi.

b. Afg'onistonda nutq etilayotgan jonli tilda /z/ undoshi
bilan tugagan so'zlarga /s/ undoshi bilan boshlagan bir qo'shimcha
kelganda /s/ tovushi o'zidan oldingi /z/ tovushini o'ziga o'xshatib
o'zgartiradi.

zs > ss	زس < سس
buzsam > bussam	بوزسم < بوسسم
qozsang > qossang	قازسنگ < قاسسنگ
tuzsiz > tussis	توزسىز < توسسىس
yozsa > yossa	يازسه < ياسسه

Yuqoridagi so'zlar Afg'oniston o'zbek nutq tilida tez – tez
ko'rinib turganda biroq yozuvda grammatika qonunlari ko'zga
olingani uchun ancha ishlatilmay turibdi. Fonetika tadqiqotlarida
bunday mavzularga tegilmaganlik kamchilik sezilib turibdi.

2.2. Qisman regressiv assimilyatsiya.

Bir so'zda undoshning o'zidan oldin kelgan undoshni, qisman
o'ziga o'xshatish bir hodisadir. Bu hodisa Afg'oniston o'zbek nutq
tilida ko'proq ko'rinadi. So'z ichida yaralgan lablangan undoshi /b/
o'zidan oldin kelgan /n/ undoshini, lablangan undoshi /m/ fonemaga
o'zgartiradi.

nb > mb	ن ب < م ب
o'n besh > o'm besh Men o'zim qo'ydi besh ming olip o'mbesh ming ham sottom [Burget 2023, 98].	اون بيش < اوم بيش مين اوزيم قويدى بيش مينگ آليپ اومبىش مينگ هم ساتتيم.
do'n'bira > do'mbira Soa't birlardan oshganda qarin do'mbira chertaberdi. Shu uchun, tushlik qilmoq uchun bozordan chiqdik [Yorqin, 2020,59].	دونبیره < دومبیره ساعت بيرلردن اشگنده قرين دومبیره چيرتهبيردى. شو اوچون، توشليك قيلماق اوچون بازاردن چيقتىك.

shanba > shamba ... ruzi shamba to'qqiz yarimga bir tarafi Pokiston unon keyin mo'targa minnik [Burget 2023, 104].	شنبه < شنبه ... روز شنبه توقیز یریمگه بیز طرفی پاکستان اونان کیین موترگه مینیک.
tanboku > tamboku "Ko'ring pahlavon akam! Mana shu qoplardaki orpa bug'doylarning barchasi tortig'siz qolgan. Mana shunlar tortilgandan keyin tigrimonlar bo'sholgincha sizning tambokuyizni ham tortib beraman!..." degan [Noil Xonkeldi 2017, 174].	تنباکو < تمباکو "کورینگ پهلوان اکهم! منه شو فایلردهکی آرپه بوغدایلرنینگ برچهسی تارتیغسیز قالگن. منه شونلر تارتیلگندن کیین تیگیرمانلر بوشهلگینچه سیزنینگ تمباکویزنی هم تارتیب بیرهمن!..." دیگن.

Xulosa

Xulosa qilib aytganimizda, Afg'oniston o'zbek tili fonetikasida assimilyatsiya hodisalari ham adabiy tilda hamda nutq tilida ko'rinadi. Bu hodisa tovushlarning o'zaro mosligi, sheva farqligi natijasida o'rta kelgandir. Tadqiqotimizda Afg'oniston o'zbek tili, ayniqsa, arab alifbosi bilan ijdod etilgan asarlarda assimilyatsiya hodisasi birinchi darajada progressiv assimilyatsiya, ikkinchi darajada regressiv assimilyatsiya o'rin olgan. Regressiv assimilyatsiya hodisasi ko'proq nutq tilda uchraydi. Xususan, qisman regressiv assimilyatsiya hodisasida ko'ringan *nb > mb* tovush o'zgarishlari juda ko'p ishlatilayotgan fonetika hodisasidir. *zs > ss* o'zgarishlari nutq tilida ishlatiladi. Biroq bu hodisa ustida shevalar bo'yicha tekshirilib ishlash kerakli deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar

- Akbari Najibullah. 2011. *Afganistan Tahhar İli Hocağar İlçesi Ağzı*. Yüksek lisans tezi. Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
- Burget Rashid Ahmad. 2023. *Afganistan Tahhar İli Deşti Kale İlçesi Ağzı*. Yüksek lisans tezi. Hacı Bayram Veli Üniversitesi Lisansüstü Eğitim Enstitüsü.
- Nabieva D.A. va Zokirova H.R. 2016. *O'zbek Tili Fonetikasi*. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti. O'quv-uslubiy qo'llanma.
- امینی، محمد کاظم. (۲۰۲۰). آنه تیلی مقدمیده، چاپار خبرگزارلیگی – مزار شریف.
- ایلسیور، تاج محمد. (۲۰۲۱). بیر قولتوم سوو، خراسان انتشاراتی – کابل.
- آلتای، نورالله. (۲۰۲۰). همه گپ پولده، افغانستان قلم انجمنی – کابل.
- حبیبی، محمد ناصر. (۲۰۲۱). کونگیل سیسلری، خراسان انتشاراتی – کابل.
- عابدی جوزجانی، سید محمد. (۲۰۲۱). سیوگی، مطبعه باوری – مزار شریف.
- لیبب، سید محمد عالم. (۲۰۲۲). جیملیک نغمهسی، IKSAD Yayınevi – انقره.
- مونس عزیز اوغلی، عبدالخلیل. (۲۰۲۱). هجران اوتی، آبییک کوزگوسی – سمنگان.
- نایل خانکیلدی، داکتر امین الله. (۲۰۲۱). تورکستان بیرهمی ایرگنهقون، تورکیه

جمهوری.

نایل خانکیلدی، داکتر امین الله. (۲۲۰۲). آفیشنینگ ایزی، کوکچه و جیجون، تیناتو تحقیقات مرکزی – مزار شریف.

نایل خانکیلدی، داکتر امین الله. (۳۲۰۲). نایل نینگ گونلیگی اصلیده هرکیم یازوچی، تیناتو تحقیقات مرکزی – مزار شریف

یارقین، محمد حلیم. (۷۰۰۲). بیز اعلانلر تختهسیمیز، الازهر نشریاتی – کابل.

یارقین، محمد حلیم. (۸۰۰۲). ینگ رییس هم کیلدی، افغان مسلکی باسمهخانهسی – کابل.

یارقین، محمد حلیم. (۹۰۰۲). وکالت دغدغهری اوچینچی نشر، بیانی اجتماعی و فرهنگ جغرمهسی – کابل.

یارقین، محمد حلیم. (۳۱۰۲). بو اوشه بیچاره گینه!، الازهر نشریاتی – کابل.

یارقین، محمد حلیم. (۳۱۰۲). حاجی تریش!، الازهر نشریاتی – کابل.

یارقین، محمد حلیم. (۰۲۰۲). بیز نیگه اوروشهمیز؟، تیناتو تحقیقات مرکزی – کابل.

The phenomenon of assimilation in the phonetics of the Uzbek language of Afghanistan

Feada Samadbek¹

Abstract

This research presents examples of assimilatory phenomena within the phonetics of the Uzbek language as spoken in Afghanistan. It utilizes both prose and poetic works written in this language to illustrate the various types of assimilation encountered. Specifically, it discusses progressive and regressive assimilation, highlighting instances of sound similarity in discrete segments and the alteration of lateral sounds influenced by surrounding phonemes.

In the literary and spoken forms of the Uzbek language in Afghanistan, numerous instances of assimilation phenomena can be observed. However, dialectical variations have received minimal scholarly attention. Although a handful of studies by experts exist, these investigations have encompassed a restricted scope. Consequently, the existing research on dialects is insufficient for comprehensive academic inquiry.

Key words: *Afghanistan, Uzbek language, assimilation, progressive, regressive.*

¹ Feada M. Samadbek – PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: fada.mfada@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-2282-3320

For citation: Feada Samadbek. 2023. "The phenomenon of assimilation in the phonetics of the Uzbek language of Afghanistan". *Golden scripts* 4: 109 – 119.

References

- Akbari Najibullah. 2011. *Afganistan Tahhar İli Hocağar İlçesi Ağzı*. Yüksek lisans tezi. Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
- Burget Rashid Ahmad. 2023. *Afganistan Tahhar İli Deşti Kale İlçesi Ağzı*. Yüksek lisans tezi. Hacı Bayram Veli Üniversitesi Lisansüstü Eğitim Enstitüsü.
- Nabieva D.A. va Zokirova H.R. 2016. *O'zbek Tili Fonetikasi*. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti. O'quv-uslubiy qo'llanma.
- Ane Tili Moghadamdeh, Mazar-e-Sharif news reporter.
- Sivar, Taj Mohammad. 2016. *Bir Kholtom Suv*, Khorasan Publishing House - Kabul.
- Altai, Nurullah. 2007. *All Gap Poldeh*, Afghanistan Qalam Anjumani - Kabul.
- Habibi, Mohammad Nasser. 2011. *Kungil Sisleri*, Khorasan Publications - Kabul.
- Abedi Jozjani, Seyyed Mohammad. 2011. *Seogi*, Bavari Publishing House - Mazar-e-Sharif.
- Labib, Seyyed Mohammad Alam. 2020. *Gimlik Naghmesi*, IKSAD Yayınevi - Ankara.
- Mons Aziz Oghli, Abdul Khalil. 2014. *Hejran Oti*, Aybek Kozgosi - Samangan.
- Nayl Khankildi, Dr. Aminullah. 2017. *Turkestan Birehmi Irgunehqon*, Republic of Turkey.
- Nayl Khankildi, Dr. Aminullah. 2022. *Aqish-Ning Izi*, Kokche and Jieihun, Titatu Research Center - Mazar-e-Sharif.
- Nayl Khankildi, Dr. Aminullah. 2023. *Niel Ning Gunligi*, Head of Harkim Yazouchi, Titatu Research Center - Mazar-e-Sharif
- Yarqin, Mohammad Halim. 2007. *Billboard Advertising Business*, Al-Azhar Publishing House - Kabul.
- Yarqin, Mohammad Halim. 2008. *Yengi Rais Ham Kildi*, Afghan professional Basmakhanehsi - Kabul.
- Yarqin, Mohammad Halim. 2009. *Deghdagh-lari Ochinchis lawyer*, publication, social and cultural expression Jamgharmahsi - Kabul.
- Yarqin, Mohammad Halim. 2013. *Poor Guinea!*, Al-Azhar Journal - Kabul.
- Yarqin, Mohammad Halim. 2013. *Haji Trisher!*, Al-Azhar publications - Kabul.
- Yarqin, Mohammad Halim. 2020. *Biz Nige Urusheh-Miz?*, Titatu Research Center - Kabul.

Temuriylar davridan XX asr boshlarigacha Afg'oniston hududida o'zbek adabiy tili rivoji

Quvonch Ehsonullah¹

Abstrakt

Maqolada o'zbek tilining Afg'onistonda Temuriylar davridan XX asr boshlarigacha bo'lgan mavqeyi o'rganilgan.

O'zbek tili Markaziy Osiyo, Movarounnahr, eski Xuroson va bugungi Afg'onistonda ko'p sonli so'zlashuvchilarga ega ekanligi tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek tili mintaqadagi eng ko'p fuqaroli tillardan biri hisoblanishi hamda XIV–XV asrlarda ushbu tilda so'zlashuvchilar siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy mavqega ega bo'lgani yoritilgan.

Ma'lumki, Temuriylar hukmronligi davrida eski o'zbek tiliga katta e'tibor qaratilgan. O'zbek tili vakillari fors-dariy tillari qatorida o'z tillariga ham yuksak baho berganlar, o'zbek tili temuriylar sulolasi davrida oltin davrga ko'tarilgan. Maqolada o'zbek tilining temuriylardan keyingi holati ham tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *Temuriylar davri, Afg'oniston, o'zbek tili, mavqeyi, adabiy hududlar, adabiy shaxslar.*

Kirish

O'zbek tili ham dunyoning boshqa tillaridek tarix oqimida bir qancha og'ir davrlarni bosib o'tib, hozirgi qayta yuksalish holiga yetib kelgan. Dunyoning har bir tirik tili o'z taraqqiyot davriga ega. O'zbek tilining gullab-yashnagan davri esa Temuriylar davri bo'lib, ushbu Temuriy shohlar va amirzodalarning hukmronligi paytida siyosiy, tarixiy, imroniy, hunariy va ijtimoiy ishlar yonida ko'zga ko'rinarli madaniy, ilmiy va adabiy ishlar ham bajarilgan. Temuriylar zamonida o'zbek tili keng rivojlanib, taraqqiyotga erishgan. Bu til-da nasriy, she'riy va adab bo'yicha kitoblar yozilib, kuchli va e'tiborli til sifatida o'z o'rnini topgan. Bundan 600 yil muqaddam Temuriy hukmdorlarning bilim va madaniyatga e'tibor qaratgani natijasi-

¹ *Ehsanullah Quvonch* – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ehsanullah.quvanch1@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-0627-1009

Iqtibos uchun: Ehsanullah Quvanch. 2023. "Temuriylar davridan XX asr boshlarigacha Afg'oniston hududida o'zbek adabiy tili rivoji". *Oltin bitiglar* 4: 120 – 134.

da XV asr – Sharq uyg'onish davri (renessans davri) deb atalgan. Asosan, o'zbek tilining bugungi ravnaqi va go'zalligi ham dunyo miqyosidagi e'tibori ham o'sha davrning yozuvchi va tilsevarlari, ayniqsa, Temuriylar davlatining yuksak ishlarining davomidir. Biz ham ana shu faxrli tarixni nazarda tutib, Temuriylar davridan XX asrgacha Afg'oniston hududida o'zbek tili mavqeyi nomli unvon ostida tekshirib chiqamiz.

XIV – XV asrlarda o'zbek tilining mavqeyi

XIV – XV asrlarda Temuriylar hukmronligining buyuk qismi Xuroson va bugungi Afg'oniston poytaxti Hirot viloyati bo'lgan. Mana shu davrda Temuriylar sulolasi vakillari hukmdorlik qilgan. Garchi, Amir Temur o'zi 36 yil davomida ko'plab mamlakatlarni egallab, adolat bilan hukmronlik qilgan bo'lsa, keyingi Temuriylar sulolasi vakillari ham hokimiyatni yaxshi boshqardi. Ular ham Temur kabi ilm-ma'rifatni yuksaltirdi hamda o'zlaridan ko'plab tarixiy yodgorliklar qoldirdi. Shu o'rinda Temuriylarning Xuroson va hozirgi Afg'onistonda hukumat surgan hokimlarning nomlari va ulardan keyingi XX asr boshlarigacha bo'lgan hukmdorlarning hukmdorlik paytini qisqa ko'rib chiqish bilan ushbu davrlarda o'zbek tili vaziyati haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Afg'onistonda hukumat qilib o'tgan buyk sarkardalar quyidagilar^

1. Amir Temur (1337-1405).
2. Shohrux ibn Amir Temur (1396-1447).
3. Ulug'bek ibn Shohrux (1447-1449).
4. Abulqosim ibn Boysung'ur (1449-1457).
5. Shohmahmud Mirzo ibn Abulqosim Bobur (1457-1458).
6. Abu Said ibn Sulton Muhammad (1458-1469)/
7. Yodgor Muhammad ibn Sulton Muhammad (1469-1470).
8. Husayn Boyqaro ibn Amir Mansur (1469-1506).
9. Badiuzzamon ibn Sulton Husayn Boyqaro va Muzaffar mirzo ibn Sulton Husayn Boyqaro (1506-1507).

Ushbu hokimlarning zamonida siyosiy, ijtimoiy, imroniy faoliyatlari yonida til va adabiyot, ayniqsa, turk-o'zbek tili va adabiyoti yuksalishi uchun nihoyatda samarali ishlar qilingan.

Mavzuga doir tadqiqotlar olib borgan Rafi'iy ma'lumotiga ko'ra, "Temuriylar davri islom olami va Eron tarixida san'at va madaniyatning yuksalish davrlaridan biri bo'lib, buni hatto Amir Temur va uning vorislari, ayniqsa, Shohrux mirzo davrigacha bo'lgan unumli madaniy va badiiy faoliyatlar sababli uyg'onish davri deb atalgan. Shohrux mirzo Temuriydan Sulton Husayn Boyqaroga-

cha Temuriylarning ko'pchiligi san'atsevar va madaniyatli bo'lganlar. Temuriylar sulolasi Eron, Movarounnahr, Xuroson, O'rta Osiyo va Islom o'lkalarining katta qismida 140 yildan ortiq hukmronlik qilganlari aniq. Shubhasiz, madaniyat, san'at, islom dini nuqtayi nazaridan bu davr Eron, Movarounnahr, Xuroson va Islom olami tarixidagi yorqin davrlardan biridir. Bu davrda she'riyat va adabiyot, xattotlik, naqqoshlik, chizuvchilik, tarixchilik, nasrchilik, astronomiya, riyoziyot, me'morchilik, Islom dini va tasavvuf sohasidagi turli ta'limotlar, shunga yarasha, ko'plab madaniy va badiiy namunalar, ushbu davrning asosiy xususiyatlaridandir" [Rafi'iy, <https://www.ibna.ir>]

Tarixchi G'ulom Muhammad G'uborga ko'ra, "Afg'oniston XII va XIII asrlarda mo'g'ullar tomonidan bostirilib olinishi bilan mamlakatning ma'naviy boyligi zaiflashib ketgan edi, lekin Temuriylar hukumati o'rta kelishi bilan qaytadan mamlakat ma'naviyati yuksalib, ilm va adab, til va adabiyoti yetarli darajada taraqqiy topdi. Temuriylar sulolasi tufayli XIV va XV asrlarda Sharq uyg'onish davriga asos qo'yilganda Yevropada ma'naviyat unchalik yuksalmagan edi, keyinroq XVI asrda G'arb yo Yevropa uyg'onish davriga asos qo'yildi. Shuning uchun tarixiy nuqtayi nazardan, Sharq uyg'onish davri G'arb uyg'onish davridan oldinroq bo'lgan. Bu faxrli yutuq ham Amir Temur va avlodlari hukmronligi zamoniga tegishlidir. Garci, Amir Temur o'z hukmronligi davrida urushlar va jahonkusholik bilan mashhur bo'lib, ko'proq diniy bilimlar yuksalishi uchun jiddiy e'tibor qaratgan bo'lsa-da, uning farzandlari va nabiralari turli bilimlar, san'atchilik va ma'daniyat taraqqiyot topishi uchun ko'zga ko'rinarli qilgan xizmatlari tarixga namoyon bo'lgan" [G'ubor 1387, 275-280]. Ushbu davrlarda chig'atoy tili (ya'ni, o'zbek tili) o'z o'rnini topib, taraqqiy topgan.

Zabihullo Safoning "Tarixi adabiyoti Eron" asarida keltilishi-cha "Temuriylar davridagi Turk adabiyoti, aslida, fors tiliga asoslangan edi. Turklarning shoir va yozuvchilari forsiy she'riyatining birikmalari va mavzularidan foydalanganlar. Turk tili va adabiyoti fors tili va adabiyotining tarjimai deb atagan" [Safo 1391, 146]. Lekin tarixchi Muhammad Rahim Ibrohimning "Adabiyoti o'zbeki Afg'oniston" nomli asariga ko'ra, "O'zbek tili yo Chig'atoy adabiyoti g'aznaviylar va saljuqiylar davrida ham mavjud bo'lib, turk tili asarlarining dari tiliga tarjimai kamida Abu Mansurning nasriy "Shohnoma"si davrida, ya'ni Somoniylar davriga borib taqaladi. Uning aytishicha, "Shohnoma" dagi ba'zi qissalar, o'sha kitobga keltirilgan ba'zi marosimlar, jumladan, Faridun o'g'llariga ism qo'yishi

turkiy ildizlarga ega. Ushbu afsonalarning baʼzilari turkiy hisoblanadi. Bu daʼvo bilan ularning koʻpchiligi “Shohnoma”ning turkiylar, eronliklarga qarama-qarshi taraf boʻlgan qismlarini nazarda tutadilar. Boshqacha qilib aytganda, eronliklar va turklar hokimiyatni mustahkamlash uchun bir-birlari bilan urushmoqda ekanlar. “Qissahoyi Sugʻd (Sugʻd qissalari)” nomi kitobdagi Rustam urushi badiiy manbalardan kiritilgan. Bizning bilishimizcha, turklar yuzlab yillar davomida Buddizm diniga eʼtiqod qilgan, shuning uchun, “Shohnoma”dagi Rustamning jinlar bilan urushi turkiy badiiy manbalardan dari tilida toʻliq tarjima qilingan va hokazolar” [Ibrohim, 1392]. Asosan, Gʻaznaviylar hukmdorligi IX asrning ikkinchi yarmiga asos qoʻyilib, XII asr oxirlarigacha davom etgan boʻlsa, Saljuqiylar hukmdorligi esa XIII asrda asos solingan, chunki bu ikki hukmdor ham turkiy xonadonlarga tegishli boʻlgani sababli turkiy tillar fors tiliga taʼsir oʻtkazgan.

Oʻzbek tilining rivojlanishi va yuksalishi haqida Alisher Navoiy oʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida quyidagicha yozadi: “To mulk, arab va sort salotinidin turk xonlorigʻa topdi, Xulokuxon zamonidin sulton sohibqiron Temur Koʻragon zamonidin farzandi xalafiy Shohrux sulton zamonining oxirigʻacha, turk tili bila shuaro paydo boʻldilar va ul harzatning avlod va ahfodidin ham xoʻshtab salotini zugʻurgʻa keldi” [Navoiy 1390, 64-65].

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida turk-oʻzbek tilida sheʼr yozuvchi shoirlar haqida soʻz yuritgan: “Jaloliddin Muhammad Balxiyning oʻgʻli Sulton Valadning turkiy sheʼrlari kabi asarlar paydo boʻldi. Qamariy IX asrda turkiy tilida yozish bu asr Temuriy shahzodalar va amirlari yordami bilan kuchaydi. Shuning uchun, turkiy sheʼr va nasr paydo boʻldi. U jumladan, Mir Haydari Majzub, Mir Haydati Turkiygoʻy, Lutfiy, Nasibbiy, Latifiy va Mir Ali Kobuliylar bu davrning turkiygoʻy shoirlaridanlar” [Navoiy 1363, 22].

“Shohrux Mirzo saltanatga yetishishi bilan juda koʻp tarixiy ishlar bajariladi, madaniyat yuksaladi, til va adabiyot, ayniqsa, chigʻatoy turkchasi va bugungi oʻzbek tilining asosiy tamal toshi qoʻyiladi. Keyinchalik, Shohrux Mirzo oʻgʻli Boysungʻur Mirzo ham nihoyatda ilmparvar boʻlganligi sababli, hukmronligi davrida oʻzbek tili va adabiyotini taraqqiyotga erishtirishga urindi va juda katta kutubxona qurdirib yozuvchilar va shoirlarni turli bilimlarni oʻrganib kitob yozishga targʻib va tashviqlantirdi. Undan keyin eski Xuroson va bugungi Afgʻonistonda Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi barpo etilishi bilan Hirotda madaniyat markazi qurilib, maʼnaviyat

ko'chati oldingi paytlardan yaxshiroq kamolga yetishadi. Ushbu davrning kamolga yetishiga asosiy sababchi amir Alisher Navoiy bo'lgan. Navoiy esa madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, imroniy va siyosiy ishlari yonida yuzlarcha adib, shoir va yozuvchilarni himoyati ostiga olib, tarix bo'yicha Sulton Husayn davri uyg'onish davrining gul-lab-yashnagan davri deb tanishtirgan. Ayni holda ushbu olim ona tili – o'zbek tilining yuksalishi uchun kurashib, qimmatli asarlar yaratishi bilan o'zbek tilining o'rnini yuksaltirgan. Shuning uchun Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi deyiladi" [Jubl, 188-192]. Shunga ko'ra, XIV – XV asrlar Hirot adabiy maktabida dari tili nasr-chiligi namoyondasi Muiyaddin Husayn Koshifiy voiz va she'r va nazmchilik namoyondalari Nuriddin Abdurahmoni Jomiy va Alisher Navoiy bo'lganlar. Navoiy esa o'z davrida Chig'atoy tili va adabiyotining nasri va nazmining buyuk namoyondasi bo'lib, shu tilda 29 ta nasriy va nazmiy ijod etgan. O'sha paytlar Alisher Navoiyning uyi Afg'oniston, Movoraunnahr, Turkiston, Eron va Kichik Osiyodagi barcha olimlar, fozillar, shoirlar, yozuvchilar va san'atchilar uchun tushar joy va buyuk manaviyat manbayi va maxzani bo'lgan. Ushbu bilimdonlar dari va o'zbek tillarida yuzlarcha qimmatli asarlar ijod qilib o'zlaridan kelasi nasllar uchun yodgorlik qoldirganlar" [G'ubor 1387, 275-280].

Tarixchi va tadqiqchilar haqida yozuvchi Rahim Ibrohim- ning Afg'oniston o'zbeklari haqida yangidan tayyorlagan "Adabiyoti o'zbeki Afghanistan" nomli kitobida o'zbek tilining XIV asrdan – XX asr-gacha bo'lgan o'zbek tili va adabiyotining Afg'onistonning geografik mintaqalarini 6 ta hududga ajratib, ushbu hududlardagi o'zbek tili ijodkorlarini kiritgan. Bu hududlar quyidagilardan iborat:

1. Balx hududi.
2. Hirot hududi.
3. Maymana-Andxo'y hududi.
4. Shibirg'on hududi.
5. Kobul hududi.
6. Badaxshon va Qunduz hududi.

Ushbu hududlarda yashab o'zbek tilida ijod etgan shoir va yozuvchilarni hududlar asosida tartib bilan eslab o'tamiz.

1. Balx hududi: Afg'onistonning shimoliy viloyatlarining markazi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bilan chegaradoshdir. Toponimistlar Balx so'zini "Avesto"dan olingan, asli Buxdi so'z bo'lgan, fonetik o'zgarishlardan Balx shaklini olgan deb ataydilar. Lekin Balx so'zi "Avesto"cha emas, balki turkiy so'z bo'lib, fonetik tilshunoslikning meyoriga mos kelmaydi. Bu so'z eski turkiy tilda

shahar va uy ma'nosini bildiradi. Hozirgi kunda ham Koshg'ar-da Balx (Bolix – Bolx) so'z birikmasi bor. Ayni holda Mirzo Mahdit Astrobodiy ham Sanglox so'zligida ushbu so'zni turkiy so'z deb keltirgan.

Mazkur hududda Mavlono Atoiy Balxiy, Homidiy Balxiy yo Ahmadiy Balxiy, Poshshoxoja Xo'jayi Balxiy, Bobojonxo'ja yo Abdulvahobxo'ja, Miranbek Balxiy, Boborahim Mashrab, Himmati Balxiy, Mavlono G'iyosiddin Himmat yo Himmatiy, Vafo, Rashidiy, Sayyodi Balxiy, Mirzoniyoziy Balxiy, Mavlono Kamoliy Balxiy, Mavlono Jununiy, Abdol yo Sayyid Abdol Eshonxo'ja va Foniyyi Balxiylar turk-o'zbek tilida ijod qilib, shu tilning rivojiga hissa qo'shganlar.

2. Hirot hududi. Afg'onistonning g'arbiy tomonida joylashgan bo'lib, Eron mamlakati bilan chegaradosh. Hirot haqida Alisher Navoiy "Xamsa" asarining birinchi manzuma dostoni "Hayrat ul-abror"ning 19-maqolatida keltirgan ta'rifining nasriy matnini keltirib, manzuma dostoni juda uzun bo'lganligi sababli uni keltirib o'tmaymiz.

«خراسان نینگ عديم المثل كشوری بیانیدا کیم «ارم ذات العماد التی لم یخلق مثلها فی البلاد» کریمهسی، آیتی دور اونینگ شائیدا به تخصیص هرات دارالسلطنهسی نینگ امن آبادی توصیفیدا کیم «و من دخله کان آمنا» مضمونی، حدیثی دور اونینگ تعریفیدا و اگرچه حدیقه ابردی؛ قوروب ابردی؛ ولیکن شاه جویبار عدلی اونی رشکِ خلد برین قیلدی و اگرچه معموره ایردی؛ اما بوزولوب ابردی؛ ولیکن شهنشاه احسانیدن غیرتِ نگار خانه چین بولدی.»

(Xurosonning adim ul-misl kishvari bayonidaki), "erama zotil e'mod, al-latiy lam yuhlaq misluho fil bilod" karimasi oyatidur uning sha'nida bataxisi Hirot dor ul-saltanasining amni obodi tavsifidakim "va mandahalakona omanno" mazmuni, hadisidur uning ta'rifida va agarchi hadiqa erdi, qurub erdi, va leki shohi Jo'ybori adli unin rashki xuldibarin qildi va agarchin ma'mura erdi, ammo buzulib erdi, va lekin shohansho ehsonidin g'ayrati nogorxoniy chin bo'ldi.)

Hirot hududidagi Sharq uyg'onish davri, Temuriylar davri, xususan, sulton Husayn Boyqaro va amir Alisher Navoiy zamonidagi taraqqiyot Sharq uyg'onish davrining eng yorqin davridir.

Ushbu hududda turk-o'zbek tilining rivoji uchun xizmat qilgan adiblar Lutfiyyi Hiraviy, Mavlono Gadoiy, Sulton Ahmadi Mirzo, Mavlono Qutbiy, Mavlono Nargisiy yo Ogahiy, Mavlono Ne'matiy, Halimiy Qalandar, Mavlono Yaqiniy yo Naqibiy, Mavlono Darvesh Nozikiy, Mavlono Muqimiy, Mavlono Latifiy, Sulton Mas'us Mirzo Orifiy Shohiy, Mavlono Biloliy, Shiram, Mirzobek, Sayyid Hasan Ardasher, Ahmad Shayxim Suhayliy, Mavlono Hiloliy, Ibrohim

Muhammad Halil, Soqiy, Osafiy, Sulton Iskandar Mirzo, Mavlono Haydari Turkiygo'y, Abulqosim Bobur, Sulton Husayni Boyqaro Husayniy, Amir Alisher Navoiy, Shoh G'arib Mirzo G'aribiy, Sulton Ahmad Mirzo, Firaydun Husayn Mirzo, Davlatshoh Samarqandiy, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon Abulg'oziy, Kamoliddin Sherali Binoiy Hiraviy, Sayyid Qosimiy, Soli Muhammad Imomiy yo Imoniy, Mog'ul Xonim, Sulton Muhammadi Faxriyi Hiraviy, Mirzo Ibrohimi Joniy, Mirzo Ulug'bek (bilgut)lardan iborat bo'lgan. Ushbu yer turkiy tilli xalqlarning joylari bo'lib hozirda ham yashab kelmoqdalar.

1. Maymana – Andxo'y hududi geografik nuqtayi nazardan Afg'onistonning shimoliy viloyatlaridan bo'lib, Qal'ayi nav va Hirot viloyatlari bilan qo'shni va Turkmaniston viloyati bilan chegaradosh, turkiy tilli xalqlar zich yashaydigan mintaqadir. Ushbu hududning o'zbek tilida ijod etgan ijodkorlari Mavlono Tarxoniy, Mavlono Shavqiy, Amir Rustam Ali, Valibek, Bibiturdi, Mahviy Qaysoriy, Junaydulloh Hoziq, Shoh Vaysiy yo Sho't Xalifa, Nodirniyoz Qodiriy yo Qodiriyi Parangpo'sh va Mullorahim Niyoz Niyoziydir.

2. Shibirg'on hududi Afg'onistonning shimoliy viloyatlaridan biri bo'lib, Andxo'y tumanlari bilan Balx viloyati o'rtasida joylashgan. Mazkur viloyatda juda ko'p turkiy xalqlar yashaydi. Ushbu hududning o'zbek tilida ijod etgan ijodkorlari Ibni Amin Shibirg'oniy yo Mulla Aka Shibirg'oniy, Munshiy Muhammad Yusuf, Sayyidxon Aznab va Muhammad Nosir Ali Xatoi Shibirg'oniylerden iborat.

3. Badaxshon va Qunduz hududi Afg'onistonning shimoli-sharqiy tomonida joylashgan bo'lib, Xitoy va Tojikiston mamlakatlari bilan chegaradosh. Ko'proq ushbu mintaqalarni Qatag'anzamin deb nomlaydilar. Ushbu hududning o'zbek tilida ijod etgan ijodkorlari Mavlono Yusuf Amiriy, Zayniddin Abu Bakr Vafoiy, Bayramxon Xoni Xonon va Muhammad Sharif Gulxaniylardan iborat.

4. Kobul hududi. Afg'onistonning tarixiy mintaqalaridan biri sanaladi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qimmatli "Boburnoma" asarida Kobul haqida quyidagicha yozadi: "O'n bir, o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar, arabiy, forsiy, turkiy, mo'g'uliy, hindiy, afg'oniy, pashshoiy, parochiy, gabriy, barakiy, lag'moniy va muncha muxtalif aqvom va mutag'oyir alfoz ma'lum emoskim, hech viloyatta bo'lg'oy". Ushbu hududning o'zbek tilida ijod etgan ijodkorlari Mir Sayyid Kobuliy, Mirali G'aribiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xoja Kalonbek Qandahoriy, Humoyun Mirzo, Komron Mirzo va Xitoy Soqiylardan iborat [Ibrohim 1400].

Mazkur tadqiqotchi bu 6ta hududdagi 80dan ortiq o'zbek tilida ijod qilgan yozuvchi va shoirlarni tanishtirgan. Ular jami yuzdan ortiq qimmatli asarlarni o'zbek tilida ijod etganlar, fors tilida ham asarlar yaratgan. Ayni holda fors tili namoyondalari ham o'zbek tilida she'r va nasr ijod etganlar.

Tadqiqotchi Muhammad Kozim Aminiy esa maxsus Xuroson adabiy hududiga mansub taniqli o'zbek tili ijodkorlarini Foryob bilim yurtidagi o'zbek tili va adabiyoti kafedrasiga tegishli darslik qo'llanmaga quyidagilarni kiritgan:

1. Mavlono Tarxoniy: XV asrning o'zbek adabiyoti tarixida o'rganilmagan zullisonayn shoir Mavlono Tarxoniy Foryob viloyati-ning Andxo'y shahrida yashab, Mavlono Jomiy she'riga javoban she'r yozgan. U "Majolis un-nafois"dagi ma'lumotlarga ko'ra Samarqand urushlarida asirga tushgan.

2. Mavlono Shavqiy Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida qayd etilishicha, Chechaktulik bo'lib, Afg'onistonning Foryob viloyatiga qarashlidir. Ushbu shoir ta'bi muloyim zullisonayn shoir bo'lib, o'zbek va fors tillarida she'r yozgan. Quyidagi matla' uning o'zbekcha she'ri misoli namunasidir.

Borib ovora ko'nglum zulfig ichra muftalo qoldi

Tarahhum qilki mendan bordi-yu umidi sango qoldi.

3. Mahviy Qaysoriy milodiy XII – XIII asrlarda Maymana shahri yaqinidagi Sarbuloq qishlog'ida dunyoga kelgan. Mahviy esa Qaysorga qarashli Xo'jakent qishlog'ida shayxulislom Xudoyberdi o'g'liga ergashadi va keyinchalik, unga kuyov bo'lib shayxulislomlik maqomiga erishadi. Mahviy sayru safarga chiqib, Hirotda hayot kechirgan, uning o'zbek, fors tillarida devoni mavjud.

4. Mavlaviy Muhiyi Ho'qandiyi Qandahoriy 1911-yilda vafot etgan va Mavlaviy Muhiyi Ho'qandiyi Qandahoriy o'zbek va dari tillarida ijod qilgan zullisonayn shoir bo'lib, uning ota-bobolari Qandahor va Hirotdan Movarounnahrning Ho'qand mintaqasiga borib, o'sha yerda qolib ketgan. Mavlaviy Muhiyi Ho'qandiyi Qandahoriyning o'zbekcha-forscha devoni haqida ma'lumotlar yetib kelgan va bu shoirning she'rlari Buxoro, Samarqand va Toshkentda chop bo'lgan.

5. Mavlono Jununiy XV asrda Hirotda yashab ijod etgan o'zbek shoiri bo'lib, hajviy she'rlar yozib shuhrat qozongan. Uning "Muammoyi Jununiy" asari bizga yetib kelgan. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida Jununiy haqida ma'lumotlar mavjud.

6. Qodiriy Palangpo'sh XI asrda esa Nodirniyoz Qodiriy, Arabshoyi bolo qishlog'ida tug'ilgan. 45 yoshida safar qilib, 30 yil-

cha Kashmir, Bag'dod, Shom, Buxoro va Rim o'lkalarida yashab, yetti marta Ka'bayi sharifni ziyorat qilgan. Qodiriya tariqatining ixlosmandi bo'lgani sababli Qodiriy taxallusini olgan. Uning ijodidan "G'urbatnoma" she'riy to'plami meros bo'lib qolgan. Tug'ilgan yurti Andxo'y.

7. Tengriberdi Ibratiy XII – XIII asrlarda yashab ijod etgan o'zbek mutasavvuf shoirining hayoti to'grisida yetarli ma'lumot qo'limizda bo'lmasa ham Qaysorning "Savri Norin" qishlog'ida hayot kechirgani ma'lum. Tariqatda mavlono Nematullo Mahviyning muridi bo'lib, Naqshbandiya tariqatining tarmoqlaridan "Shayx ul-Islomiya" silsilasiga kirib, tarbiya topgani aniq. U o'zbek tilida ikkita asar yozgan bo'lib, biri "Mufid ul-Amvod", ikkinchisi "Sulton Ibrohim Adham manzum" dostoni. Ushbu ikki asarning qo'lyozma nusxalari 1994-yili Muhammad Kozim Aminiy tomonidan topilib matbuotga taqdim etildi.

8. Mirzo Junaydullo Hoziq XVIII asr oxirida yashab ijod etgan. Uning asl oti Junaydullo Shayx ul-Islom, So'fi Islomquli o'g'li bo'lgan. U Foryob viloyatiga qarashli Qaysor mintaqasining Xo'jakenti qishlog'idan. Yana bir ma'lumotga ko'ra Hirotda tavallud topgan zullisonayn o'zbek shoiridir. Uning fors-dari tilida yozilgan "Yusuf va Zulayho" manzum dostoni hamda "Manoqibi Islomiya" nasriy asari va "Devoni Hoziq" nomli asarlari mavjud. Lekin 1799-1800-yillari Buxoroda yashagan Hoziq Umarxonga asir bo'lib va Amir Nasirulloxon dargohidagi shoirlar bilan raqobatlashgan. Keyinchalik, Buxoro amiri Nasirulloxon buyrug'i bilan Shahrisabzda qatl etilgan. U o'lmasidan bir kecha oldin o'z o'limini oldindan sezib "Tani Hoziq" tarixiy moddani quyidagi baytda yozib qoldirgan:

Haddi harkast nes az tarixi qatlash damzadan

Az "Tani Hoziq" biju tarixi sar bubridanash.

"Har kishi o'z o'limining sanasini eslab qolishi har kimning haddi emas. Hoziqning vafot etgan sanasini "Tani Hoziq"dan qidiring". Abjad raqamlarini jamlab chiqsak, hijriy sanaga asos, shoirning vafoti 1259-yil chiqadi. Junaydullo Hoziq tasavvufda shayxulislomlik martabasini egallab, mashhur diniy olim bo'lib tanilgan. U Xondamirning "Ravzat us-safo" asari birinchi jildini o'zbek tilida tarjima qilgan. Bundan tashqari Hoziq xattot, munajjim, tabib va tarjimon sifatida ham mashhurdir.

9. Cho'txalifa (Shoh Vaysiy): Qandahorlik bo'lgan shoh Vaysiy esa Maymanaga ko'chib kelib, shu yerda istiqomat qilgan. Shoh Vaysiy, ya'ni Cho'txalifa irfon va tasavvuf yo'lida o'z atrofiga muridlarini jamlagani uchun unga el tomonidan xalifa nomi berilgan. Cho'txalifaning tug'ilgan va o'lgan yili ma'lum emas. U May-

manada Chayonxon hukmronlik qilgan davrlarda yashab o'tgan. Cho'txalifadan bizgacha "Xavoriqnoma" va "Shajaranoma"si yetib kelgan. Shoh Vaysiyning 25 parcha o'zbekcha she'ri borligi ma'lum, uning o'zbek tilida mukammal devoni bo'lgani haqida ma'lumot bor. Cho'txalifaning Butovjonbobo nomi bilan mashhur maqbarasi Maymana yaqinida umumxalq ziyoratgohiga aylangan.

10. Lahif Totor: 1923-1986-yillarda Mullomurod o'g'li Mavlaviy Nazarmuhammad Lahif Totor Foryob viloyatiga qarashli Shirin-tagobning Islomqal'a qishlog'ida tavallud topgan. U boshlang'ich ta'limotni otasidan o'rganib, so'ngra Janubiy Turkistonga tegishli Sangchoyrak, Anxoy, Mozori Sharif va Toshqo'rg'onda ta'lim oladi va keyinchalik Qunduzdagi "Xiyobon" madrasasida Mavlaviy Muhiyiddin Marg'iloniy huzurida ilm o'rganadi. Lahif Totor Mavlaviylik martabasiga erishib 1953-yili tug'ilgan qishlog'iga qaytib, mudarrislik qiladi. U arab, fors, dari tillarida ham she'rlar yozgan. Lahif Totor fiqh olimi sifatida ham shuhrat qozongan. Uning "Al-Nibrozi fil-Me'ros" nomli kitobi muhim ahamiyatga egadir.

11. Gavhariy: Muhammad Usmonxon o'g'li Sayyid Siddiqxon Gavhariy 1884-1953-yillarda Balxda tug'ilgan o'zbek shoiri hamda mohir xattot bo'lgan. Gavhariy o'zbek, fors hamda arab tillarida ijod etgan. Uning badiiy ijod merosidan faqat sakkiz ming bayt, o'zbek, fors-dari va arab tillarida she'riy qo'lyozmalari mavjud. Gavhariyning otasi Afg'oniston o'zbek xonliklarida, ya'ni Mirhakimxon otaliq davri bosqinchi afg'onlarga qarshi harakatni boshqarib, Turkiston o'zbek xonliklarini himoya qilgan.

12. Sadr ul-hukamo G'iyosiddin o'g'li Mavlaviy Mirmuhammad Amin Qurbat 1901-1989-yillarda Toshkentda tug'ilgan zullisonayn o'zbek shoiri. Qurbatning otasi Toshkentdan Foryobga kelib yashagan. Bir necha zamon Kobulda yashab ijod etgan. Ushbu shoir Bedildan izdoshlik qilgan o'zbek tilining kuchli shoiri bo'lib, uning "Guldasta" nomli forscha va o'zbekcha she'riy devoni bizga yetib kelgan.

13. Hojimuhammad Tohir o'g'li Domillo Ashirqul Fayziy (1946-1986) 1946-yilda Foryob viloyatiga qarashli Qaysarning Norin qishlog'ida tug'ilgan. Ushbu mintaqada yashab ijod etgan Fayziy esa boshlang'ich ta'limotni ustozlari domla Bo'riqul Savriy, ya'ni Eshon Qipchoq va domla Shukurlardan o'rganadi. Mujaddadiya va Naqshbandiya tariqatiga ergashib, murshidlik martabasiga ko'tarilgan. U o'zbek va dari tillarida she'rlar yozib, mukammal devon qoldirgan.

14. Sayyid Qosim o'g'li Sayyid Mirzo Faqiriy (1894-1958)

1984-yilda Shibirg'onning Mirsobod qishlog'ida tavallud topgan va shu yerda tahsil olgan zullisonayn o'zbek shoiridir. U ko'plab tarixiy hodisalarga bag'ishlab she'rlar yozgan.

15. Hozji Sayyid Burhoniddin o'g'li Sayyidfozil G'amgin (1895-1936) 1895-yilda Maymana shahri yaqinidagi Butcha qishlog'ida tug'ilgan o'zbek shoiridir. G'amgin xattotlik va o'qituvchilik bilan Maymanada qurilgan ilk zamonaviy maktabda birinchi muallim sifatida ish olib borgan. Uning she'riy to'plami ham mavjud.

16. Ilmiy Foryobiy: Murtazoqul o'g'li Mavlaviyi Abdulg'ani Ilmiy (1915-1977) 1915-yilda Shibirg'onning Oltixoja qishlog'ida tug'ilgan din olimi va o'zbek zullisonayn shoiridir. U kishi Foryob viloyatiga qarashli Shirintagob tumanining Ostonabobo mintaqasi va Maymana shahrida hayot kechirgan. Ilmiy Mavlaviy Muhiddin Marg'iloniy huzurida ilm o'rganib, kamol topgan. Maymana shahrida mudarrislik qilgan Ilmiy Foryobiyning "Tarixi Xuroson" nomli asari ma'lum.

17. Qorimuhammad Ismoil o'g'li Muhammad Azim Azimiy 1901-1990-yillarda Afg'onistonning Sarpul shahridagi Qozixona guzarida tug'ilgan o'zbek shoiri. U diniy madrasalarda tahsil olib, o'qituvchilik qilib davlat lavozimida ishlagan. Xuroson adabiy muhitining so'nggi bo'g'inlaridan sanalmish Azimiy esa o'zbek, dariy va pashtu tillarida ijod etgan. Uning she'riy devonlarining nomi "Nisob us-sabiyon", "Qavoid ul-Qur'on" va "Tuhfat ul-Azimiya va qavoid ul-ta'miya".

18. Ojiz Andxo'yi: Xalifa Muhammadqosim o'g'li Muhammad-olim Ojiz (1911-1978) 1911-yil Buxoroga qarashli Xoja Zomucha yonidagi Xo'ja Porso guzarida dunyoga kelib, Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. U keyinchalik o'z oilasi bilan Andxo'yg'a borib qolgan. O'zbekcha, forsha she'rlari mavjud.

19. Solimuhammad Salohiy: Mulla Abulqosim o'g'li Solimuhammad (1930-1956) 1930-yilda Maymana shahrining Tandurak guzarida dunyoga kelgan, zullisonayn o'zbek shoiri. U boshlang'ich ta'limni otasi oldida va o'rta ta'limini Kobuldagi Dor ul-quzzot madrasasida o'qigan, keyinchalik, hukumat tashkilotlarida qozilik lavozimida ishlagan.

20. Mir Olim Samimiy: Olimxon Afandi laqabi bilan shuhrat qozongan zullisonayn o'zbek shoiri mir Olim Samimiy (1903-1992) 1903-yilda Farg'ona viloyatining Marg'ilon qishlog'ida dunyoga kelgan. U 15 yoshida Afg'onistonga muhojir bo'lib kelib, shu yerda ta'lim olgan. Keyinchalik, Afg'oniston tomonidan eski sho'roviy Turkiyada elchi bo'lib ishlagan. U ham Foryob viloyati markazi

Maymana shahrida olamdan o'tgan.

21. Qori Sharofiddin Sharaf: Nizomiddin qori Sharofiddin Sharaf (1913-1984) 1913-yilda Qo'qonda tug'ilgan. U Afg'onistonda muhojir bo'lib, Kobulda yashagan. Qur'oni Karimni hibsi etgan Sharaf o'zbek va dari tillarida she'r yozgan. Xuroson adabiy muhitiga taalluqli o'zbek adabiyotining oxirgi namoyondalaridan. Ushbu shoir Kobulda vafot etadi.

22. Sharofiddin Sharaf (Domillo Bedil): Mir Qosim o'g'li Sarofiddin Sharaf (1874-1945) 1874-yilda Toshkentda tug'ilgan. U yerda boshlang'ich ta'lim olib, so'ngra Buxoro madrasalarida ilm o'rganadi. Bedilning ijodiyotini yaxshi tahlil qilgani uchun Domillo Bedil laqabi bilan shuhrat topgan. U Toshkentdan Andxo'yga kelgan. U o'zbek va dari tillarida ijod etgan.

23. Shokir Toliqoniy: Qurbonali o'g'li Muhammad Nabi Shokir Toliqoniy (1911-1952) 1911-yilda Afg'onistonning Taxor viloyatiga qarashli Parchav qishlog'ida dunyoga kelgan o'zbek shoiri. O'qituvchilik bilan shug'ullangan, zullisonayn ijodkor sifatida tanilgan.

24. Xayriy Foryobiy: Mir Ahmadqulixon Rojiy o'g'li Abulxayir Xayriy (1907-1978) 1907-yilda Kobulda tavallud topgan. U davlat arbobi va zullisonayn o'zbek shoiri sifatida badiiy ijod bilan birga bir qator ijtimoiy va siyosiy faoliyatlarda ishtirok etgan va milliy istobdodga qarshi kurashgan.

25. Hamidiy Shibirg'oniy: Muhammadtohir Xoja o'g'li domillo Abdulhamid Hamidiy (1880-1954) 1880-yilda Shibirg'on shahrining Yakkabog' qishlog'ida dunyoga kelgan. Hamidiy Foryob viloyatining Bilchiroq tumanidagi madrasalarda ta'lim olib, so'ngra Movarounnahrda Mir Arab va Ko'kaldosh madrasalarida o'qigan. Hamidiy 1919-yili tug'ilgan yurti Shibirg'onga qaytib 28 yil Ibni Yamin madrasasida mudarrislik qiladi. U o'zbek, arab va dari tillarida ijod etgan.

26. Sayyid Ahmad Bino 1897-1973-yillarda Foryob viloyati Jamshidi qishlog'ida tug'ilgan. U zullisonayn shoir bo'lishi qatorida bunyodkorlik va sahhoflik ishlari bilan shug'ullanib, o'simliklarning xususiyati haqida maqolalar yozgan.

27. Domillo Besar: Mullo Ayniddin Yuzbegim o'g'li Domilloqosim Jandapo'sh Foryob viloyatiga tegishli Darzob tumanida tug'ilib, 1911-yilda vafot etadi. Ushbu shoir Buxoroda tahsil olib, 1877-yilda Darzobga qaytadi va umrining oxiriga qadar Shibirg'onda yashab, o'zbek va dari tillarida ijod qiladi.

28. Ibni Yamin Akayi Shibirg'oniy – tasavvuf va she'riyat

olamida mashhur bo'lgan zullisonayn shoir Buxoroda ta'lim olgan. U Mavlono Xojagi Kosoniy bilan suhbatdosh bo'lgan. Bu kishi ta'limni tugatgandan keyin Shibirg'onga qaytgach, shu yerda masjid va madrasa qurib, dars o'tishga mashg'ul bo'lgan. Uning tasavvuf haqidagi "Yetti majlis", "Majlis yorituvchi" masnaviylari borligi ma'lum. 300 baytdan iborat she'rlar shoirning sermahsul ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Bu o'zbek shoiri esa 1596-yilda vafot etadi.

29. Muqimiyi Andxo'y (1875-1951) 1875-yili Andxo'y tumanining Shikorxona qishlog'ida dunyoga kelgan. Xudoyquli Baxshi o'g'li mullo Muhammad Muqimiy zullisonayn shoir va xattot, Buxoro madrasalarida o'qigan. Andxo'yning maktab va madrasalarida o'qituvchilik qilib hayot kechirgan.

30. Mullo Muhammadquli Miskin: So'fi Hazratqul Charmgar o'g'li mullo Muhammadquli Miskin 1844-1939-yillarda Foryob viloyatining Maymana shahriga qarashli Charmgar qishlog'ida dunyoga kelgan. U naqshbandiya va qodiriya tariqatiga izdoshlik qilgan, sarf, nahv, tavjid, qofiya, hadis va diniy bilimlarni yaxshi bilgan. Uning she'rlari 2000 baytdan oshiqroq.

31. Karimiyi Shibirg'oniy: Hoji Muhammadamin o'g'li domillo Abdulkarim Shibirg'oniy ham Shibirg'on shahrida tug'ilgan. Buxoroga tahsil oladi. 1919-yili Buxorodan qaytib, Shibirg'ondagi madrasalarda mudarrislik qiladi. Karimiy 1949-yildan umrining oxirigacha Shibirg'ondagi Ibni Yamin madrasasida o'qituvchilik qilib, 1970-yilda vafot etadi. O'zbek va dari tillarida ijod etgan. Uning she'rlari hozirgacha kitob bo'lib chiqarilmagan [Amini, 1388].

Xulosa

Temuriylar davrida o'zbek tilida bir necha yuzlab asarlar yaratilgan bo'lib, o'zbek adabiy tilining asosi qo'yilgan. Undan keyin Boburiylar davri ham Afg'onistonda o'zbek tili rivojlanishi uchun tarixiy zamon sanalgan. Biroq Temuriylardan so'ng Shayboniyxon davrida ham o'zbek tili rivoji uchun unchalik yomon edi deb bo'lmaydi. Biroq Safaviylar, Ho'takiylar, Afshoriylar, Durroniylar va G'alzoiylar davridan Abdurahmonxon va Omonilloxon hukmronligigacha o'zbek tili rivoji uchun hech qanday ishlar yo'lga qo'yilmadi. Ikki asrdan oshiq muddatda o'zbek tili cheklangan, tor imkoniyatlar doirasida hayot kechirdi, lekin ushbu tilning Afg'onistonda tirik qolishiga sabab jonkuyar o'zbek xalqidir.

Adabiyotlar

- Aminiy Muhammad Kozim. 1388. *O'zbek adabiyoti havzalari*. Darslik. Maymana, Foryob bilim yurti.
- G'ubor G'ulom Muhammad. 1387. *Afg'oniston darvasiri tarix*. 1-2-jildlar, Mayvand nashriyoti.
- Rahim Ibrohim. 1392. *Adabiyoti o'zbeki Afghanistan*. Bobur anjumani.
- Safo Zabihullo. 1391. *Tarixi adabiyoti Eron*. 4-jild.
- Alisher Navoiy. 1390. *Muhokamat ul-lug'atayn*. Kobul.
- Alisher Navoiy. 1363. *Majolis un-nafois*. Kobul.
- Jubl, Muhammad Haydar. *Tarixi adabiyoti Afghanistan*. Kobul, Mayvand nashriyoti.
- Rahim Ibrohim. 1400. *Adabiyoti Chig'atoy (o'zbeki) Aghaniston*.
- Rafi'iy. Amir Temur, 26-12-1400, Tarixi siyosiy va ijtimoiy Temuriyon. <https://www.ibna.ir>

The development of the Uzbek literary language in Afghanistan from the Timurid period to the early 20th century

Quvonch Ehsanullah¹

Abstract

The article examines the position of the Uzbek language in Afghanistan from the Timurid period to the beginning of the 20th century.

It has been researched that the Uzbek language had many speakers in Central Asia, Movarunnahr, old Khorasan and today's Afghanistan. It is also researched that the Uzbek language is considered one of the languages with the largest number of citizens in the region and that the speakers of this language had political, cultural, economic and social power in the XIV-XV centuries.

During the rule of the Timurids, great attention was paid to the old Uzbek language. The representatives of the Uzbek language gave a high value to their own language along with the Persian-Dari languages, the fact that the Uzbek language had a golden age during the Timurid dynasty,

¹ Ehsanullah Quvonch – PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: ehsanullah.quwanch1@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-0627-1009

For citation: Ehsanullah Quvanch. 2023. "The development of the Uzbek literary language in Afghanistan from the Timurid period to the early 20th century". *Golden Scripts* 4: 120 – 134.

and the state of the Uzbek language after the Timurid dynasty was studied in the article.

Key words: *Timurid era, Afghanistan, Uzbek language, status, literary regions, literary figures.*

References

- Aminiy Muhammad Kozim. 1388. *O'zbek adabiyoti havzalari*. Darslik. Maymana, Foryob bilim yurti.
- G'ubor G'ulom Muhammad. 1387. *Afg'oniston dardmasiri tarix*. 1-2-jildlar, Mayvand nashriyoti.
- Rahim Ibrohim. 1392. *Adabiyoti o'zbeki Afghanistan*. Bobur anjumani.
- Safo Zabihullo. 1391. *Tarixi adabiyoti Eron*. 4-jild.
- Alisher Navoiy. 1390. *Muhokamat ul-lug'atayn*. Kobul.
- Alisher Navoiy. 1363. *Majolis un-nafois*. Kobul.
- Jubl, Muhammad Haydar. *Tarixi adabiyoti Afghanistan*. Kobul, Mayvand nashriyoti.
- Rahim Ibrohim. 1400. *Adabiyoti Chig'atoy (o'zbeki) Aghaniston*.
- Rafi'iy. Amir Temur, 26-12-1400, Tarixi siyosiy va ijtimoiy Temuriyon.
<https://www.ibna.ir>

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo’yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma’lumotlar

beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda “tarjima muallifniki” shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?."

O'zbekiston adabiyoti va san'ati, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 12. 2023-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot
agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan
ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62